



международном научно-образовательном
электронном журнале

**ЧАСТЬ-12
ТОМ-2
01/2024**



OPEN  ACCESS



ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

международный научный электронный журнал

ЧАСТЬ-12 ТОМ-2

Январь - 2023 год





NODAVLAT MAKTABGACHGA TA'LIM MUASSALARINI TASHKIL ETISH

Durdiyeva Mohinur Adilbek qizi

Erjanova Saboxon Baxtiyorovna

UrDU Pedagogika fakulteti Maktabgacha

ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi

Yusupov Xamza Kurbonnazarovich

Xalqaro Nordik universiteti

"Ta'lim muassasalarini boshqarish"

yo'nalishi 1- kurs magistranti

Annotatsiya: Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati bo'yicha ruxsatnoma berish tartibi to'g'risida nizomlarni tasdiqlash haqida bilimlarga ega bo'lasIZ.

Kalit so'z: maktabgacha ta'lim, nodavlat, kompensatsiyalar, samarali sarflash

O'zbekiston Respublikasi Moliya va Maktabgacha ta'lim vazirliklarining tegishli topshiriqlariga asosan nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari hamda davlat-xususiy sherikchilik shartlari asosida tashkil etilayotgan maktabgacha ta'lim muassasalariga davlat byudjeti mablag'lari hisobidan har oylik kompensatsiyalar to'lash va subsidiyalar ajratish bo'yicha viloyat moliya bosh boshqarmasi tomonidan tegishli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari hamda davlat-xususiy sherikchilik shartlari asosida tashkil etilgan maktabgacha ta'lim muassasalariga me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida mablag' ajratilishini, ajratilgan byudjet mablag'larini ko'zlangan maqsadlarga o'z vaqtida yo'naltirilishini hamda samarali sarflanishini ta'minlash maqsadida shahar hamda tumanlar moliya bo'limlarida quyidagi tartibda ish tashkil etilmoqda: Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 18 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi va uning tizimidagi muassasalarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi 991-sonli qaroriga asosan joylardagi nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari tomonidan foydalanilgan elektr energiyasi va tabiiy gaz xizmatlari uchun to'lovning 50 foizi o'z mablag'lari hisobidan hamda qolgan 50 foizi O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan qoplash;



Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 30 iyuldagi 595-sonli qarori bilan Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalariga oylik subsidiyalar ajratish bo'yicha:

- *joylarda tashkil etilgan oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarini aniqlash va tahlil qilish* (Bunda, tarbiyachi va yordamchi tarbiyachilariga tegishli toifa bo'yicha qisqa muddatli yoki 9 soatlik davlat maktabgacha ta'lim muassasalari uchun belgilangan mehnatga to'lanadigan haqqa teng shartlarda va hajmlarda ish haqini hisoblab chiqishda Maktabgacha ta'lim vazirining 2018 yil 15 oktyabrdagi 215-sonli buyrug'i asosida amalga oshirilishini nazoratga olish);

- oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari uchun davlat maktabgacha ta'lim muassasalariga belgilangan normativlar bo'yicha ovqatlanish, yumshoq inventar, anjomlar va dori-darmonlarga ajratilgan miqdorlardan kelib chiqib, maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan taqdim etilgan hisob-kitoblar asosida zarur mablag'lar ajratish yuzasidan taklif kiritish;

Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 19 maydagi 378-sonli qaroriga asosan Davlat-xususiy sherikchilik shartlari asosida faoliyat yuritadigan nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalariga oylik subsidiyalar ajratish bo'yicha:

- joylardagi davlat-xususiy sherikchilik asosida faoliyat yuritayotgan nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari tomonidan oylik subsidiyalar ajratish yuzasidan qilingan ariza shaklidagi murojaatlarni qabul qilish;

- ushbu murojaatlarni maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan Nizom talablariga mos ravishda to'g'ri kelishini o'rganish (Bunda, har oyda ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan har bir bola uchun (9 va 10,5 soatlik ish rejimidagi) davlat maktabgacha ta'lim muassasasining bir nafar tarbiyalanuvchisiga sarflanadigan xarajatlarni Maktabgacha ta'lim hamda Moliya vazirliklarining qo'shma xatiga asosan viloyat markazlarida (40 foiz)-88464 so'm, qolgan hududlarda (50 foiz)-110579 so'm qilib belgilanganligi inobatga olinadi);

tuman (shahar) moliya bo'limlari ta'lim muassasasining arizasi kelib tushgandan keyin uning belgilangan talablarga mosligini o'rganib chiqadi hamda arizani qanoatlantirish yoki uni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi va ta'lim muassasasini subsidiyalar (kompensatsiya) ajratish yoki arizani rad etish to'g'risida asoslantirilgan holda yozma shaklda xabardor qilinadi. Bundan tashqari, davlat xususiy sherikchiligi asosida tashkil etilgan nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 apreldagi PQ-3651-son "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada rag'batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan belgilangan boshqa turdagi subsidiyalar jumladan:



- davlat maktabgacha ta'lim muassasasining bir nafar tarbiyalanuvchisi uchun sarflanadigan xarajatlar summasining 50 foizi miqdorida O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan subsidiyalar ajratish;

- maktabgacha ta'lim muassasasining rahbarlari, metodistlari, tarbiyachilari, defektologlari, psixologlari, musiqa xodimlari ish haqiga sarflanadigan xarajatlarni qoplash uchun davlat maktabgacha ta'lim muassasalari uchun belgilangan shartlarda qo'shimcha byudjet subsidiyalarini olish huquqiga ega. Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari hamda davlat-xususiy sherikchilik shartlari asosida tashkil etilgan maktabgacha ta'lim muassasalariga me'yoriy huquqiy hujjatlar asosida mablag' ajratilishini, ajratilgan byudjet mablag'larini ko'zlangan maqsadlarga o'z vaqtida yo'naltirilishini hamda samarali sarflanishini ta'minlash shahar hamda tumanlar moliya va maktabgacha ta'limi bo'limlari mudirlari zimmasiga yuklatilib, viloyat moliya bosh boshqarmasi tomonidan doimiy nazoratga olingan.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-sentabrdagi "Nodavlat ta'lim xizmatlari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ3776 qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 27-martdagi "Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish sohasidagi faoliyatni litsenziyalash tartibini takomillashtirish to'g'risida" 241-sonli qarori.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3931 qarori.

5. www.un.int/uzbekiston/new

**METODIST MAKTABI XONASI ISH MAZMUNI**

Durdiyeva Mohinur Adilbek qizi

Erjanova Saboxon Baxtiyorovna

UrDU Pedagogika fakulteti Maktabgacha

ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi.

Yusupov Xamza Kurbonnazarovich

Xalqaro Nordik universiteti "Ta'lim muassasalarini

boshqarish" yonalishi 1- kurs magistranti

Annotatsiya: Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi butun metodik ishning markazi metodika kabineti hisoblanadi. Pedagogik jarayonni uyushtirish, ota-onalar bilan ishlash, pedagogik mahoratni oshirish va mustaqil o'qishlarni tashkil qilishda tarbiyachilarga amaliy yordam berishdagi yetakchi rol metodika kabineti zimmasidadir. Metodika kabineti bolalar muassasasi an'analari jamg'ariladigan joydir.

Kalit so'z: Metodika, pedagogik jarayon, metodika kabineti, bayram ertaliklar

Metod ishning vazifasi jamgarilgan tajribaga «jon ato etib» tushunarli qilish, tarbiyachilarni bolalar bilan ishlashda ularning ijodiy qo'llashga o'rgatishdir. Metodika kabinetida to'g'ri yo'lga qo'yilgan barcha xodimlarning amaliy-metodik tayyorgarligini oshirishga, xususan, bolalarni har tomonlama rivojlantirish vazifalarini hal etishga yordam beradi. Metodika kabinetining asosiy vazifasi bolalar muassasasi pedagog xodimlariga metodik yordam ko'rsatish ularning g'oyaviy-siyosiy, ilmiy-metodik saviyalarining, pedagogik mahoratlarining o'sishi uchun sharoit yaratishdir. Bolalar muassasasi metodik kabineti ilg'or ish tajribalari turejadigau umumlashtiriladigan va tarqatadigan boshlang'ich markaz ham hisoblanadi. Metodik kabinetning muhim vazifalaridan biri tarbiyachilarga va mehnatlarini ilmiy asosda tashkil qilishlariga yordam ko'rsatishdir. Hu vazifalarni hal etishda metodist kabinetdagi materiallarni mazmunig'li oshirilgan talablar qo'yishi, uni bir tizimga tushirishi va puxta o'ylab chiqishi kerak. Metodik kabinetda alohida o'rinni kutubxonaga ajratilgan Bolalar muassasasining kitob fondini shartli tarzda tarbiyaga va bolalar uchun mo'ljallangan kitoblarga ajratiladi. Bunda, albatta, davlatimiz tomonidan qabul qilingan ta'lim sohasidagi Qaror, Qonunlar, prezident asarlariga keng diqqat qaratiladi. Milliy istiqlol g'oyasini shakllantirishi masalalariga bag'ishlangan asarlar, qo'llanmalar, buyuk siymolar, sharq mutafakkirlarini



o'rganish, urf-odatlarimiz, an'analarimizni tarannum etuvchi ilmiy-falsafiy-metodik adabiyotlarga ham keng o'rin ajratiladi. Hali bii kabinetda maktabgacha ta'lim sohasiga doir instruktiv-metodik materiallar bo'lishi zarur.

Vaqtlili matbuot oqimida adashmaslik, barcha kerakli ishlarni ajratib bihsh va undan foydalanish muximdir. Metodika kabinetida tarbiyachilarni xonada mavjud bo'lgan materiallar bilan tanishtirish, yaxshi ish tajribalarini tashviq qilishga yoyish maqsadida «axborot xizmati» uyushtiriladi. Axborot xizmati xilma xil axborot byulletenlari, bolalar ta'lim - tarbiyasiga doir ayrim masalalar bo'yicha «axborot kunlari», yangi kitoblar annotatsiyasi xavolasi bilan metodik adabiyotlar yangiliklari, tajriba, amaliyot, «metodik burchak» devoriy stendlari va boshqalar bo'lishi mumkin. Bolalar muassasasi xodimlarining nutq madaniyatini doimo takomillashtirib borishi masalalari ham puxta uylanadi. Xalq og'zaki ijodining maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashdagi katta rolini nazarda tutib, bolalar muassasasida xalq maqol, matallari to'plamlarining bod ish i hamda ishda ulardan foydalanish yodlarini ishlab chikish zarurdir.

Metodika kabinetining kamol topishi maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash masalasiga doir metodik adabiyot tashkil etadi, chunki uning eng muhim vazifasi bolalar bog'chilari tarbiyachilariga maktabgacha yoshdagilarga ta'lim - tarbiya berish sohasidagi yangi tadqiqotlar haqida ishonuvchan vaoperativ axborot berishi tain inlaydi. Metodik adabiyotlar bo'limi bo'y icha «Fiziologiya va psixologiya», «Jismoniy tarbiya», «Axloqiy tarbiya», «Musiqqa tarbiyasi», o'yin, «Nutq o'stirish va tevarak-atrof bilan tanishtirish», «Ma'naviy tarbiya» kabilar bo'yicha joylashtirish maqsadga muvofiqdir. Agar kabinetda adabiyotlar ko'p bo'lsa, uni qo'shimcha tarzda yosh printsipi bo'yicha joylashtirish mumkin. Bolalar badiiy adabiyoti avvalo, «Uchinchi ming yillikning bolasi» dasturi asosida guruhlar bo'yicha, tavsiya etilgan asarlar, ertak, xalq qo'shiqlari, ovunmachoqlari, topishmoqlar to'plami, rus va boshqa millat yozuvchilarining asarlari kiradi. Kabinetda kutubxonadagi adabiyotlarning kartotekasini joriy etish kerak. Metodika kabinetining kitob fondi qat'iy hisobda olib boriladi. Hisobga olishning eng asosiy shakli kitoblarni maxsus jurnalga yozishdir. Agar kataloglar yuritilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Gazeta va jurnallarning, maqolalarning tizimli katalogini yuritish ayniqsa muhimdir. Bu metodika kabinetida adabiyot bilan ishlashni ancha yengillashtiradi. Metodik kabinetda tarbiyachi va musiqa rahbarining eng yaxshi istiqbol va haftalik ish rejalari, pedagogik Kengash, seminar, metodik birlashma, pedagogik o'qish, anjumanlarda o'qilgan ma'ruzalar, ishning eng yaxshi tomonlarini aks ettiruvchi mashg'ulot ishlanmalari, bayram ertaliklari, ko'ngil ochish kechalari



dasturlari, lenta yozuvlar o'rin egallaydi. Bundan tashqari bu erga tarbiyachilarning mudira va uslubchi tomonidan tahlil qilingan hamda umumlashtirilgan ishlarini qo'yish mumkin. Metodika kabinetda barcha yosh guruhlardagi turli mashg'ulotlarda foydalanadigan ko'rgazmali materiallar va didaktik qodlanmalar: tevarak- atrof bilan nutq o'stirishga doir rasmlar, elemental' matematik tasavvurlarni rivojlantirish bo'yicha materiallar, bolalarning badiiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qo'llanmalar, didaktik o'yinlar-o'yinchoqlar, mayda musiqa asboblari va musiqali o'yinchoqlar, harakatlarni rivojlantirish mashg'ulotlarida foydalanadigan mayda qollanmalar sakllanadi. Agarda kerakli qodlanmalar va didaktik materiallar tayyor xolda xarid qilishning imkoni bo'lmasa, uslubchi ularni barcha tarbiyachilarning faol ishtirokida tayyorlaydi (qo'g'irchoklar uchun milliy kiyimlar, ijodiy o'yinlar uchun ayrim atributlar, mayda tarqatma materiallari va boshqalar). Qo'llanmalardan uzoq vaqt davomida foydalanilganda (ayniqsa qog'oz yoki karton) o'zining dastlabki ko'rinishini tez yo'qotadi va buzilishi tufayli uslubchi ularni tez tiklashga yordam beradigan materiallari, chizmalar, o'lchovlarni ko'rsatilgan andozalarni foto suratlarni to'plab borishi kerak. Bu materiallarni albomlarda bo'limlar bo'yicha joylaganma'qul. Ta'lim - tarbiya jarayonini takomillashtirish texnika vositalaridan keng foydalanish bilan uzviy bog'langan. Metodika kabinetida texnika vositalarining burchagi jihozlanib, u yerda endoskop, filmskop, magnitafon, diafilm, kinofilm, ovoz yozuvlari saqlanadi. Bu materiallar ham qat'iy tizimda va tartibli saqlanishi kerak. Metodik kabinetda mashg'ulotlar uchun kerakli didaktik qo'llanmalardan tashqari o'yin ko'ngil ochishlarda foydalanadigan qo'llanma va o'yinchoqlar qo'g'irchoqlar, stol, soya teatri, stol bosma o'yinlari, qiziqarli ermak-o'yinchoqlar bo'lishi kerak.

Metodik kabinetida ota-onalar uchun ishlashga mo'ljallangan materiallar ,tematik ko'rgazmalar materiallari ko'chma-papkalar namunalari bolalar tarbiyasiga doir masalalar bo'yicha ota-onalarga mo'ljallangan pedagogic adabiyatlar ro'yxati suhbat va maslahatlarning taxminiy tematikasi shakllanadi. Ayrim o'tilgan materiallarning hammasi maxsus ajratilgan joylarda saqlanadi. Pedagogik adabiyotlar yangiliklari va turli yubeliy sanalarga bag'ishlangan adabiyot uchun alohida bo'lim bo'ladi. Metodik adabiyotning yana bir stendi tarbiyachiga bo'lajak pedagogic Kengash ishiga tayyorlanishda yordam berishga bag'ishlanadi (bu yerda tematika, kerakli adabiyot, muhokama uchun savollar beriladi). Oldingi pedagogic Kengashda qabul qilingan qarorlar, ularning ijrosi haqida malumotlar ma'lum qilinadi. Metodika kabinetning butun ishi u maktabgacha ta'lim tashkiloti metodik ishining markaziga aylanadigan qilib tuzilishi kerak. Tarbiyachilar cabinet



xizmatidan foydalanishi ,unda saqlanayotgan materiallarni asrab-avaylashlari,ulardan oqilona foydalanish darkor. Bu sezilarli darajada bolalar muassasasi metodistining mahoratiga tashkilotchilik qobiliyatiga bog'liqdir. Uslubchi kabinet ishi soatini aniqlashi, tarbiyachilarga o'z vaqtida yordam ko'rsatish maqsadida navbatchilikni uyushtirishi kerak. Bu masalani hal etishda mudira faol ishtirok etadi.Metodika kabinetida ishining eng muhim tomonlaridan biri bolalar muassasasi xodimlariga mustaqil o'qishlarini tashkil etishda yordam ko'rsatishdir. Metodika kabineti ishida katta o'rinni tarbiyachilar bilan ishlashni tashkil etish egallashi kerak."Metodist maktabi" xonasining ish faoliyatining mazmuni. Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi butun metodik ishning markazi pedagogika kabinetidir.Pedagogik jarayonni uyushtirish ,ota-onalar bilan ishlash,pedagogic mahoratlarini oshirish va mustaqil o'qishlarini tashkil qilishda tarbiyachilarga amaliy yordam ko'rsatishdagi yetakchi rol pedagogika kabineti zimmasidadir. Pedagogika kabineti bolalar muassasasi an'analari jamg'ariladigan joydir. Uslubchining vazifasi jamg'arilgan tajribaga «jon ato qilib» tushunarli qilish, tarbiyachilarni bolalar bilan ishlashda ularni ijodiy qo'llashga o'rgatishdir. Pedagogika kabinetida to'g'ri yo'lga qo'yilgan ish barcha xodimlarning metodik tayyorgarligini oshirishga, xususan, bolalarni bar tomonlama rivojlantirish vazifalarini hal qilishga yordam beradi. Pedagogik kabinetining asosiy vazifasi maktabgacha ta'lim muassasa , tarbiyalariga metodik yordam ko'rsatish, ularning g'oyaviy-siyosiy va ilmiy- metodik saviyalarining, pedagogik mahoratlarining o'sishi uchun sharoit yaratishdir. MTMdagi pedagogika kabineti, shuningdek, ilg'or pedagogik | tajriba uzadigan, umumlashtiriladigan va tarqatadigan boshlang'ich markaz hamdir. Kabinetning muhim vazifalaridan biri tarbiyachilarga o'z, mehnatlarini ilmiy asosda tashkil qilishlarida yordam ko'rsatishdir.

Pedagogika kabineti bu vazifalarni hal el ishi uchun uslubchi kabinetdagi materiallar mazmuniga oshirilgan talablar qo'yishi, uni tizimlashtirish va puxta o'ylab chiqishi kerak.Pedagogika kabinetida tarbiyachilarni kabinetda mavjud materiallar bilan tanishtirish, yaxshi tajribani tashviqot qilish va yoyish maqsadida «axborot xizmati» uyushtiriladi. Axborot xizmati xilma xil axborot byulletenlari, bolalar ta'limi va tarbiyasiga doir ayrim masalalar bo'yicha «axborot kunlari», yangi kitoblar annotatsiyasi havolasi bilan «Metodik adabiyotlar yangiliklari», «Tajriba, muammo, amaliyot», «Metodik burchak» stendlari va hokazolar bo'lishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining qonuni. Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida. Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 22-oktabrda qabul qilingan, Senat tomonidan 2019-yil 14-dekabrda ma'qullangan
2. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpo'latova, N.M. Qayumova, M.N.A'zamova. Maktabgacha pedagogika. Darslik. Toshkent – 2017 yil
3. lib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurishi/item/12433-strategikboshqaruv-va-rejalashtirish
4. <http://geografiya.uz/pedagogik-texnologiya/10598-noananaviy-darslar-qanday-tashkiletiladi.html>
5. Saidov A. Historical roots of formation of healthy lifestyle culture psychology in the family //International Journal of Pharmaceutical Research. – 2020. – T. 12. – №. 4. – C. 628-630.
6. Ismailovich A. S. PROBLEMS OF IMPROVING PSYCHOLOGY OF HEALTHY LIFESTYLE OF UZBEK FAMILY //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – T. 4. – №. 1. – C. 313-318.



IJTIMOIY MAKTABGACHA TA`LIMNI TASHKIL ETISH VAZIFALARI

Erjanova Saboxon Baxtiyorovna

*UrDU Pedagogika fakulteti Maktabgacha
ta`lim metodikasi kafedrası o`qituvchisi*

Yusupov Xamza Kurbonnazarovich

*Xalqaro Nordik universiteti "Ta'lim muassasalarini
boshqarish" yonalishi 1- kurs magistranti*

Annotatsiya: ushbu maqola orqali siz maktabgacha ta`limning mazmun – mohiyati va ta`lim tizimida tutgan o`rni Maktabgacha ta`limning ustuvor vazifalari haqida ma'lumotlarga ega bo'lasiz.

Kalit so'z: Maktabgacha ta`lim, ruhiy rivojlanish, ustuvor vazifa,

Maktabgacha ta`lim bolalarning individual va yosh xususiyatlarini, qiziqishi, moyilligi, madaniy ehtiyojlarini iobatga olgan xolda, bola shaxsining jismoniy, intellektual, ijtimoiy-axloqiy va ruhiy rivojlanishini ta'minlovchi, shuningdek maktabga tayyorlab, hayotga zamin yaratuvchi, har tomonlama maqsadli yo`naltrilgan yaxlit jarayondir. Maktabgacha ta`lim uzluksiz ta`limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otib, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. 6-7 yoshgacha bo'lgan maktabgacha ta`lim davlat va nodavlat bolalar maktabgacha ta`lim tashkilotda va oilada amalga oshiriladi. Maktabgacha ta`limning maqsadi – bolalarni maktabdagi o'qishga tayyorlash, bolani sog'lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo'lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o'qishga, tizimli ta`limga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir. Maktabgacha ta`lim muassasasida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish maktabgacha ta`lim muassasasi hamda shtatdagi tibbiyot xodimlari, shuningdek maktabgacha ta`lim muassasasiga biriktirilgan sog'liqni saqlash organlarining tibbiyot xodimlari tomonidan amalga oshiriladi. Maktabgacha ta`lim muassasasida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi va qoidalari, maktabgacha ta`lim muassasasiga bolalarni olib kelish va olib ketish qoidalari, maktabgacha ta`lim muassasasi binolarida xavfsizlikni tashkil etishga oid talablar, maktabgacha ta`lim muassasasida yong'in xavfsizligini tashkil etishga oid talablar, hudud xavfsizligiga bo'lgan talablar "Maktabgacha ta`lim tashkilotda bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi to'g'risida Nizom" bilan tartibga



solinadi. Maktabgacha ta'lim tashkilot – O'zbekiston Respublikasidagi ta'lim muassalarining turi bo'lib, turli yo'nalishdagi maktabgacha bo'lgan davrdagi umumta'lim dasturlarini amalga oshiradi. Maktabgacha ta'lim tashkilot 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni tarbiyalashni, o'qitishni, nazorat qilishni, parvarishlashni va sog'lomlashtirishni ta'minlaydi. Maktabgacha ta'lim tashkilot, faoliyat yo'nalishiga ko'ra, quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Bolalar yaslisi, bolalar yasli bog'chasi, bolalar bog'chasi, uydagi bolalar bog'chasi (mustaqil muassasa yoki filial sifatida).
2. Maktabgacha tarbiya va boshlang'ich ta'lim mussasasi (bolalar bog'chasi-maktab).
3. Tarbiyalanuvchilarni bir yoki bir nechta yo'nalishda (til, badiiy estetik, sport va boshqalar) tarbiyalovchi maktabgacha ta'lim tashkilot.
4. Tarbiya jismoniy va ruxiy rivojlanishdagi og'ishlarni kvalifikatsion yaxshilovchi tiklovchi turdagi bolalar bog'chasi.
5. Tibbiyot gigiena, profilaktika va sog'lomlashtirish, tadbir va proseduralarini amalga oshiruvchi zaiflashgan bolalarni nazorat qilish va sog'lomlashtirish bog'chasi.
6. Birlashtirilgan turdagi bolalar bog'chasi (birlashtirilgan turdagi bolalar bog'chasiga rivojlantiruvchi, tiklovchi va sog'lomlashtiruvchi guruhlar umumlashtirilgan ko'rinishda kiradi).

Maxsus maktabgacha ta'lim muassasasini tashkil etish tartibi, mol-mulki va pul mablag'lari, maxsus maktabgacha ta'lim muassasasida o'quv-ta'lim va sog'lomlashtirish jarayonini tashkil qilish, ta'lim jarayoni ishtirokchilari va maxsus maktabgacha ta'lim muassasasining boshqaruvi haqidagi to'liq ma'lumotlar "Maxsus davlat maktabgacha ta'lim muassasasi to'g'risidagi Nizom" da ko'rsatilgan.

1. Maktabgacha ta'limning ustuvor vazifalari Maktabgacha ta'lim, olinish shakli va usullaridan qat'iy nazar, quyidagi maqsadlarni o'z oldiga qo'yadi:
2. Maktabgacha ta'lim maqsad va vazifalarni amalga oshirishda ijtimoiy va xayri tashkilotlari, mahalla, xalqaro fondlar faol ishtirok etadilar.
3. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim davlat tilida hamda qoraqalpoq, rus, tojik, qirg'iz, qozoq va turkman tillarida olib boriladi.
4. Maktabgacha tarbiya va boshlang'ich ta'lim mussasasi (bolalar bog'chasi-maktab).
5. Tarbiyalanuvchilarni bir yoki bir nechta yo'nalishda (til, badiiy estetik, sport va boshqalar) tarbiyalovchi maktabgacha ta'lim tashkilot.



6. Tarbiya jismoniy va ruxiy rivojlanishdagi og'ishlarni kvalifikatsion yaxshilovchi tiklovchi turdagi bolalar bog'chasi.

7. Tibbiyot gigiena, profilaktika va sog'lomlashtirish, tadbir va proseduralarini amalga oshiruvchi zaiflashgan bolalarni nazorat qilish va sog'lomlashtirish bog'chasi.

8. Birlashtirilgan turdagi bolalar bog'chasi (birlashtirilgan turdagi bolalar bog'chasiga rivojlantiruvchi, tiklovchi va sog'lomlashtiruvchi guruhlar umumlashtirilgan ko'rinishda kiradi).

9. Bolalarni maktabda o'qishga maqsadli va tizimli tayyorlash;

10. Bolalarning shaxsiy qobiliyatlari va iste'dodlarini rivojlantirish;

11. Bolalarni milliy, umuminsoniy va madaniy qadriyatlar bilan tanishtirish, bolani intellektual rivojlantirish;

12. Bolalarda yuqori ma'naviy va odob axloq asoslarini shakllantirish;

13. Bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini mustahkamlash. Maktabgacha ta'lim maqsad va vazifalarni amalga oshirishda ijtimoiy va xayriya tashkilotlari, mahalla, xalqaro fondlar faol ishtirok etadilar.

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim davlat tilida hamda qoraqalpoq, rus, tojik, qirg'iz, qozoq va turkman tillarida olib boriladi.

Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik yillarida respublikada ta'lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlari darajasiga ko'tarildi.

Maktabgacha ta'lim bolaning sog'lom, xar tamonlama kamol topib shakllanishini ta'minladi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi.

1. bolaning axloqiy, aqliy, mehnat, jismoniy va estetik tarbiyasining o'zaro aloqasi asosida har tomonlama rivojlanishi g'oyasi;

a. shaxsning rivojlanishida oilaviy tarbiyaning yetakchi rolini belgilash;

2. xalq pedagogikasi usul va tamoyillarining xalq ijodi namunalarida mujassamlashuvi;

3. ta'lim-tarbiyaning pedagogik usullarini birlashtirish;



4. xalq pedagogikasining amaliy xarakteri;
5. xalq pedagogikasining o'sib kelayotgan avlodni aniq amaliy fuqarolik, oila faoliyatiga tayyorlashdagi ijtimoiy roli.

Xalq pedagogikasining qoidalari xalq ijodi namunalari-maqol, ertak, ashula, doston, rivoyatlarda o'zining ifodasini topgan. Aynan shularda xalq asrlar mobaynida o'z ijtimoiy tajribasini umumlashtirgan. Ular hikmatlar shaklida pand-o'git mazmuniga ega bo'lib xalqning ijtimoiy hayotga bo'lgan real (hayotiy) qarashlarini ifodalaydi. O'zbek xalq pedagogikasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri xalq og'zaki ijodi matnlarida tarbiyaning vosita, usullarining tavsifi beriladi. Hayotiy sharoitlar, oilaviy an'analar, tarbiya usullari va vositalari o'zbek xalqi orasida nihoyatda turli tumandir va bundan ko'p sonli manbalar dalolat beradi. Aynan shularda biz mehnat jarayonlarinin yigitva qizlar uchun mo'ljallangan bayramlarning o'ziga xos tavsiflarini topamiz. An'ana, odat, marosimlar avloddan-avlodga o'tgan. Nikoh tuzish, bolaning tug'ilishi, , mehmonlarni kutib olish va kuzatish, vafot marosimi, mehnat jarayonlarini o'tkazishning muayyan qoidalari mavjud bo'lgan. Bu marosimlarda bolalarning doimiy ishtiroki ta'minlanadi. Bu odatlar yordamida o'zbeklarning an'anaviy muomala shakli shakllanadi. O'zbek xalq pedagogikasida sevgi, oila, bolalar haqidagi qarashlar ko'p yillik tajriba ta'sirida shakllangan. Bu tushunchalarning qonun va qonuniyatlarida pedagogik va amaliyotda sinalgan tarbiya normalari qoidalar, o'z aksini topgan. Xalq pedagogikasida oila inson hayotida eng asosiy tarbiya omili sifatida ko'riladi. Oila jamiyat negizidir. Oila bolalarga ta'sir etish usullari, odat-an'analarini aniqlashi kerak. U dam olish tartibini, bolalarning mehnat va o'quv mashg'ulotlarini belgilashi lozim. SHuningdek, oila ota-ona va bolalar orasidagi o'zaro munosabatlarning eng qulay me'yorlarini ishlab chiqadi. CHunki bola o'zini qiziqtirishgan masalalar bo'yicha eng avvallom bor o'z ota-onasi, eng avvalo onasi bilan o'rtoqlashadi. Bu yerda oila a'zolari orasidagi munosabatlar amalga oshadi, hamda ota-onaning tarbiyaviy vazifalari aniqlanadi. Oila va oilaviy tarbiyaning u yoki bu xususiyatlari doimo xalq e'tiborining markazida bo'lgan va bu xalq pedagogikasida o'z ifodasini topgan. Xalq avvalom bor baxtli oila yaratish yaratish uchun kurashgan. Xalq oilani baxt manbai, "tabiat go'zalligi", mehnatsevar oila jamoasi sifatida ko'radi va oilada ayol va erkak teng huquqliligini e'tirof etadi, ayollar huquqini himoya qiladi, ajralishlarni qoralaydi, oilaviy nizolarni nihoyatda ehtiyotkorlik bilan hal qilishni



maslahat beradi. Xalq pedagogikasida onalikka oliy ijtimoiy qadriyat sifatida qoraladi, xalq og'zaki ijodida esa ona doim ulug'lab kelinadi. Oilaning ijtimoiy vazifalarini xalq bolada ahloq, hurmat, kattalar va kichiklar bilan hushmuomala bo'lish, qishloq xo'jaligi, kasb-xunar malakalarini egallashda ko'rgan. O'zbekistonda maktabgacha tarbiyaning yuzaga kelishi o'tgan asrning 10-20 yillariga to'g'ri keladi. Bu davrda Turkistonda bolalarni gimnaziya kirishga tayyorlovchi xususiy bolalar bog'chalaridan tashqari boshqa maktabgacha tarbiya tashkilot bo'lmagan. Biroq 1919 yilda davlatdagi siyosiy va iqtisodiy holat munosabati bilan o'sib kelayotgan avlodning sog'ligini saqlash, oziq-ovqat bilan ta'minlash masalalari bilan shug'ullanuvchi "Bog'chalarni himoyalash Kengashi" tuzildi. Bu davrda bollarni davlatning yanada sarmahsul mintaqalariga ko'chirib keltirish, shuningdek, ularni ovqat, kiyim-kechak, uy, yoqilg'i, tibbiy yordam bilan ta'minlash masalalari yechilgan. Bu masalalarni yechishning asosiy vositasi ommaviy oshxonalar, yasli va bog'chalar, boshqa tomondan esa ayollarni respublikaning jamoat va siyosiy hayotida faol ishtirok etishga yordam bo'lgan. Maktabgacha tarbiya ishini aniq tashkil qilish uchun 1918 yilda respublikada Toshkentning eski shahri o'zbek bolalari uchun 4-bolalar bog'chasi tashkil qilindi. 1919 yilda esa Samarqandda 2-bolalar bog'chasi va 3-bolalar uyida maktabgacha guruhlar ochildi. 1926 yilga kelib maktabgacha ta'lim tashkilotda (jami 40 ta) 2000ga yaqin bolalar bo'lgan. Bu esa respublikadagi maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarning 36,4 %dir³. Maktabgacha tarbiya ishchilari malakasini oshirishga qaratilgan maktabgacha tarbiya dasturining chiqarilishi muhim muvaffaqiyat bo'ldi. 1927 yilda boshlangan ayollarning hujum harakati munosabati bilan bolalarning bolalar bog'chasiga berish hollari yanada ko'paydi. Kasaba uyushmalari va yirik fabrika-zavodlar yordamida ishlayotgan ayollarga yana bir yordamchi tashkilot-yozgi sog'lomlashtirish maydonchalari ta'sis e'tildi.

XX asr 30-yillarning maktabgacha tarbiya dasturlarida bolalar bog'chalarining tozalik va metodik yordam holatini tekshirish keng tarqaldi. Bu tekshirishlar natijalariga ko'ra xonalar va maydonchalarning jihozlanmaganligi, asbob-uskunalar bilan ta'minlanmaganligi, tozalik me'yorlariga amal qilinmasligi kabi kamchiliklarga qarshi kurash olib borilgan. Qishloqlardagi bolalar bog'chalari va maydonchalari maktabgacha tarbiya tashkilotga nisbatan bo'lgan salbiy qarashlar tufayli katta qiyinchiliklarga duchor bo'lgan. 1930 yilda O'zbekistonda respublikaning barcha katta shaharlari va viloyatlarida o'z bo'linmalariga ega bo'lgan maktabgacha tarbiya pedagogik maslahatxonasi tashkil qilindi. Uning faoliyati doimiy ma'ruzalar, radiosuhbatlar, ayollar uchun ko'rgazmalar tashkil



qilishdan iborat edi. Ular uchun bolalarga eng yaxshi burchak qilish bo'yicha musobaqa ham o'tkazilgan. Pedagogik maslahatlar beruvchilar oilalarga borishgan va bolalar burchaklarini tashkil qilishgan va shu bilan bolalarni bog'chalarga qabul qilish tartiboti hamda oilalarning tarbiya masalalari bo'yicha maslahat berish bilan birlashtirilgan. 1933-1934 yillarda sanab o'tilgan harakatlar natijasida O'zbekistonda 3840 ta kolxoz maydonchalari bo'lib, unda 127 ming bolalar qatnashgan. 1933 yil bolalar bog'chalari uchun ilk dastur loyihalarini ishlab chiqarish yilisifatida muhrlandi Rusiy zabonbolalar bog'chalari dasturlari asosida tuzilgan bu dasturlar keyinchalik mahalliy sharoitlarni inobatga olib qayta tuzilgan. Maktabgacha tarbiya birlashmalarining metodik faoliyati yagona markaz tomonidan rahbarlikni amalga oshirishga ehtiyoj sezgan. 1934 yil Toshkentda tuzilgan Respublika maktabgacha tarbiya metodik xonasishunaqa markaz vazifasini bajardi. Ommaviy maktabgacha tarbiyaning rivojlanishida eng katta to'siqlardan biri malakali kadrlarning yetishmasligi bo'lgan. Qishloq aholisidan kadrlar tayyorlash uchun qisqa muddatli 3 oylik kurslar tashkil qilingan. Bundan tashqari XX asrning 70- yillari boshidan maktabgacha tarbiya mutaxassislarini tayyorlash vazifasi pedagogik o'quv yurtlari zimmasiga qo'shildi. 1930 yildan Toshkentda faoliyat yurituvchi pedagogik o'quv yurti 1936 yilda 60 ta mutaxassis tayyorladi.

Natijada 1938-1939 yillarda respublikada 927 ta bolalar bog'chasi ochilgan edi va ularda 36710 ta bola bor edi. Maydonchalar soni esa 4835 ta bo'lib ularda 152000 bola bor edi. Shu bilan birga bu vaqtda onalar uchun "Bolalar xonalari" nomli maktabgacha tarbiya tashkilot ham tuzilgan. Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017—2021-yillarga mo'ljallangan dastur, maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017—2021-yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar rejasi, 2017—2021-yillarda maktabgacha ta'lim tashkilotni yangidan qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlashning asosiy parametrlari, moliyalashtirish hajmi va manbalari, 2017—2021-yillarda maktabgacha ta'lim tashkilotda bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash bo'yicha qisqa muddatli guruhlarini tashkil qilishning asosiy parametrlari tasdiqlandi.

Dasturning asosiy maqsadli vazifalari va yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

- ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish;
- maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim tashkilotda bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon



amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish;

- maktabgacha ta'lim tashkilotda 5-6 yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash bo'yicha 6100 ta qisqa muddatli guruhni tashkil etish;

- zamonaviy pedagogik texnologiyalar va uslublarni inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim tashkilotga pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishning o'quv reja va dasturlarini takomillashtirish;

2200 ta maktabgacha ta'lim muassasasining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, shu jumladan qishloq joylarda maktabgacha ta'lim tashkilotni yangidan qurish, ularni zamonaviy talablarga javob beradigan inventar, jihoz, o'quv-metodik qo'llanmalar va multimediali vositalar bilan ta'minlash. Quyidagilar Dasturni amalga oshirishni moliyalashtirish manbalari etib belgilandi:

maktabgacha ta'lim tashkilotni yangidan qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash, shuningdek o'yin maydonchalari, bolalar ayvonlari qurish va ularning hududini o'rash maqsadlari uchun – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot tashkilotni rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi mablag'lari (keyingi o'rinlarda Jamg'arma deb yuritiladi);

maktabgacha ta'lim tashkilot hududini obodonlashtirish va ichimlik suvi bilan ta'minlash uchun – Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining mablag'lari;

maktabgacha ta'lim tashkilotni jihozlash uchun – O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari;

Maktabgacha ta'lim muassasasining ish tartibi va u yerda bolalarning bo'lish davomiyligi davlatning maktabgacha ta'lim sifat va darajasiga bo'lgan talablari, nizom, maktabgacha ta'lim muassasasi va ota-onalar orasida tuzilgan shartnoma, hamda ta'sischilar tomonidan belgilanadi. Imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun maxsus maktabgacha ta'lim tashkilot tashkil qilingan bo'lib, u yerga bolalar davlatning joylardagi vakolatli ta'limni boshqarish va sog'liqni saqlash organlari tarafidan tashkil qilingan ruhiy-tibbiy pedagogik komissiyaning xulosasiga binoan qabul qilinadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining qonuni. Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida. Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 22-oktabrda qabul qilingan, Senat tomonidan 2019-yil 14-dekabrda ma'qullangan
2. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpo'latova, N.M. Qayumova, M.N.A'zamova. Maktabgacha pedagogika. Darslik. Toshkent – 2017 yil
3. lib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurishi/item/12433-strategikboshqaruv-va-rejalashtirish
4. <http://geografiya.uz/pedagogik-texnologiya/10598-noananaviy-darslar-qanday-tashkiletiladi.html>
5. Saidov A. Historical roots of formation of healthy lifestyle culture psychology in the family //International Journal of Pharmaceutical Research. – 2020. – T. 12. – №. 4. – C. 628-630.
6. Ismailovich A. S. PROBLEMS OF IMPROVING PSYCHOLOGY OF HEALTHY LIFESTYLE OF UZBEK FAMILY //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – T. 4. – №. 1. – C. 313-318.



IMOM AL-BUXORIY TA'LIM OLGAN, LEKIN HOZIRDA SAQLANIB QOLMAGAN MADRASA

BMTI Akademik litseyi katta o'qituvchisi
Sohibova Nilufar Sirojovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoroda mavjud bo'lgan madrasalardan biri ya'ni Kalabod madrasasi to'g'risida ma'lumot berilgan. Uning me'moriy qurili, o'qitish tizimi, joylashuvi, qanday buyuk shaxslarning yo'lini yoritganli haqida aytib o'tilgan. Madrasa haqidagi olimlarning fikrlaridan, vaqf hujjatlaridan dalillar keltirilgan. Manbalarda mavjud tarixiy rivoyatlar bilan xulosalangan.

Kalit so'zlar: Kalabod mdrasasi, Buxoro, Imom al-Buxoriy, oliy o'quv yurti, islom dini, ilk madrasa, Sadri Ziyo, vaqf hujjatlari, O.A.Suxareva.

Tarixda shunday madrasalar borki, u ulug'lar yo'lini boshlab bergan. Ana shunday madrasalar sirasiga Kalabod madrasasi ham kiradi. Kalabod madrasasi — IX—XX asrlarda faoliyat yuritgan va hozirda saqlanib qolmagan Buxoro madrasasining asl nomi. Tarixiy manbalarda Arslonxon madrasasi, Xon madrasasi va Abdurahimxoja madrasasi deb ham yuritilgan. Hozirda unga nisbatan aksariyat hollarda Kalobod madrasasi, ba'zan Gulobod madrasasi nomlari qo'llaniladi¹. Unda Imom al-Buxoriy va ko'pgina mashhur tarixiy shaxslar ilm o'rganishgan. Oliy madrasa Buxoroga islom kirib kelib, mustahkam o'rnashganidan so'ng 800—810-yillarda qurilgan bo'lib, keyingi davrlarda 3 marta qayta tiklangan: 1-marta 1124-yili, Arslonxon Muhammadning (1102—1130) ulamolaridan bo'lgan Amir kutvol tomonidan; 2-marta mo'g'ullar hukmronligi davrida, Kayxotunning onasi Suyurtuk tegina begim tomonidan; 3-marta 1609-yili, o'zbek hukmdori Vali Muhammad (1605—1611) davrida, Jo'yboriy Abdurahimxoja tomonidan.

Kalabod madrasasi dunyodagi eng qadimiy oliy o'quv dargohlaridan biri bo'lgan. Tadqiqotchining payqashicha, Kalabod madrasasi bunyod etilganida Yevropada hali birorta bunday maxsus oliy o'quv dargohi bo'lmagan. Oradan yana 500 yil o'tib, Abdurahimxoja Kalabod madrasasini uchinchi bor qayta tiklagan paytda, Rossiyada hali birorta ham oliy o'quv yurti bo'lmagan. Abdurahimxoja tiklagan Kalabod madrasasining binosi hajmi va ko'lami jihatidan eng yirik Buxoro madrasalaridan biri edi. U Turon madrasalari qurilishining an'anaviy uslubida bunyod etilgan. Masjid, darsxona, kutubxona, tahoratxonalar va 79 ta yoki 100 ta hujralardan iborat bo'lgan. Madrasa me'morchiligining o'ziga



xosligi, bosh fasadining ikki yonidagi devorlar burchagiga guldastalar oʻrnatilmagan; peshtoq ravoqlarining pastida, 2-qavat bilan teng qilib maxsus ayvoni boʻlgan. Keyinchalik bu uslub Xorazm madrasalarida qoʻllanilgan; hovlisining burchak kesimlari va qirrali taxmonlari boʻlmagan. Madrasa 1920-yilgi Buxoro inqilobiga qadar faoliyat yuritgan. Uning binosidan 1930-yillarda qamoqxona, keyinchalik — shahar kommunal xoʻjaligiga qarashli turar joy sifatida foydalanilgan. 1953-yilda buzib yoʻq qilingan. Gʻishtlari avval K. Y. Voroshilov, keyinchalik A. S. Makarenko nomlari berilgan 5-sonli Buxoro maktabining qurilishida ishlatilgan. Hozirda madrasa binosining oʻrnida hovli-joylar qad koʻtarib turibdi.

Kalabod madrasasining nomi unda koʻchirilgan bir nechta qoʻlyozma kitoblarda Kalobot, Kalabon, Kalonobod madrasasi shakllarida keladi. Sadri Ziyoning maʼlumot berishicha, madrasaning asl nomi Kalaboddir. XII—XVII asrlar oraliqʻida Arslonxon madrasasi nomi bilan ham mashhur boʻlgan. Xon madrasasi deb ham shuhrat qozongan. Joʻyboriy Abdurahimxoja ushbu oliy oʻquv dargohini qayta qurib, oldingi vaqf mulklarini ham tiklaydi. Shu sababdan baʼzi manbalarda u Abdurahimxoja madrasasi deb ham yoziladi. Hozirda madrasaga nisbatan muqobil nom sifatida aksariyat hollarda Kalobod madrasasi, baʼzan Gulobod madrasasi nomlari qoʻllaniladi. S. S. Buxoriyga koʻra, Kalobod soʻzi arab tili va yozuvida „g“ tovushi va harfi boʻlmaganligi sababli shunday yozib kelingan va oʻqilgan, aslida Gulobod boʻladi. Falsafa fanlari nomzodi B. B. Namozovga koʻra, Kalobod va Gulobod deb atalishlarda deyarli farq yoʻq, arab tili nuqtai nazaridan Kalobod atamasi, etimologik nuqtai nazardan fors tilida Gulobod deyilishini xato demasa ham boʻladi.

Kalabod madrasasi Buxoroning qadimiy qalʼasi tashqarisida, Kalabod darvozasidan ichkarida, shu nomli mahallada bunyod etilgan. Ilk madrasalar haqida Buxoro ilm ahli qiziqib, ular oʻrtasida bu borada bahslar boʻlib turgan ekan. Sadri Ziyo shu masalada quyidagilarni yozadi: Kalabod Buxoroning eng qadimiy madrasalaridandir. Tarix ahli: „Kalabod qadimiy mi yo Gʻaribiya?“ — deb hanuz ixtilofdadir. Kalabod madrasasi uch marta tiklangan. U avval Kayxotunning onasi Shoʻrtoʻqsabegim tarafidan amalga oshirilgan. U nasroniy edi. Musulmonlar eʼtiborini qozonish uchun shu madrasani bino qildi. Ulamoyu shayxlarni unga mutavalli va boshqaruvchi etib tayinladi. Ikkinchi marta u Amir kutvol tomonidan taʼmirlangan. U hijriy 518-yilda Minorai Kalonni qurdirgan Arslonxonning umarolaridan edi. U oxirgi marta hijriy 1018-yili



Abdurahimxoja ibn Xoja Kalonxoja nomi bilan mashhur shayxulislom Nosiriddin Xoja Sa'd sa'y-harakati bilan tiklandi.

Sadri Ziyoning ta'kidlashicha, ushbu madrasa uch marta qayta qurilgan. Ilm ahli o'rtasida bunday bahslar bo'lib turganiga qaramay, Buxoro madrasalari tarixi manbalarda deyarli maxsus yoritilmagan. O. A. Suxarevaga ko'ra Buxoro aholisi Kalobod madrasasini shahardagi eng ko'hna madrasa deb hisoblashadi. A. K. Jumanazar o'zining Buxoro ta'lim tizimi va madrasalari tarixiga atab yaratgan monografiyasida Sadri Ziy o maxdum bayon qilgan Buxoro ilm ahli o'rtasidagi bahsni hisobga olib Kalabod va G'aribiya madrasalarini islom olamidagi eng ko'hna ilm dargohlari qatoriga kiritadi. Olimning so'zlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining rasmiy saytida keltirilib, Kalobod madrasasi Abu Hafs Kabir madrasasining tengdoshi ekanligi va u IX asr boshida, taxminan 800—810-yillarda qurilganligi ta'kidlangan.

Madrasaga tegishli vaqf hujjatining 3 ta nusxasi mavjud. Hujjatning tepasiga „Kalabod madrasasi va Abdurahimxoja avlodlari vaqfi“ deb yozib qo'yilgan^[3]. Unda ta'kidlanishicha: Bilimdon olimlar va fozillar davrasining eng hurmatlisi hazrat Xoja Nizomiddin Abdurahimxoja, davlati va izzati hamisha ziyoda bo'lsin, faxrli Buxoro shahrining qadimgi qal'asi tashqarisida Kalabod darvozasi ichkarisida oliy madrasa qurishga amr etdi va u tez fursatda ushbu makonda qurib bitkazildi. Vaqf hujjati hijriy 1017-yil shavvol oyida (1608-yil aprel—may oylarida) tuzilgan va 1018-yil jumad ul-oxir oyining 13-kuni (1609-yil 14-sentyabrda) rasmiylashtirilgan. Keyingi sana vaqf hujjatlarining deyarli barcha nusxalarida qayd etilgan. Hujjatning asl nusxasida o'zbek hukmdori Vali Muhammadning (1605—1611) bodomsimon muhri tushirilgan. O. D. Chexovichga ko'ra, Kalabod madrasasining asl vaqf hujjatida Arslonxon madrasasi ham, uning vaqf mulklariga tegishli bo'lgan qishloqlar va bog'lar ham tilga olinmagan. A. K. Jumanazar Kalabod madrasasining vaqf hujjatlari bilan tanishishi chog'ida, Abdurahimxoja o'z vaqfini rasmiylashtirayotganida Arslonxon madrasasi vaqfini ham uning oldidan to'liq keltirgani, bu olim ko'rgan 2 ta nusxada uchragani va u Xon madrasasi deb atalgani haqida xabar beradi. „Kalabod madrasasi ilgari Arslonxon madrasasi bo'lgan degan gaplar bejiz emas“ degan xulosaga keladi. Voqif Xayrobod va Samjan tumanidagi Talli Zog'an, Tarnov, Xalaji bolo, Xalaji poyon kabi qishloqlardagi merosiy yerlarini ushbu madrasa va avlodlari uchun vaqf qiladi. Vaqf shartiga ko'ra, mutavalli voqifning o'zi va undan keyin avlodlari orasidan eng ilmiy, solih amallisi bu vazifaga tayinlanadi. Agar ular har taraflama teng bo'lib



chiqsa, masala qur'a tashlash yo'li bilan hal etiladi. Vaqf hosili avval madrasa binosi zaruratiga sarflanadi. Ortganidan mutavalli ushr oladi. Qolgani avlodlari va madrasa faoliyati uchun ikkita teng yarim (nisf) qismga bo'linadi. Uning madrasaga tegishli qismini mutavalli quyidagi tartibda taqsimlaydi: Ramazon oyida har kuni non uchun 1 mann un va halim tayyorlash uchun 1 man bug'doy sotib olinadi. Bir misqollik to'rt kumush tangaga go'sht va masalliqlar xarid qilinib, halim pishirishga ishlatiladi. Bu ovqatlar madrasaga kelgan kishilarning iftorligiga beriladi. Ushbu oyda har kuni oshpazga chorak (rubbi yak) tanga beriladi. Mutavalli har 2 yilda madrasa masjidi va darsxonasi uchun 10 ta namat (kigiz), har yili yangi bo'ya sotib oladi. Masjidga sham sotib olish uchun har oyda muazzinga 1 tanga berib boradi. Ushbu nisfning qolgani 10 qismga bo'linadi. Undan imom, muazzin va masjid xodimiga 1 hissa ajratiladi. U 5 qismga taqsimlanib, undan imom 3, muazzin 1, masjid va madrasa xodimi 1 hissa haq oladi. Mazkur xodim farroshlik vazifasini bajaradi. Qish paytlari tahorat suvini isitadi. Qolgan 9 qismning 3 hissasi ikki nafar mudarrisga va 6 hissa madrasada tahsil olayotgan talabalarga bo'lib beriladi. Hijriy 1293-yili (1876-yili) rasmiylashtirilgan hujjatda soliq olinuvchi madrasalar nomlari va ulardan undiriladigan soliqlar miqdori keltiriladi. Unda Kalabod madrasasining ijarasi 7000 tanga, ushri 700 tanga deb belgilangan.

1916-yilda Orenburgda chop etilgan Sho'ro jurnalining 12-soniga ko'ra Kalobod madrasasi Buxoroning „oliy“ toifadagi madrasalari turkumiga kirgan va uning yillik vaqf foydasi 80 ming tangani tashkil qilga. A. K. Jumanazar o'zining Buxoro ta'lim tizimi va madrasalari tarixiga atab yaratgan monografiyasida ta'lim tizimidagi „ayrim qonuniyatlar va ijtimoiy alomatlarga“ tayanib Kalabod madrasasini shartli ravishda 3-darajali oliy toifaga mansub madrasalar safiga kiritadi. Mazkur toifadagi madrasalarda banoras to'nli mudarrislar dars o'tishgan. Kalabod madrasasida 2 nafar mudarris dars bergan. 200 nafar talaba ta'lim olgan. Bir nechta tarixiy hujjatlarga ko'ra mudarrislarining har biriga 45—60 tilla maosh to'langan. Tarixiy manbada shunday mudarrislardan bir nechtasining ismi mulla Rahmatulloh, mulla Said deb keladi. Madrasa faoliyati bilan bog'liq shaxslardan hech biri madrasani ikki oy davomida uzrli sababsiz tark etmasligi lozim edi.

A. K. Jumanazar Kalobod madrasasida Imom al-Buxoriy, Abu Hafs al-Kabir, Abu Hafs al-Sag'ir, Is'hoq al-Kalabodiy, Abu Ali ibn Sino kabi O'rta asr allomalari ilm o'rganishgan deb taxmin qiladi. Keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining rasmiy saytida Kalabod madrasasida Imom al-Buxoriy va ko'pgina mashhur tarixiy shaxslar ta'lim olganligi ta'kidlab o'tiladi^[5]. O'zbekiston xalqaro



islom akademiyasi chop etgan kitobda Imom al-Buxoriy madrasadagi ilk ta'limini shu o'quv dargohida boshlagani aytiladi.

In addition to these stages, there are several exercises that can be implemented to support the development of reading skills at any stage. These exercises include regular reading practice, encouraging independent reading, and providing opportunities for children to read a variety of genres and text types. It is also important to create a positive and supportive reading environment to encourage children to enjoy and appreciate reading.

Exercises for Developing Reading Skills:



There are several key exercises that can be used to support the development of reading skills across the different stages. Some effective exercises include:

- Phonics instruction: Activities that help individuals learn and practice phonics rules and decoding skills are essential for early and transitional readers.
- Vocabulary development: Exercises that expose individuals to new words, build their understanding of word meanings, and encourage them to use new words in context can aid in vocabulary development.
- Comprehension activities: Engaging in activities that require individuals to understand and interpret texts, such as retelling stories, answering questions, and making connections, can enhance comprehension skills.
- Guided reading: Providing opportunities for individuals to read texts at their instructional level with support from a teacher or mentor can help develop fluency and comprehension skills.
- Independent reading: Encouraging individuals to read independently allows them to practice their reading skills, build fluency, and develop a love for reading.

Conclusion:

Developing reading skills is a multifaceted process that involves various stages and exercises. By understanding the stages of reading development and implementing appropriate exercises, educators and parents can support individuals in acquiring and honing their reading abilities. It is important to provide a range of activities that cater to the needs of learners at different stages of development and to foster a love for reading that will last a lifetime.

References:

1. Adams, M. J. (1990). Beginning to read: Thinking and learning about print. MIT press.
2. Hiebert, E. H., & Reutzel, D. R. (2010). Revisiting silent reading: New directions for teachers and researchers. International Reading Association.
3. National Reading Panel (US), & National Institute of Child Health and Human Development (US). (2000). Teaching children to read: An evidence-based assessment of the scientific research literature on reading and its implications for reading instruction. National Institute of Child Health and Human Development, National Institutes of Health.



AXBOROTLARNI KRIPTOGRAFIK HIMOYALASH VOSITALARI VA ULARNI AMALIYOTDA QO'LLASH USULLARI

Mo'minov Anvarjon To'liqinjon o'g'li

Sodiqov Boburmirzo Sobitjon o'g'li

Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti

Farg'ona filiali talabasi

Annotatsiya: Kriptografiya, axborotlarni himoyalash uchun ishlatiladigan texnologiyalarning umumiy nomidir. Bu texnologiyalar axborotni to'g'ridan-to'g'ri o'qib olish, o'zgartirish va boshqa hodisalardan himoyalashni ta'minlash uchun foydalaniladi.

Kalit so'zlar: Shifrlash, dekodlash, des algoritmi, aes enkripsiya, blok shifrlash, chiq kalit, maxfiy kalit, rsa algoritmi, kalit almashinuvi, elektron imza, kriptooritmi.

"Axborotlarni kriptografik himoyalash vositalari" deyilganida, siz mazkur axborotlarni (ma'lumotlar) himoyalash uchun foydalaniladigan kriptografik protokollar, algoritmlar va vositalar haqida so'zlashmoqdasiz. Kriptografiya, axborotlarni himoyalashda ishlatiladigan texnologiyalarni tushunish va ulardan foydalanishga yordam beradi.

Kriptografik Himoyalash Vositalari: Bu qismda kriptografik himoyalash vositalari, shu jumladan shifrlash algoritmlari, imzolash protokollari, hashlash algoritmlari, va boshqa tizimlar haqida tafsilotlar beriladi. AES, RSA, va SHA-256 kabi kriptografik algoritmlar haqida ma'lumotlar ham shu jumladan ko'rsatiladi.

Multi-Factor Authentication (MFA) va Zero-Knowledge Proof: Kriptografik himoyalashni kuchaytirish uchun foydalaniladigan yana bir qator vositalar MFA va Zero-Knowledge Proof bo'lib, ularning ahamiyati, ishlash prinsiplari va qo'llanish sohasiga oid ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Side-Channel Attacks va Kvant Kriptografiyasi: Hujumchilar tarafidan amalga oshiriladigan turlardan himoyalashda muhofazalash uchun maqolada Side-Channel Attacks va Kvant Kriptografiyasi mavzulariga oid ma'lumotlar keltirilib, ularni oldini olish uchun kerakli himoyalash vositalarining muhimligi ta'kidlanadi.

Tendentsiyalar va Yangi Texnologiyalar: Maqola oxiriga yaqinlashgan qismda, kriptografik himoyalash sohasidagi so'nggi tendentsiyalar, yangi texnologiyalar, va kelajakdagi rivojlanishlarga oid proqnozlar muhokama qilinadi. Bu qismda,



blockchain texnologiyasi, homomorphic encryption, va quantum-resistant kriptografiyani ko'rsatish mumkin.

Quyidagi kriptografik himoyalash vositalari va ulardan ishlatishning ba'zi misollarini ko'rsatish mumkin:

Shifrovka (Encryption):

Algoritmlar: AES (Advanced Encryption Standard), RSA (Rivest–Shamir–Adleman), DES (Data Encryption Standard), ChaCha20, va boshqa.

Protokollar: TLS (Transport Layer Security), IPSec (Internet Protocol Security).

Imzolash (Digital Signatures):

Algoritmlar: RSA, ECDSA (Elliptic Curve Digital Signature Algorithm).

Protokollar: PGP (Pretty Good Privacy), S/MIME (Secure/Multipurpose Internet Mail Extensions).

Hashlash (Hashing):

Algoritmlar: SHA-256, SHA-3, MD5 (boshqacha tahlil etiladi).

Ishlatish misollar: Parollar va ma'lumotlar taminlash, ma'lumotlarning integritetini tekshirish.

Kripto-valyuta: Blockchain texnologiyasi, kripto-valyuta uchun kriptografik himoya vositalarini ishlatadi. Misol uchun, Bitcoin-da SHA-256 hashing algoritmi va ECDSA imzolash algoritmi ishlatiladi.

Public Key Infrastructure (PKI):

Asosiy qismi: Aloqada bo'lgan o'zgarishlarni kuzatish va havolalarni amalga oshirish uchun ishlatiladi.

Vositalar: X.509 sertifikatlari, Certification Authorities (CA).

Multi-Factor Authentication (MFA):

Tushunchalar: Bu usul, foydalanuvchining identifikatsiyasini amalga oshirishda bir nechta turdagi ma'lumotlarni (faktorlarni) ishlatadi.

Misollar: Parol, SMS-kod, biometrik identifikatsiya (qo'l izi, yuz tanishuvi), taqrizli kodi olish uchun ilova.

Zero-Knowledge Proof:

Tushuncha: Bu usulda, bir tomonda bo'lgan ma'lumotlar yuboriladigan tomonning ma'lumotlari to'liq nol bilan sabablanadi.

Foydalanish sohalar: Endi qonun korxonalari, kripto-valyuta platformalari.

Homomorphic Encryption:

Tushuncha: Ma'lumotlar shifrlangan holda qoladi, va hisob-kitob amaliyotlarni shifrlangan ma'lumotlar ustida bajarish mumkin.



Foydalanish sohalar: Cloud computing, ma'lumotlar bazalari.

Side-Channel Attacks ni qo'llash:

Tushuncha: Hujumchilar ma'lumotlarni kuzatish uchun qurilmalarning qo'shimcha kanallaridan foydalanishadi.

Sirtqichlar: Fiziksel tamonlama, zaryad so'ralganligi, elektromagnit so'ralganligi.

Kvant Kriptografiyasi:

Tushuncha: Ma'lumotlar kuzatilganda, kubitlar (kvant xossalari) ustida amal qilingan hujumni aniqlash uchun texnologiya.

Potentsial foydalash sohalar: Internet of Things (IoT), kripto-valyutalar.

Kriptografik himoyalash vositalari va protokollarining qo'shimcha yaxshi tushuniladigan va yuqori sifatli bo'lishi uchun, ulardagi hujumlar va yanada yaxshi hisob-kitob qilish uchun yangi texnologiyalar va usullar ham ishlab chiqilmoqda. Bu sohada davom etadigan ilovalar va texnologiyalar takomillashtirilgan kuzatib borilmoqda.

Kriptografik himoyalash vositalari, axborotlar uchun himoya tizimini amalga oshirishda yaxshi natijalarni ko'rsatadi. Biroq, bu vositalarni ishlatishda va xizmatni o'rnatishda, mahsulot tuzilmasining eng yangi xavf va taqiqlovlarini kuzatib borish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Turgunova, N., Turgunov, B., & Umaraliyev, J. (2023). AUTOMATIC TEXT ANALYSIS. SYNTAX AND SEMANTIC ANALYSIS. *Engineering problems and innovations*.
2. Turg'unov, B., Turg'unova, N., & Umaraliyev, J. (2023). AVTOMOBILSOZLIKDA AVTOMATLASHTIRISHNING O'RN. *Engineering problems and innovations*.
3. Nafisaxon, T. U., Jamshidbek To'xtasin o'g, U., Arsenevna, D. E., & Azimjon o'g'li, A. O. (2022). AVTOMATLASHTIRILGAN AVTOTURARGOH IMKONIYATLARI VA QULAYLIKLARI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 3(25), 45-48.



BOSHLANG'ICH SINIF DARSLIKLARIDAGI AYRIM ONOMASTIK BIRLIKLARNING LEKSIK-SEMANTIK TADQIQI

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
1-kurs magistratura talabasi: Xaydarova Yulduz
yxaydarova377@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda zamonaviy tilshunoslik sohalaridan biri bo'lgan "Onomastika" (Atoqli otlar) bo'limidagi ba'zi atoqli otlarning tahlili hamda boshlan'ich sinf darsligida berilgan ayrim atoqli otlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Onomastika, toponimlar, antroponimlar, etimologiya, so'zlashuv uslubi.

Atoqli otlarning mavjudlik mantig'i, kelib chiqishi va vazifalariga ko'ra xalq ma'naviyati, mafkurasi, madaniyati bilan zich bog'langan lug'aviy qatlamdir. Chunki nomlarda o'zbek xalqining o'tmish tarixi, ijtimoiy-siyosiy falsafiy qarashlari, etnografik diniy tasavvurlari o'z ifodasini topgan. Nomlar millatning madaniy merosini belgilab beradi. Shuning uchun onomastika ya'ni atoqli otlar so'nggi davrlarda ko'pgina olimlarning diqqat markazida bo'lgan muhim mavzulardan biridir. Ushbu sohada qilingan ilmiy tadqiqotlarning salmog'i ortib bormoqda. Z.Do'simov, E.Begmatov, T.Nafasov, S.Qorayev, B.O'rinboyev, N.Oxunov, T.Ernazarov, X.Xolmo'minov, S.Naimov, O.Gadoyev kabi olimlarning tadqiqotlari o'zbek onomastikasi rivojiga qo'shilgan munosib hissadir.

Payariq toponimlari ustida ko'pgina izlanishlar olib borgan O.Gadoyevning fikricha toponimlarning o'zagini, yana ham aniqrog'i, yadrosini tashkil etadigan toponegiz masalasida fikr-mulohaza aytish uchun ilmiy ishlarda qo'llanilayotgan topoasos, toponimik indikator, topoformant singari bir qancha toponimik tushuncha va terminlarni, toponimik qonuniyatlarni e'tiborga olish kerak. Chunki toponimlar toponimik qonuniyatlari zaminida vujudga kelgani kabi toponegizlar ham mana shu jarayon majmuida voqelanadi.¹Bundan aytish mumkinki, onomastikda hosil bo'ladigan terminlar asosan turdosh ot asoslaridan kelib chiqishi izlanishlarning asosiy o'zagi hisoblanadi. Nomlar qaysi bir obyektни nomlab kelishiga ko'ra farqlanadi. E. Begmatovning fikricha: "Onomastika o'rganadigan til birliklari

¹ O.Gadoyev Zamonaviy tilshunoslik va derivatsion qonunlar. Respublika ilmiy-amaliy anjumani Materiallari Samarqand shahri, 2022-yil, 25-may



onoma(umum.) ya'ni atoqli otning ko'rinishi va tiplaridir. Bular *antroponim*, *toponim*, *zoonim*, *fitonim*, *gsosmonim*, *teonim* va boshqalar. Keltirilgan terminlar onomastik birliklarning tiplarini umumiy nomlaydi. Aslida, bu onomastik birliklarning har biri bir qator mikroonomastik birliklar majmuidan tashkil topgan.² Bundan ko'rib turibdiki, onomastika nafaqat tilshunoslik uchun, balki tarix, etnografiya, geografiya, madaniyat tarixi va boshqa bir qator fanlar uchun ham qimmatli materiallar beradi.

Shu o'rinda boshlang'ich sinf darsliklarida berilgan atoqli otlarni leksik-semantik jihatdan tahlil etish ushbu maqolaning maqsadi hisoblanadi.

Atoqli ot — yakka predmetning atamasi. Atoqli otda umumlashtirish yo'q, u leksik jihatdan odatda shartli bo'lib, yakka bir predmetni o'zi kabi boshqa yakka predmetdan farqlab berishga xizmat qiluvchi tamg'a vazifasini bajaradi.

Ko'pchilik atoqli otlar turdosh ot, boshqa biror turkum so'zi asosida vujudga keladi: Olmos (turdosh otdan), Utkir (sifatdan), Tursun (fe'ldan) kabi. Oz bo'lsa-da, atoqli otning turdosh otga aylanishi ham uchraydi: rentgen (apparatning nomi), boston (jundan to'qilgan yupqa matoning nomi), xosiyatxon (atlas turining nomi) kabi. Bunda yakka predmetning (ko'pincha shaxsning, qisman geografik punktning) xususiy nomi ma'lum tur predmetning nomi qilib olinadi, natijada atoqli otga xos shartlilik yo'qoladi, bunday so'z turdosh otga aylangach leksik mundarija kashf etadi. Aksincha, turdosh ot yoki boshqa biror turkum so'zi atoqli otga aylansa, odatda leksik mundarijasidan mahrum bo'ladi, shartlilik kashf etadi (nom tamg'aga aylanadi)³.

Boshlang'ich sinf darsliklarida berilgan atoqli otlarning xilma-xilligi o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi. Atoqli otlarning turdosh otlardan yasalishi ma'noning torayishi sifatida qaralsa-da, bu nomlar aniq bir obyekt, predmet, yoki biror bir manzilga xususiy nom berish orqali o'zbek tilining so'z boyligini oshirishga xizmat qiladi va shaxs nutqida va so'zlashuv uslubida faol leksik xususiyatga ega. Hozirgi boshlang'ich sinf darsliklarida berilgan atoqli otlarni ma'no guruhlariga ko'ra quyidagicha morfologik modellarini tuzib chiqamiz:

1. *Shaxs nomlari* – **Ot /shn;** Kishilarning ismi, otasining ismi, familiyasi va taxallusi: Ahmad al-Farg'oni; Abu Ali ibn Sino; Munis; Akmal; Dovdirboy; Xurshid, Aleksandr Stepanovich Popov v.k;

² Begmatov E. O'zbek tili antroponomikasi. Toshkent. Fan, 2013. 10-bet

³ O'zbek tili grammatikasi, ikki tomlik, I tom, Morfologiya, T., „Fan“ nashriyoti, 1975 127-bet



2. *Joy nomlari* – **Ot/jn**; ma'lum bir geografik hududga atab qo'yilgan nomlar O'zbekiston; Misr; Venetsiya; Andijon; Dalvarzintepa, Afrosiyob, Marmara v.k;

3. *Narsa nomlar* – **Ot/nn**; *narsalarga atab qo'yilgan nomlar narsa nomlari deyiladi*: “Xamsa”; “Tib qonunlari”; “Ziji jadidi Ko'ragoniy” (kitobga), , Paxmoq (mushukka), “Matiz” (mashinaga) Mars (sayyoraga) v.k;

Ma'lumki, o'zbek antroponimiyasining lug'aviy boyligi ikki katta qatlamga bo'linadi: o'z qatlam ismlar va o'zlashma qatlam ismlar. Bu qatlamlar maxsus tadqiqotlarni talab qilar edi. Mana shuni hisobga olgan holda G.Sattorov ushbu satrlar muallifi rahbarligida o'zbek tilining o'z qatlami yuzasidan tadqiqot olib borib, 1990 yilda “O'zbek ismlarining turkiy qatlami” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi.⁴ O'z qatlam ismlar xalqning turmush tarzi, madaniyati (O'roqboy-o'roq turdosh otidan, Boltaboy-bolta turdosh otidan) ma'lum bir hududga xoslik xususiyati (al-Buxoriy, al-Xorazmiy), turli ma'rosim urf-odat, udumlar bilan bog'liq nomlar (Hayitboy, Hayitgul (hayit kunida tug'ilgan, Xolida (xoli bilan tug'ilgan), Jumavoy (juma kuni tug'ilgan), ulug'vorlik xususiyatiga atalganlik udumiga ko'ra (Muqaddas, Shuhrat, Ulug 'bek, Botir, Qodir, Komil, Kamol, Aziz, Xosiyat, Azim)⁵. O'zlashma qatlam esa boshqa millat vakillarining ismlaridan ko'chirish orqali hosil qilinadigan onomastik birliklardir. Masalan, Josh, Ruben, Betxoven. Bunday ismlar sozlashuv uslubida ishlatilib kelinsa-da, boshlan'ich sinf darsliklarida matnlar ichida berilgan atoqli otlar matn yoki hikoya mazmunini ochib berishga qaratilgan mazmuniy birlikdir. 2-sinf o'qish savodxonligi darsligida Nikolay Nosov qalamiga mansub “Gulzor shahrining mittilari” nomli hikoyasi berilgan.⁶Bu hikoyada noodatiy shaxs nomlaridan foydalanib, nom orqali xarakter-xususiyat va kasbini ochib berishga qaratilgan: Bo'yoqvoy-rassom nomi (bo'yoq turdosh ot +voy q.) ; Mashshoqvoy-cholg'uchi; (mashshoq shaxs oti+voy q.) Shoshqaloq-shoshib yuradigan mitti; (shoshqaloq-sifatdan)Sergap-ko'p gapiradigan mitti(sergap-sifatdan); Indamas-kam gapiradigan mitti (indamas-sifatdan); Bog'irsoq-bo'g'irsoqqa o'xshashlik jihatidan; Dovdirboy-dovdir mitti (dovdir sifat+boy q.); Agarqul-gapiga agar qo'shib gapiradigan mitti (agar shart bog'lovchi+qul q.) Magarqul-Agarqul akasiga uyqosh; Dumbulvoy-ko'rinishi dumbulga o'xshash (dumbul turdosh ot+voy q.); Shishajon-shishadan durbin yasagan munajjim (shisha turdosh ot+jon q.). Bundan tashqari joy nomi ham

⁴

Sattorov G. H. O'zbek ismlarining turkiy qatlami: Filol. fan. nomz. dis.Toshkent, 1990

⁵ 4-sinf darslik ona tili 1-2-qism

⁶ U. B. Aydarova. 2-sinf o'qish savodxonligi. 1-qism.Darslik –Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023. 41-bet



keltirilgan: Dastorgulko‘cha-dastorgul ekilgan ko‘cha (dastorgul turdosh ot+ ko‘cha turdosh ot).

Umuman olganda, nomlar qanday bo‘lmasin aslida ular so‘z va qo‘shimchalardan tashkil topgan bo‘ladi. Ular nom bo‘lgani uchun endi oddiy so‘zlik (lug‘aviy) ma‘nosiga ega emas, balki atalganlik yoxud ixtisoslashganlik asosida shakllangan nomlik ma‘nosiga ega bo‘ladi.

E.Begmatovning fikricha, tilshunoslikda atoqli otlarga qaraganda turdosh otlar va boshqa tip turdosh so‘zlarning lisoniy xususiyatlari ancha yaxshi o‘rganilgan. Atoqli otlar turkumi haqida bunday fikrni aytib bo‘lmaydi. Chunki mavjud leksikologiya, grammatikalarda, imlo qoidalari va lug‘atlarda, odatda, atoqli otlarning to‘rt-besh tipigina keltiriladi, turli lisoniy xususiyatlar tahlil qilinganida esa atoqli ot materiallari chetlab o‘tiladi ⁷. O‘zbek onomastikasi tizimi kuzatilsa, unda ba‘zi shakllar ham, ma’noga ko‘ra noaniq ismlar ham uchraydi. Buning turli sabablari bo‘lishi mumkin.

1. Ba‘zi ismlar asrlar davomida iste’mol jarayonida qo‘llanaverib shaklan o‘zgargan bo‘ladi. Masalan, Temurbek ismi hozirda o‘zgarib, Timur Timka shakllarini ham uchratish mumkin.

2. Ba‘zi atoqli otlar tarixda mavjud bo‘lgan hozirda iste’moldan chiqqan biror leksemadan yasalgan bo‘ladi. Choch, Shosh hozirgi kunda Toshkent.

3. Ma’lumki, bolaga qo‘yilgan ism ota-onalar tomonidan oila doirasida chaqaloqni erkalab turli shakllarda talaffuz qilinadi. Ko‘pincha erkalash shakllari ilk asos bo‘lgan asliy so‘zdan tamoman uzoqlashadi va mavhum shakllarni oladi. Masalan: Gulchehra-Guchi, Jumaniyoz-Jumash shaklida erkalash holatlari bor.

4. Ism hozirda bizga noma’lum bo‘lgan ba‘zi lahjaviy leksemadan yasalgan bo‘lishi ham ehtimol. O‘zbek antroponimiyasida bir leksemadan yasalgan nomning ham erkaklar, ham ayollar ismi bo‘lib, kelishi ko‘p uchraydi. Ammo, ushbu shakl ismlar aksariyat holatlarda antroponomik aniqlagichlar yoki qo‘shimcha komponentlar yordamida o‘g‘il va qizlar ismiga xoslanadi. Masalan, Tursun (erkak)-Tursun (ayol), Iqbol (erkak)-Iqbol (ayol).

Onomastik birlik haqida so‘z ketganida o‘zbek onomastikasi birliklari tog‘risida atroflicha izlanishlar olib borilmoqda. Buning sababi, o‘ylaymanki, nomsiz hech bir narsaning o‘zi yo‘q.

⁷ Begmatov E. O‘zbek tili antroponomikasi. Toshkent. Fan, 2013. 32-bet

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Aydarova. U.B 2-sinf o'qish savodxonligi. 1-qism.Darslik –Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023. 41-bet
2. Baynazarova D.Dj. Toirova M.E 4-sinf ona tili savodxonligi 1-2- qism.Darslik – Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023.
3. Begmatov E. O'zbek tili antroponomikasi. Toshkent. Fan, 2013. 32-bet
4. O.Gadoyev Zamonaviy tilshunoslik va derivatsion qonunlar. Respublika ilmiy-amaliy anjumani Materiallari Samarqand shahri, 2022-yil, 25-may
5. S a t t o r o v G. H. O'zbek ismlarining turkiy qatlami: Filol. fan. nomz. dis.Toshkent, 1990
6. ¹ O'zbek tili grammatikasi, ikki tomlik, I tom, Morfologiya, T., „Fan“ nashriyoti, 1975 127-bet



COMPARATIVE AND STRUCTURAL ANALYSIS OF COMMERCIAL TERMS IN UZBEK AND ENGLISH

Abdullayeva Feruza Suyunovna

PhD doc. UzSWLU

Karimboeva Surayyo Alibek qizi

The second-year Master's student, UzSWLU

Uzbekistan, Tashkent

Abstract: The article endeavors to explore the cultural, economic, and pragmatic underpinnings that inform the use of commercial terms in Uzbek and English, recognizing the broader sociolinguistic and communicative contexts in which these terms are employed.

Keywords: commercial terms, comparative analysis, structural analysis, contrastive linguistics, cross-cultural communication, translation studies, applied linguistics, trade, invoice

Language is the cornerstone of communication in the global business environment. With the increasing globalization and international trade, it is essential to understand the nuances and complexities of commercial terms in different languages. This article aims to provide a comparative and structural analysis of commercial terms in Uzbek and English, shedding light on the differences and similarities between the two languages in the context of international trade and commerce.

This study seeks to conduct a thorough comparative and structural analysis of commercial terms in two distinct languages, specifically Uzbek and English. The primary aim is to analyze the lexical and syntactic features of commerce-related terminology in these languages, comparing their linguistic structures, semantic nuances, and functional equivalences.

Through a quantitative and qualitative analysis of a carefully curated corpus of commercial texts, this research will investigate the differences and similarities in the usage, form, and communicative strategies of commercial terms in Uzbek and English. By leveraging principles from contrastive linguistics and translation studies, the study aims to identify specific lexical items, collocations and idiomatic expressions unique to each language, as well as the patterns of syntactic and semantic variations in commercial terminology across the two languages.



The findings of the analysis are expected to provide valuable insights for translators, lexicographers and learners of both languages, facilitating a better understanding of the linguistic, cultural, and pragmatic considerations inherent in commercial discourse. Ultimately, this comparative study aims to contribute to cross-linguistic and cross-cultural communication in commercial contexts, enriching the body of knowledge in the field of applied linguistics and language studies.

Uzbek and English are vastly different languages, both structurally and semantically. When it comes to commercial terms, the differences and similarities between the two languages are of paramount importance for international business transactions.

One of the fundamental aspects of commercial terms is the terminology used for various business entities and transactions. For instance, in English, "company" is a frequently used term to refer to a business entity. In Uzbek, the equivalent term is "kompaniya". Similarly, "trade", "export" and "import" are ubiquitous commercial terms in both languages, although with distinct phonetic and morphological characteristics.

Another critical aspect of commercial terms is the terminology related to payment and finance. In English, terms like "invoice," "payment terms," and "bank guarantee" hold great significance in commercial transactions. In Uzbek, the equivalent terms are "invoice" "to'lov shartlari" and "bank garantiyasi" respectively. Understanding the structural and semantic differences of these terms is crucial for effective communication and comprehension in international trade relations between Uzbek and English-speaking entities.

Furthermore, legal and contractual terms play a pivotal role in international business dealings. The terminology related to contracts, agreements, and legal obligations differs in both languages. In English, terms such as "contract" "agreement" and "terms and conditions" are commonly used, whereas their Uzbek equivalents are "shartnoma", "kelishilganlik" and "shartlar va sharoitlar". Exploring these differences provides valuable insights into the legal and contractual aspects of commercial transactions in Uzbek and English.

In addition to comparative analysis, understanding the structural characteristics of commercial terms in Uzbek and English is essential for effective cross-linguistic communication in the business domain.

Morphological and phonetic analysis reveals the intricate differences in the structure of commercial terms in both languages. The phonetic complexity and syllable structures of Uzbek commercial terms differ from those in English. For



example, the Uzbek term "mahsulotlar" for "products" consists of three syllables, while its English equivalent "products" comprises two syllables.

Moreover, the morphological aspects of commercial terms including prefixes, suffixes, and word formation vary between Uzbek and English. In Uzbek, the use of affixes to denote possession, plurality, and verb conjugation differs from the English language. For instance, the Uzbek term "sotib olish" for "purchasing" consists of a verb stem "ol", affixes "ish" and "sotib" indicating the action of buying. In contrast, the English term "purchasing" is formed through the addition of the suffix "-ing" to the verb root "purchase".

Understanding the morphological and phonetic intricacies of commercial terms in Uzbek and English is crucial for accurate interpretation and translation in international business communications.

The comparative and structural analysis of commercial terms in Uzbek and English has significant implications for international business operations, trade negotiations and intercultural communication.

Firstly, a profound understanding of commercial terms in both languages is essential for effective translation and interpretation in international trade transactions. Accurate translation of commercial contracts, agreements, and financial documents is crucial for avoiding misunderstandings and legal disputes.

Secondly, a comprehensive understanding of the differences and similarities in commercial terms between Uzbek and English facilitates effective communication between businesses and trade partners from different linguistic and cultural backgrounds. It promotes clarity, mutual understanding, and trust in commercial dealings.

Moreover, the insights gained from comparative and structural analysis of commercial terms enable businesses to tailor their marketing, advertising, and branding strategies effectively in diverse linguistic and cultural contexts. Knowledge of the linguistic nuances and cultural connotations of commercial terms is imperative for successful market penetration and customer engagement in Uzbek and English-speaking regions.

In conclusion, the comparative and structural analysis of commercial terms in Uzbek and English provides valuable insights into the linguistic, semantic, and cultural aspects of international business communication. Understanding the differences and similarities in commercial terms between the two languages is indispensable for successful cross-linguistic communication, negotiation, and collaboration in the global business arena. Moreover, it fosters intercultural



understanding and cooperation, laying the foundation for prosperous and sustainable international business relationships.

References:

1. "Экономика и социум" №4(83) ч.1 2021, Shodmonova M.Q 371pp
2. Vishnyakova S.M. Professional Education: Glossary, Key Concepts, Terms, Actual Vocabulary.-М.: NMTSPO, 2000.
3. Golish L.V. Technologies of training in economic education. -Т.: Molia, 2005, book. One and two.
4. Kamlev N.G. Dictionary of Foreign Words. - М. МГУ 1995.
5. <http://genderi.org/lexicology-about-geral-information.html>



BOLALARNING MUSTAQIL MUSIQIY QOBILIYATINI RIVOJLANISHIGA OILA VA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTINING TA'SIRI

Abdullayev Muhiddin Yusupovich
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
“San’atshunoslik” kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda bolajonlarimizni musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishda Maktabgacha ta’lim tashkilotlari va oila tarbiyasini ahamiyati haqida so’z yuritildi.

Kalit so’zlar: Oila, madaniyat, ma’naviyat, MTT, musiqa, mustaqil ta’lim.

Musiqiy madaniyat xalq ma’naviy dunyosining ajralmas qismi bo’lib, uning ma’naviy ehtiyojini barcha davrlarda qondirgan va har doim hamdard bo’lgan, beminnat xizmat qilgan. Zero, bugungi mustaqillik davrimizda ham o’zining ma’naviy burchini muqaddas bilib, xalqimizga xizmat qilmokda. Shuning uchun ham musiqa madaniyatimiz bugungi kunning ulkan ijod maydoniga aylandi.

Shu boisdan musiqiy tarbiyani oila, maktabgacha ta’lim tashkilotlari hamda boshlang’ich sinfdan boshlab bolalarning mustaqil musiqiy faoliyatlarini hisobga olgan holda tizimli tarzda ish olib borish maqsadga muvofiqdir.

Mustaqil musiqiy faoliyat, bolalarning o’zlaricha hirgoyi qilishda, o’zlaricha mustaqil musiqa tinglashlarida, o’zlaricha cholg’u asboblarining biror turi bilan shug’ullanishida aktyorlar, xonandalar, qiziqchilar qiliqlari, ovozlariga taqlid qilishlarida ko’rinadi. Ular o’zlaricha turli o’zlariga yoqqan qo’shiqlarni hirgoyi qilib kuylaydilar, o’sha ashula ijrosining ohangiga, ovoziga va qiliqlariga o’xshatib harakat qilishga intiladilar. O’zlaricha radio, televizor yoki pleyerlarda turli musiqalarni tinglaydilar. Ba’zi bolalar cholg’u asboblari chalishga, agar cholg’u asboblari bo’lmay qolsa, shu cholg’u asbobini chalib ko’rsatishga intiladilar. O’zlari yoqtirgan aktyor yoki qiziqchilar so’zlaritahlidan harakatlar bajaradiva hakoza. Shunday holatlarmustaqil musiqiy faoliyat ko’rinishlari hisoblanadi.



Bolalar mustaqil faoliyatini qayerdan o'rganadilar. Bunday faoliyat manbalari qayerda mustaqil musiqiy faoliyat manbalarini uch toifaga bo'lish mumkin.

1. Maktabdan oladigan musiqiy manbalar.
2. Oiladan oladigan.
3. Maktab va oiladan tashqari oladigan musiqiy manbalar.

Maktab, MTTda mashg'ulot, musiqa to'garagi, musiqiy tadbirlar mustaqil musiqiy faoliyat manbalari hisoblanadi. Bolalar o'sha jarayonlarda eshitgan va ko'rganlariga taqlid qiladilar. Oilada radio eshitishi, televizor, video konsertlar ko'rishi mumkin. Maktab va oiladantashqari bolalar ko'cha-kuyda, teatr, kinoteatr, ommaviy sayllar, bozorva boshqa joylarda, to'y va marosim bo'lishi va u jarayonda eshitgan va ko'rgan musiqiy chiqishlarga taqlid qilishi mumkin. Mustaqil musiqiy faoliyatning bolalar qiziqishlaridan paydo bo'lishiga e'tiborni qaratishimiz lozim. Demak bolalar musiqiy faoliyatning u yoki bu turiga qiziqar ekanlarki, shu ko'rgan va eshitgan musiqiy jarayonini xotiralarida saqlab qolayaptilar. Biz pedagoglar bolalar mustaqil musiqiy faoliyatini qanday baholamog'imiz lozim.

Albatta mustaqil musiqiy faoliyatga ijobiy baho bermoq lozim. Zero bu faoliyat bolalarni imkon qadar mustaqil bo'lishga o'rgatadi. Tasavvur qiling biror ishni o'zi fikrlab, bajara olmaydigan, qachon tepasida turib buyruq berib tursangiz biror ish qiladi aks holda o'zicha bir ish qilolmaydigan shaxslarning voyaga yetishganidan na ota-ona va na jamiyat manfaatdor. Jamiyatga o'zlaricha tashabbus ko'rsatuvchi yangiliklar yaratuvchi iftixorlar, kashfiyotlar qiluvchi sog'lom, harakatchan fuqarolar kerak. Shunday ekan mustaqil musiqiy faoliyat pedagogdan kuzatuvchanlikni, sezgirlikni talab qiladi. Zero pedagoglar mustaqil musiqiy faoliyatini ijobiy baholashi bunday faoliyat ko'rsatayotgan bolalarga to'g'ri munosabatda bo'lishib ularni turli yo'llar bilan rag'batlantirib boshqalarga namuna



qilib ko'rsatishi bolaning bunday foliyat turi bilan shug'ullanishdan manfaatdor ekanliklarini anglatishi kelajakda ulardan buyuk ijodkorlar va san'atning ko'zga ko'ringan namoyondalari chiqishi mumkinligiga ishontira olishi lozimdir. Darhaqiqat, bola qanchalar musiqiy tushunchani mustaqil fikrlab, amalda bajarishga harakat qilsa, musiqiy qobiliyatining rivojlanishi ham shunchalar muvoffaqiyatli bo'ladi.

Bola va uning qobiliyatlarining o'sishi katta kishi tomonidan uyushtiriladigan faoliyatda: qo'shiq, ritmika, muzika tinglash va muzika asboblari chalishda sodir bo'ladi. Bolalar o'zlarining musiqa eshitish tajribalari asosida o'z tasavvurlarini qo'shiq, o'yin, raqs ijodida namoyon qilishga va musiqa savodining oddiy elementlarini egallashga qodirdir. Shu bilan birga faoliyatining har bir turi umuman musiqaqobiliyatlarining o'sishig, maxsus qobiliyatlarning shakllanishiga, masalan: ashula aytish, ashulachilik ovozi va kuy qobiliyatining tarkibtopishiga yordam beradi.

Bularning barchasi turli tashkiliy shakllarda: mashg'ulotlarda, o'qishdan tashqari ishlarda (bolalar bog'chasi turmushida musiqa) va mustaqil faoliyatlarida bo'lib o'tadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari. – Toshkent, 2008.
2. Jalolova G.Q. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash. Metodik tavsiya. – Toshkent, 2004.
3. Bolalarni maktabga tayyorlashda noan'anaviy o'yinlardan foydalanish. Metodik qo'llanma. – Toshkent, 2004.



BOSHLANG`ICH TA'LIM TIZIMIDA BILIMGA YO`NALTIRILGAN KLAVIATURA TRENAJORLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Nuraliyeva Feruza Abdusalim qizi

*Termiz davlat pedagogika instituti Informatika va uni
o`qitish metodikasi kafedrası o`qituvchisi*

Mustafaqulova Jasmina O`ktam qizi

*Termiz davlat pedagogika instituti Matematika va
informatika yo`nalishi 2-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim tizimida kompyuter trenajori va klaviatura trenajorlaridan keng foydalanilishi va ularning turlari haqida, ulardan samarali foydalanish, o'quvchilar klaviaturadan foydalanish tezligini oshirish uchun, fan doirasida bilimga ega bo'lishi uchun samara beradigan dasturli klaviatura trenajori foydasi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: kompyuter, klaviatura trenajori, elektron darslik, kompyuter dasturi, kombinatsiya, dasturiy vosita.

Bugungi kun ta'lim tizimi mohiyati va ko'rinishi bundan 10-20 yil avvalgi ta'lim tizimidan tubdan farq qilmoqda. Eski jihozlar o'rnini zamonaviy kompyuterlashtirilgan jihozlar egalladi. Darsning asosiy predmeti bo'lmish doska o'rnini bugungi kunda elektron doska egalladi. Bu rivojlanishga mos holda bugungi kun o'quvchisi ham zamonaviy kompyuter texnikasi va axborot texnologiyasi sohasidagi yangiliklarni kun sayin emas, balki soniyaning oniy birliklarida egallab ulgurmoqda. Hayotimizning har sohasida masofaviy ta'lim, elektron darslik, kompyuter trenajorlari kabi tushunchalarni ko'p eshitayapmiz. Bu esa kompyuter dasturlarining tinimsiz yangilanib, rivojlanib borishi hamda ularning ta'lim tizimiga jadal kirib borayotganligidan dalolat.

Ta'lim sohasida qo'llanilayotgan elektron darslik va qo'llanmalarni tarkibiga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- Matnli elektron o'quv qo'llanmalar;
- Grafik elektron o'quv qo'llanmalar;
- Audio va video faylli elektron o'quv qo'llanmalar;
- Dasturiy vositalar va o'yin dasturlar.
- Kompyuter trenajorlar.



Bu turdagi elektron darsliklarning barchasi o`quvchilarning yoshi, malakasi va holatiga qarab tavsiya etiladi. Elektron darsliklarning ta`lim berishda qaysi turidan foydalanish kerakli to`g`ri tanlasna, ta`lim sifatiga katta samara beradi.

Misol sifatida o`quvchilarning bilimini rivojlantirishda klaviatura trenajorlarini qo`llash metodikasini to`g`ri tanlash, o`quvchilarning aqliy qobiliyatining ko`p tomonlama rivojlanishiga olib keladi.

Shu o`rinda klaviatura trenajorlarini mohiyatiga ko`ra quyidagicha turlarga ajratishimiz mumkin:

- ixtiyoriy kombinatsiyali harflar klaviatura trenajorlari;
- maqsadga yo`naltirilgan bosqichli klaviatura trenajorlari;
- o`yin dasturli ixtiyoriy kombinatsiyali harflar klaviatura trenajorlari;
- o`yin dasturli maqsadga yo`naltirilgan klaviatura trenajorlari va h.z.

Yuqorida keltirilgan klaviatura trenajorlari foydalanuvchini faqatgina kompyuterning klaviaturasida tez ishlashni mashq qildirish uchun yaratilgan bo`lib, ularning turlari foydalanuvchining yoshiga va holatiga qarab tavsiya etiladi. Masalan, yosh bolalar kompyuter o`yinlariga qiziqqanligi uchun o`yin dasturli ixtiyoriy kombinatsiyali harflar klaviatura trenajorlaridan foydalanishadi. Hozirgi kunda milliy va chet elda yaratilgan klaviatura trenajorlari juda keng tarqalgan.

Bu turdagi klaviatura trenajorlari o`quvchilarni o`ziga tez jalb qiladi, lekin harflar ketma-ketli ixtiyoriy tanlanganligi sababli o`quvchilarning biror fan yuzasidan bilimlarining rivojlanishida qo`llab bo`lmaydi.

O`quvchilarning klaviaturadan foydalanish tezligini oshirish bilan bir vaqtda turli fan doirasida bilimlarni rivojlantirish uchun o`yin dasturli bilimga yo`naltirilgan klaviatura trenajorlarini yaratish va ularni ta`limda qo`llash boshlang`ich sinf yoshidagi o`quvchilar uchun juda qo`l keladi. Boshlang`ich sinfdagi o`quvchilarning kompyuter o`yinlariga qiziqishi yuqori ekanligini inobatga olib, ularning bu qiziqishlarini bunday dasturlar orqali to`g`ri yo`naltirish mumkin.

Biz taklif etayotgan o`yin dasturli bilimga yo`naltirilgan klaviatura trenajorlarining mohiyati quyidagicha. Misol uchun ingliz tilidan o`quvchilarga turli hayvonlarning nomini yod olish qobiliyatini o`stirish uchun dastur ekranida turli hayvonlarni tutib olishga harakat qilayotgan bola tasvirlansin. Hayvonlarning rasmi namoyon bo`lganda o`quvchi belgilangan vaqt davomida ushbu hayvon nomini ingliz tilida yozishi kerak. Bu vazifani o`quvchi to`g`ri va tez bajarsa, ushbu hayvonni ushlab oladi va keyingi ajoyib hayvonni ushlash uchun harakatni davom ettiradi.



Bu turdagi mashqlarni o'zbek tilida berilgan so'zni ingliz tilida tez yozish, eshitilgan ovozni tez yozish, rasmda ifodalangan buyumning nomini yozish kabi turli xil ko'rinishlarda tashkil etish mumkin.

Bu turdagi klaviatura trenajori o'quvchilarning turli tillarda yod olgan so'zlarini mashq qildirishda juda qo'l keladi.

O'yin dasturli bilimga yo'naltirilgan klaviatura trenajorlarini yaratib, ularni ta'lim jarayonida qo'llash quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- O'quvchilarning o'yinlarga bo'lgan qiziqishini to'g'ri yo'naltirish;
- O'quvchilarning klaviaturadan foydalanish tezligini oshirish;
- O'quvchilarning turli tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish;
- O'quvchilarni yod olish qobiliyatini o'stirish va ularni mashq qildirish orqali rivojlantirish.

ADABIYOTLAR:

1. "Ta'lim to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Toshkent: Sharq NMK. 1997 yil.
2. M.Aripov, M.Muhammadiyev. Informatika, informasion texnologiyalar. Darslik, T.: TDYuI., 2005 y.
3. F.Nuraliyeva, B.Abdumo'minov. DASTURLASH TILLARI VA ULARNI O'RGANISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI Multidisciplinary Scientific Journal Value 1 Issue pages 309-314



MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING MADANIY VA MA'RIFIY TARAQQIYOTI

Sultamuratov Azamat Baxit o'g'li

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Yuridika fakulteti Milliy g'oya, madaniyat asoslari va
huquq ta'limi mutaxassisligi talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonning mustaqillik yillarida keshib o'tgan davri, madaniy islohotlarni yo'lga qoyishdag'i og'ir vazifalarni, shu bilan birga ma'rifiy jihatdan yosh avlodni tarbiyalashdagi davlat siyosatining ustin bolg'an yo'nalishlari ko'rsatib o'tilgan xisoblanadi.

Kalit so'zlar: Mustaqillik, O'zbekiston, madaniyat, ma'rifat, islohot, yubeley, shahar, qonun.

O'zbekiston Respublikasi tarixida 1991-yil 31-avgust oltin siyoh bilan yoziladig'an tarixiy voqealik ro'y berdi, bu - Mustaqillikning e'lon qilinishi edi. Manashu yillardan boshlab davlatimizda madaniy taraqqiyot va ma'rifiy islohotlar davri boshlandi desak aslo xato aytmaymiz. Avvalo mustaqillik davridagi dolzarb muammolardan biri bu- yosh avlodni yerkini fikirlash, yangi davrni boshlab beruvchi islohotchi sifatida tarbiyalash edi. Bu borada davlatimizda Milliy g'oyani singdirish, milliy mafkurani uyg'otish ustin vazifa bo'lip qoldi. Milliy mafkura yaratishni taqozo yetuvchi sabablar - bu, bir tomondan, shoro zamonida totalitar tuzum manfaatlarini ximoya qiladigan kommunistik mafkoradan butunlay voz kechishi va shoro davridan meros qolgan bir qolipda fikrlash illatidan tezroq xalos bolish, odamlar tafakkur tarzi va dunyoqarashni kommunistik aqidalar kishanidan ozod qilish demokratik tamoyillar, qonunning ustuvorligiga hurmat tuyg'usini kamol toptirish; ikkinchi tomondan, mafkuraviy boshliqqa yo'l qoymaslik, millat sifatida ozligimizni anglash, yakdil va hamjihatligimizni ta'minlash shuningdek, bu hamjihatlikka qarshi qaratilgan har qanday yo't mafkuraviy tazyiqlarning oldini olish, ta'bir joiz bolsa, ozigaxos mafkuraviy immunitet tizimini shakllantirish edi. Dastlab 1993 yil aprel oyida Birinchi Prezident I.A.Karimov bir guruhi a'diblar bilan suhbat qilib, milliy istiqlol g'oyasini ishlab chiqish zaruriyatini asoslab berdi. O'tgan davr mobaynida milliy mafkuraning hayotimizdagi ornini belgilash, uning ilmiy-nazariy asoslarini yaratish, mafkuraviy tarbiya yo'nalishlarini ishlab chikish, shu asosda jamiyatimizda ijtimoiy fikrni shakllantirishda bir qator tadbirlar amalga oshirildi. Biroq bu tadbirlarni amalga oshirish jarayonida mafkura yaratish masalasi naqadar keng qamrovli yekanligini ko'rsatdi. Darhaqiqat, bu vazifa bir-ikki yillik yemas, balki millat butun umri davrida hal qiluvchi, yangi zamonaviy talablarni inobatga olib, takomillashib va boyib borishni taqozo yetuvchi jarayondir. Shu bois 2000 yil aprel oyida davlat rahbarining bir guruhi olim va a'diblar bilan navbatdagi



uchrashuvda va “Fidokor” gazetasi muxbirining savollariga javoblarida (2000 y, iyun) yendi milliy mafkoraning asosiy konsepsiyasini ishlab chiqarishga, nazariyadan amaliyotga o'tish kerakligiga alohida ye'tibor berildi.

Natijada respublikamizda ma'naviyat sohasining yangi tizimi vujudga kela boshladi. “Ma'naviyat va ma'rifat” jamoatchilik markazi, “Ta'lim markazi”, “O'zbekkino”, “O'zbeknavo”, “O'zbekraqs”, “O'zbekteatr”, “O'zbekmuzey”, Badiiy akademiya, O'zbek amaliy san'at markazi, Milliy madaniy markazlar, "O'rta Osiyo madaniyat xodimlari assotsiatsiyasi" kabi madaniy-ma'rifiy tashkilotlar va ko'plab jamg'armalarning tuzilishi respublika ma'naviyati asosiy sohalarining tarkib topishi va rivojlanishiga zamin boldi.

1994-yilni hukumat qarori bilan Ulug'bek yili, deb e'lon qilinishi, uning 600-yilligini O'zbekistonda va jahon miqyosida, xususan, YUNESKO qarorgohi Parijda keng nishonlanishi ham buyuk allomalar qoldirgan meros umuminsoniy qadriyatga aylanganligi nishonasidir. 1996-yil Amir Temur tavalludining 660 yilligi ham keng miqyosda nishonlandi. «1996-yilni Amir Temur yili» deb atash to'g'risida farmon qabul qilindi. «Temur tuzuklari» bir necha tilda chop etildi. Hukumatning maxsus qaroriga binoan, 1999-yil dekabrda Xorazmda Muhammad Rizo Erniyozbek og'li Ogahiy tavalludining 190 yilligi, Nukusda Ajiniyoz Qosiboy og'li tavalludining 175 yilligi, 1998-yil oktabrda esa Farg'onada Ahmad al-Farg'oniy tavalludining 1200 yilligi keng nishonlandi. Islom olamining zabardast allomalari bolmish Imom Ismoil Buxoriyning 1225 yilligi, Imom Abu Iso Termiziyning 1200 yilligi, Mahmud Zamaxshariyning 920 yilligi, Najmiddin Kubroning 850 yilligi, Bahouddin Naqshbandiyning 675 yilligi, Xoja Ahror Valiyning 600 yilligi va boshqa allomalarning yubileylari keng nishonlandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning e'tibori bilan el-u yurtga mehnati singgan insonlarning hurmatini joyiga qo'yish an'anasi davom ettirilmoqda. 2017-yilning o'zida bu borada ulkan ishlar amalga oshirildi. Toshkent va Samarqandda Islom Karimov (2018-yil Qarshida), Namangan viloyatida Is'hoqxon Ibrat, Xorazm viloyatida Komiljon Otaniyozov, Qoraqalpog'istonda Ibroyim Yusupov, Farg'onada Erkin Vohidov, Qashqadaryoda Abdulla Oripov, Andijonda Muhammad Yusuf xotiralarini abadiylashtirish bo'yicha yirik tadbirlar o'tkazildi. Ularning nomi bilan ataladigan markazlar, ijodiy maktablar tashkil etildi.

Xalqimizning azaliy qadriyati, sevimli bayrami hisoblanmish «Navro'z» bayramini xalqimizga qaytib berilishi mamlakat tarixida katta voqea bo'ldi. 1991-yildan boshlab mamlakatda Prezident farmoniga ko'ra, 21-mart – Navro'z umumxalq bayrami sifatida nishonlanadigan bo'ldi. Qadimiy xalq bayrami – Navro'zning tiklanishini respublikamizning butun aholisi mamnuniyat bilan ma'qullab, ko'tarinki ruhda kutib oldi va hozir ham ardoqli bayram sifatida nishonlamoqda. O'zbekiston hali sovetlar qaramog'ida turgan og'ir kunlarda Islom Karimov xalq xohish-irodasiga quloq tutib, unutilmas tarixiy hujjatga imzo chekdi. 1990-yil 2-iyun kuni «Musulmonlarning Saudiya Arabistoniga haj qilishi



to'g'risida» gi farmonini e'lon qildi. 1992-yil 27-martda O'zbekiston Prezidentining «Ro'za hayitini dam olish kuni, deb e'lon qilish to'g'risida» farmoniga ko'ra, musulmonlar hayotidagi qutlug' sanalar – Qurbon va Ramazon hayit kunlarini doimiy ravishda bayram qilish va ularni dam olish kunlari, deb e'lon qilinishi ham aynan xalqimiz ko'nglidagi ish bo'ldi. Badiiy adabiyotda mustaqillikni asrab-avaylash, ozod va obod Vatan qurish, barkamol insonni tarbiyalash, milliy o'zlikni anglash kabi masalalar bosh mavzu bo'lib qoldi. Abdulla Oripov, Odil Yoqubov, Primqul Qodirov, Xurshid Davron kabi ijodkorlarning tarixiy roman, pyesa va qissalarida ulug' bobokalonlarimiz Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bobur va boshqalarning siymolari umuminsoniy va milliy qadriyatlarga mos tarzda yangicha talqinda yoritildi.

Xulosa qilip shuni aytip o'tish lozimki, mustaqillik bu osmonnan tushgan narsa emas, bunga qanshadan-qansha bobolarimizning qon yig'lab keshg'an umri, mehnati, bilimi ketgan. Qansha ming yillar davomida xalqimiz orziqib kutilgan damlar xisoblanadi. Madaniy va ma'rifiy taraqqiyot xususida gap borar ekan bunday damlarni ko'rish, kommunistik g'oyalardan, ularning ardoqlagan ilohlaridan voz kechish osonlik bilan bolg'ani yoq. Bu narsalarni kelajak uchun buyuk kurash ostonasidan o'tganligini har bir yosh avlod vujudiga yuklash lozim.

Foydalangan adabiyotlar:

1. "O'zbekistonning yangi tarixi". Uchinchi kitob. Mustaqil O'zbekiston tarixi. T.Sharq. 2000

2. "O'zbekiston tarixi" (Mustaqillik davri) Toshkent-2018.

3. Erkaev A "O'zbekiston yo'li" Toshkent: Manaviyat, 2011

Internet saytlari:

1. [https:// kitopxon.com](https://kitopxon.com)>

2. [https:// portal.guldu.uz](https://portal.guldu.uz)>

3. [https:// arxiv.uz](https://arxiv.uz)>



ODOB-AXLOQ VA DIN

Sultamuratov Azamat Baxit o'g'li

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Yuridika fakulteti Milliy g'oya, manaviyat asoslari va
huquq ta'limi mutaxassisligi talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada odob-axloq haqida tushuncha, uning jamiyat hayotidagi orni, rivojlanish asoslari haqida va din bilan bog'liq masalalar to'g'risida tushunchalar bayon etilgan. Shuningdek, odob-axloq va din bilan bog'liq tarixiy malumotlar ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: odob, axloq, din, yaxshilik, imon-insof, oila, Zardushtiylik, Avesto, Veda, Konfutsiy.

"Insonning odobi uning oltinidanda yaxshiroqdir " degan xalq so'zi bekorga aytilmagan. Odob- inson haqida yaxshi tasurotlar uygatuvshi, jamiyat hayotida katta ahamiyatga ega bolg'an, milliy urf-odatlarga asoslangan ajayob ish-harakatlarni o'z ishiga oladi. Insoniyat uchun yaxshi odob, yaxshi axloq va yaxshi tarbiya oltindan, har qanaqa boylikdanda qadirli ekanligi ustin xisoblanadi. Sababi boylik bilan topilmaydigan narsalar yaxshi axloq, yaxshi tarbiya bilan topish mumkin xisoblanadi.

Tayanch so'zlar: mobil ilovalar biznes, onlayn biznes, mijozlarni jalb qilish, interfeys, mobil tijorat, ichki aloqa, vazifalarni avtomatlashtirish, xaridlar, reklama, chakana savdo, shaxsiylashtirish.

МОБИЛЬНЫЕ ПРИЛОЖЕНИЯ И БИЗНЕС: ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ, РАЗВИТИЯ И УСПЕХА

Аннотация

В статье речь идет о роли мобильных приложений в бизнесе, преимуществах и недостатках использования мобильных приложений в бизнесе сегодня, мнении пользователей, влиянии на человечество и будущей роли и развитии этой сферы, в том числе разработчиков мобильных приложений (ИТ-специалистов) в мире. Охватываются внимание и интересы, электронная коммерция и монетизация, лояльность к бренду и маркетинг, а также удержание клиентов.

Ключевые слова: бизнес мобильных приложений, онлайн-бизнес, взаимодействие с клиентами, интерфейс, мобильная коммерция, внутренние коммуникации, автоматизация задач, закупки, реклама, ритейл, персонализация.

MOBILE APPLICATIONS AND BUSINESS: FUNDAMENTALS OF USE, DEVELOPMENT AND SUCCESS

Annotation

The article is about the role of mobile applications in business, the advantages and disadvantages of using mobile applications in business today, the opinion of users, the impact on humanity and the future role and development of this field, including mobile application developers (IT specialists) in the world. Attention and



interests, e-commerce and monetization, brand loyalty and marketing, and customer retention are covered.

Key words: mobile apps business, online business, customer engagement, interface, mobile commerce, internal communication, task automation, procurement, advertising, retail, personalization

To'g'ridan-to'g'ri aloqa mobil ilovalar mijozlar bilan aloqa qilish uchun bevosita kanalni ta'minlaydi. Push-bildirishnomalar va ilova ichidagi xabarlar orqali korxonalar foydalanuvchilarga yangilanishlar, reklama aksiyalari va moslashtirilgan kontentni yuborishi mumkin. Ilovalar korxonalarga foydalanuvchilardan qimmatli fikr-mulohazalarni to'plash imkonini beradi, bu ularga mijozlarning afzalliklarini tushunishga va kerakli yaxshilanishlarni amalga oshirishga yordam beradi. Yaxshi ishlab chiqilgan mobil ilovalar foydalanuvchilarga qulay interfeysni taklif etadi, bu esa mijozlarga mahsulotlarni ko'rib chiqish, xaridlarni amalga oshirish va ma'lumotlarga kirishni osonlashtiradi. Ilovalar kontent, tavsiyalar va takliflarni shaxsiylashtirish, yanada moslashtirilgan va yoqimli foydalanuvchi tajribasini yaratish uchun mijozlar ma'lumotlaridan foydalanishi mumkin.

24/7 mavjudlik: Mobil ilovalar biznesga mijozlarga 24/7 kun davomida foydalanish imkoniyatini beradi, bu esa foydalanuvchilarga istalgan vaqtda brend bilan muloqot qilishning qulay usulini taqdim etadi. Geolokatsiya xizmatlari korxonalar foydalanuvchining joylashuvi asosida maqsadli reklama yoki ma'lumotni taklif qilish uchun joylashuvga asoslangan xizmatlardan foydalanishlari mumkin.

Elektron tijorat va daromad olish:

Mobil tijorat: Ko'pgina korxonalar, ayniqsa chakana savdo sohasida, foydalanuvchilarga xarid qilish, buyurtmalarni kuzatish va hisoblarni boshqarish uchun platforma taqdim etish orqali mobil ilovalardan foyda ko'radi. Ilova ichidagi xaridlar Ba'zi ilovalar ilova ichidagi xaridlar, obunalar yoki reklama orqali daromad keltiradi. Ichki aloqa Mobil ilovalar xodimlar o'rtasida yaxshiroq muloqot va hamkorlikni osonlashtirishi va umumiy samaradorlikni oshirishi mumkin. Vazifalarni avtomatlashtirish korxonalar ma'lum vazifalarni avtomatlashtirish, qo'lda ishlashni kamaytirish va xatolarni kamaytirish uchun ilovalardan foydalanishi mumkin.

Brendga sodiqlik va marketing:

Sodiqlik dasturlari: Mobil ilovalar sodiqlik dasturlari va mukofot tizimlarini o'z ichiga olishi mumkin, bu takroriy biznesni rag'batlantiradi va mijozlarning sodiqligini oshiradi.

Marketing kampaniyalari: Ilovalar maqsadli marketing kampaniyalari, aksiyalar va eksklyuziv takliflarni amalga oshirish uchun platformani taqdim etadi. Foydalanuvchilar tahlili Bizneslar mobil ilovalar orqali foydalanuvchilarning xatti-harakatlari, afzalliklari va o'zaro ta'siri haqida qimmatli ma'lumotlarni to'plashi va ma'lumotlar asosida qarorlar qabul qilishlariga yordam berishi mumkin. Bozor



tadqiqotlari Ilovalardan bozor tadqiqotlarini o'tkazish va mijozlar tendentsiyalari haqida tushunchalar to'plash uchun vosita sifatida foydalanish mumkin.

Brend ko'rinishi: Yaxshi ishlab chiqilgan va funktsional mobil ilovaga ega bo'lish kompaniyaning obro'sini oshirishi va bozorda raqobatbardoshligini oshirishi mumkin. Moslashuvchanlik Mobil ilovalar keng tarqalgan sohalarda, ularning yo'qligi biznesni noqulay ahvolga solishi mumkin.

Muntazam yangilanishlar: Ilovalar muntazam ravishda yangi xususiyatlar, kontent va yaxshilanishlar bilan yangilanib turishi mumkin, bu esa foydalanuvchilarni biznes bilan shug'ullanishda davom etishga undaydi. Mijozlarni qo'llab-quvvatlash Mobil ilovalar mijozlarni qo'llab-quvvatlash uchun to'g'ridan-to'g'ri kanal bo'lib, tez yordam va muammolarni hal qilish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak mobil ilovalar bugungi kunda ko'plab korxonalar muvaffaqiyatida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ular mijozlar bilan muloqot qilish, foydalanuvchi tajribasini yaxshilash va biznes operatsiyalarini soddalashtirishning bevosita va moslashtirilgan usulini taklif qiladi. Mobil ilovalar biznesga ta'sir qilishi va foyda keltirishi mumkin bo'lgan bir necha usullar mavjudligi haqida yuqorida ta'kidlab o'tdik. Bu turdagi mobil ilovalar yordamida insoniyatning yashash tarzi yanada ossonlashib bormoqda, ovvoragarchiliklarning oldi olinmoqda. Mobil ilova mavjud ish orinlarini kamaytirib yuborgan bo'lsada, yangi yo'nalishdagi ish o'rinlarini yaratilishiga sabab ham bo'lmoqda. Shunday ekan innovatsiya va texnologiyalar zamonidan ortda qolmagan holda yashamog'imiz darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://www.google.com/search?q=mobil+ilovalar+va+biznes+annotachiya&sca_esv=596329513&ei=9mmaZeWBOeLKwPAP3J6SyAg&udm=&oq=mobil+ilovalar+va+biznes+annotachi&gs_lp=Egxnd3Mtd2l6LXNlcnAiIm1vYmIsIGlsb3ZhbGFyIHZhIGJpem5lcYBhbm5vdGFjaGkqAggBMgUQIRigATIFECEYoAEyBRAhGKABMgUQIRigAUipuAFQ7wdY35MBcAV4AJABAjgBrQOgAeUYqgEJMC45LjUuMC4xuAEDyAEA-AEBwgIKEAAYRxxjWBBiwA8ICCBAAAGIAEGKIEwgIHECEYChigAeIDBBgAIEGIBgGQBGM&sclient=gws-wiz-serp
2. https://www.google.com/search?q=mobil+ilovalar+va+biznes+rejalar&sca_esv=596329513&ei=TWuaZfCLGryHwPAPq72-yAg&udm=&oq=mobil+ilovalar+va+biznes+&gs_lp=Egxnd3Mtd2l6LXNlcnAiGW1vYmIsIGlsb3ZhbGFyIHZhIGJpem5lcYBhbm5vdGFjaGkqAggBMgUQIRigATIFECEYoAEyBRAhGKABMgUQIRigAUibEFAAWABwAHgBkAEAmAGzAqABswKqAQMzLTG4AQHIAQD4AQHiAwQYACBBiAYB&sclient=gws-wiz-serp
3. https://www.google.com/search?q=mobil+ilovalar+va+biznes+rejalar&sca_esv=596329513&ei=TWuaZfCLGryHwPAPq72-yAg&udm=&oq=mobil+ilovalar+va+biznes+&gs_lp=Egxnd3Mtd2l6LXNlcnAiGW1vYmIsIGlsb3ZhbGFyIHZhIGJpem5lcYBhbm5vdGFjaGkqAggBMgUQIRigATIFECEYoAEyBRAhGKABMgUQIRigAUibEFAAWABwAHgBkAEAmAGzAqABswKqAQMzLTG4AQHIAQD4AQHiAwQYACBBiAYB&sclient=gws-wiz-serp



SHAXSIY HUQUQ VA ERKINLIKLARNI TA'MINLASH VA UNING XALQARO DARAJADAGI PRINSIP VA NORMALARI

Juraev Asadbek

*Davlat boshqaruv huquqi ta'lim yo'nalishi
magistratura bosqichi talabasi*

Abstrakt: Ushbu maqolada inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashning O'zbekiston Respublikasidagi konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizmlari haqida so'z yuritiladi. Bunda asosan shaxsiy huquqlar masalasiga e'tibor qaratilgan. Rivojlangan Germaniya Federatsiyasida insonning shaxsiy huquqlarini ta'minlash maqsadida asosiy qonuniga kiritilgan moddalar va ularning O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi konstitutsiyasidagi shaxsiy huquq va erkinliklar haqidagi moddalari bilan solishtiriladi. Bundan tashqari, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalarida shaxsiy huquqlar va uni ta'minlashning xalqaro standartlari haqida fikrlar keltiriladi.

Kalit so'zlar: Insonning shaxsiy huquq va erkinliklari, tabiiy huquqlar, yashash huquqi, o'lim jazosi, shaxsiy daxlsizlik huquqi, advakatura faoliyati.

Kirish: 2023-yil 1-maydagi "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilindi. Ushu yangi tahrirdagi konstitutsiyada insonning shaxsiy erkinliklari va huquqlariga aloqador yangi bir qator normalar kiritildi. Quyida kiritilgan yangi normalar haqida yana ham batafsilroq tanishib chiqamiz.

O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi VII bob insonning shaxsiy huquqlariga bag'ishlangan bo'lib, unda inson va fuqarolarning shaxs sifatida rivojlanishi uchun zaruriy shaxsiy erkinliklar majmuasi berilgan. Shaxsiy huquqlar majmuasi inson huquqlari fanida bevosita tabiiy huquqlar bilan bog'liq bo'lgan tushunchalardan biri hisoblanadi. Shu sababli ham avvalo, qisqacha bo'lsa ham tabiiy huquqlar va ularning inson shaxsiy huquqlaridagi ahamiyati haqida so'z yuritsak. Tabiiy huquq - davlat va huquq nazariyasida insonning tabiatidan kelib chiqadigan va shu tufayli muayyan davlatda ularning qonuniy tan olinishi yoki olinmasligiga bog'liq bo'lmaydigan prinsiplar, qoidalar, huquq va qadriyatlar yig'indisini anglatuvchi tushuncha. Tabiiy huquq g'oyasi Yunoniston va qad. Rimda paydo bo'lib, Sokrat, Aristotel, Sitseron, Ulpian va boshqa Rim yuristlarining nomlari bilan bog'liqdir. O'rta asrlarda ilohiyshunos Foma Akvinskiy uni



rivojlantirdi. Biroq, bu g'oyalar mustaqil ilmiy maktab va tabiiyhuquqiy ta'limot sifatida 17—18-asr burjua inkiloblari arafasida shakllandi. Uning ko'zga ko'ringan namoyandalari: G. Grotsiy, T. Gobbs, J. Lokk, Volter, Sh.L. Monteskye, J.J. Russo, A. N. Radishchevlardir. O'zbek xalqining Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Amir Temur, Alisher Navoiy kabi ajdodlari ham huquqni tabiat yoxud Alloh tomonidan insonlarga berilgan imkoniyatlar majmui deb tushunganlar .¹

Bugungi kunda esa shaxsiy huquqlar muhim xalqaro va milliy huquqning ajralmas qismi sifatida qaraladi. Insonning baxtli va erkin hayot kechirishi uchun eng zaruriy huquqlar majmuni bo'lib xizmat qiladi.

Asosiy qism: Shaxsiy huquqlar o'z ichiga shubhasiz tabiiy huquqlarni oladi va bu tabiat yoki Xudo tomonidan barcha odamlarga berilgan huquqlardir, ular biron bir hukumat yoki shaxs tomonidan rad etilishi yoki cheklanishi mumkin emas. Tabiiy huquqlar ko'pincha odamlarga "tabiiy qonun" tomonidan beriladi deb aytiladi. Bu tabiiy huquqning muhim ajralmas qismi bu barcha uchun yashash huquqi hisoblanadi. Bu huquq barcha davrlarda barcha insonlar uchun istalgan hududda bo'lishidan qat'i nazar tabiiy hisoblanadi. Bu huquq albatta, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasida ham mustahkam belgilab qo'yilgan: Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinadi. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir. O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosi taqiqlanadi .²

Bu shuni anglatadiku O'zbekiston umum qabul qilingan inson huquqlari normalari va prinsiplariga yana bir bor sodiqligini anglatadi va konstitutsiyaviy mexanizmning inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash mexanizmi sifatida ko'riladi.

Yuqorida ko'rgan moddamizda o'lim jazosiga yo'l qoyilmasligi belgilab qo'yilgan. Va bu jarayon O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni orqali ham mustahkamlab qo'yilgan muhim inson va fuqarolar erkinliklarini ta'minlashdagi jihatlardan biri hisoblanadi. Ushbu maqsadda 2005-yil "O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida" ³prezident farmoni imzolanadi.

O'zbekiston Respublikasi sud-huquq tizimini yana ham isloh qilishdagi eng muhim qadamlardan biri bu shubhasiz, jinoyat, jinoyat-protsessual, jinoiy jazo tizimini bosqichma-bosqich liberallashtirish hisoblanadi. Bunda albatta, o'lim jazosini bekor qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Yashash huquqi barcha uchun

¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Tabiiy_huquq

² O'z.Res.Kons.25-modda

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 01.08.2005 yildagi PF-3641-son



berilgan eng oliy huquqlardan biri hisoblanib, uni konstitutsiya bilan mustahkamlab qo'yish demokratik, inson huquqlari va erkinliklari oliy darajada yo'lga qo'yilgan mexanizmning bir ko'rinishi desak ham adashmagan bo'lamiz.

Respublikamiz konstitutsiyasida 26-moddada quyidagilar o'z aksini topgan: Insonning sha'ni va qadr-qimmatini daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emas. Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emas. Hech kimda uning roziligisiz tibbiy va ilmiy tajribalar o'tkazilishi mumkin emas.⁴

Yuqorida aytib o'tganimizdek sud tizimini bosqichma-bosqich isloh qilish, liberallashtirish muhim hisoblanadi. Shu maqsadda ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"⁵ Farmonni imzoladi. Sud-huquq tizimini yanada demokratlashtirish va erkinlashtirish, sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari faoliyati samaradorligini oshirish, aholining odil sudlovga bo'lgan ishonchini oshirish, jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlash maqsadida ham ushbu farmon imzolangan hisoblanadi. Ushbu farmon asosida turli xil bir qator shaxsiy huquqlarni yana ham mustahkamlashdagi muhim o'zgarishlar va yangiliklar kiritildi sud-huquq tizimiga. Jumladan konstitutsiyada ham belgilanganidek sud hokimiyatining mustaqilligi, shuningdek, odil sudlov faoliyatiga aralashmaslik va buning uchun javobgarlikni yana ham mustahkamlash choralari ishlab chiqish belgilandi.

Inson huquqlarini ta'minlashda shaxsiy daxlsizlik huquqini alohida ta'kidlab o'tish lozim bo'ladi. Ushbu muhim jihat O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi 27-moddasida ham mustahkamlab qo'yilgan va shaxsiy daxlsizlik huquqi inson va fuqarolarning muhim ajralmas huquqi hisoblanadi. Ushbu moddada quyidagilar belgilab qo'yilgan: Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonung asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emas. Hibsga olishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko'ra yo'l qo'yiladi. Shaxs sudning qarorisiz qirq sakkiz soatdan ortiq muddat ushlab

⁴ O'z.Res.Kons.26-modda

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21.10.2016 yildagi PF-4850-son



turilishi mumkin emas. Shaxsni ushlash chogʻida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shart⁶.

Ushbu modda ayni paytda huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan inson va fuqarolar uchun qilinadigan muomila uslubini ham tartibga solishni taqozo qiladi. Moddada mustahkamlanganidek hibsga olish, qamoqqa olishga, qamoqda saqlashga faqat sudning qarori bilan yoʻl qoʻyiladi. Shaxslar esa qirq sakkiz soatdan koʻproq sudning qarorisiz ushlab turilishi mumkin emas. Bularning barchasi shaxslar uchun belgilab qoʻyilgan muhim erkinlik va huquq hisoblanadi. Insoning shaxsiy huquqlarini taʼminlashda ichki ishlar organlari muhim roʻl oʻynaydigan davlat instituti hisoblanadi. Ichki ishlar organlari toʻgʻrididagi qonun bilan tanishib chiqar ekanmiz, unda belgilangan ichki ishlar organlarning asosiy vazifalari bevosita inson huquqlari va erkinliklarini qonuniy taʼminlash uchun xizmat qilish hisoblanadi. Jumladan qonunning 2-moddasida quyidagilar mustahkamlab qoʻyilgan: Ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilishdan, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini taʼminlashdan, shuningdek huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasidan iborat⁷. Koʻrib turganimizdek ichki ishlar organlarining asosiy vazifalaridan biri bu vazifalari fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini himoya qilishdir.

Bundan tashqari har bir inson uchun ularning huquqiy ongini oshirishga boʻlgan harakatlar ham muhim ahamiyat kasb etuvchi omillardan biri hisoblanadi. Har bir shaxs erkin huquqiy maslahat olish imkoniyati bilan ham taʼminlanishi shaxsiy huquqning yana bir ajralmas boʻlagidan biri sanaladi. Shu maqsadda ham Adliya variligi qoshida huquqiy axbarot markazi va “Adolat” nashriyoti faoliyat olib bormoqda. Fuqarolarning huquqiy ongini yana ham mustahkamlash shuningdek, ularga huquqiy maslahat berishni davlat tomonidan yana ham rivojlantirish maqsadida bir qator samarali ishlar yoʻlga qoʻyilgan. Ular orasida eng muhim qadamlardan biri bu shubhasiz Oʻzbekiston Respublikasi prezidenti tomonidan imzolangan “Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar toʻgʻrisida”⁸gi prezident qarori muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda bir qator muhim jihatlar belgilab berildi:

- Huquqiy ijodkorlik sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

⁶ Oʻz.Res.Kons.27-modda

⁷ Oʻzbekiston Respublikasining Qonuni, 16.09.2016 yildagi OʻRQ-407-son

⁸ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 13.04.2018 yildagi PQ-3666-son



- Huquqiy axbarotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash;
- fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini huquqiy himoya qilish bo'yicha choralarni amalga oshirish;
- notariat, advokatura hamda jismoniy va yuridik shaxslarga huquqiy xizmat ko'rsatuvchi boshqa tuzilmalarning samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash;
- davlat xizmatlari ko'rsatish sohasida, shu jumladan tegishli axborot tizimlari, resurslar va ma'lumotlar bazalarini joriy etish bo'yicha davlat organlari va boshqa tashkilotlar faoliyatini nazorat qilish va samaradorligini baholash. Va boshqa ko'plab huquqiy maslahat olishga qaratilgan yo'nalishlar belgilab berildi.

Bunda shubhasiz konstitutsiya tomonidan belgillab qo'yilgan bandlar eng muhim bosqich hisoblandi. Jumladan O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi 29-moddasida har kim malakali yuridik yordam olish huquqiga ega ekanligi mustahkamlab qo'yilgan. Har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Bundan tashqari boshqa ko'plab jihatlar ham ushbu moddada belgilab qoyilgan jumladan: Qonunda nazarda tutilgan hollarda yuridik yordam davlat hisobidan ko'rsatiladi. Har bir shaxs jinoyat prosessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligi huquqi amalda cheklangan paytdan e'tiboran o'z tanloviga ko'ra advokat yordamidan foydalanish huquqiga ega.⁹ Ushbu band shaxsiy huquq va erkinliklarni ta'minlashdagi yana bir ulkan erkinlik hisoblandi. Advokatlik yordami har bir shaxs va fuqaro shaxsiy hayotining ajralmas qismi hisoblanadi va har bir shaxs bundan huquqdan foydalanish imkoniyati konstitutsiya tomonidan mustahkamlab qo'yilgani esa konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizmning yana bir ulkan yutug'i desak adashmagan bo'lamiz.

Bu sohani yana ham demokratlashtirish va zamon talablariga moslashtirish maqsadida "Advokatura to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni ham imzolangan. 29-modda quyidagi bandlar bilan davom etadi: Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi ayblovning mohiyati va asoslari to'g'risida xabardor qilinish, unga qarshi yoki uning foydasiga guvohlik berayotgan shaxslarning so'roq qilinishini talab etish, tarjimon yordamidan foydalanish huquqiga ega. Qonunni buzgan holda olingan dalillardan odil sudlovni amalga oshirish chog'ida foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Jinoyat uchun hukm qilingan har kim qonunda belgilangan tartibda hukmning yuqori turuvchi sud tomonidan qayta ko'rib chiqilishi huquqiga, shuningdek afv etish yoki jazoni yengillashtirish to'g'risida iltimos qilish huquqiga ega. Huquqbuzarliklardan jabrlanganlarning huquqlari qonun bilan

⁹ O'z.Res.Kons.29-modda



muhofaza qilinadi. Davlat jabrlanganlarga himoyalaniшни va odil sudlovdan foydalanishni ta'minlaydi, ¹⁰ularga yetkazilgan zararning o'zni qoplanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi. Sudning yana ham adolatli va qonunga asoslangan holatda faoliyat olib borishini ta'minlash maqsadida moddada belgilab qo'yilganidek sud hukmi ustidan hukmning yuqori turuvchi sudga qonunda belgilangan tartibda murojaat qilishi, shuningdek afv etish va sud tomonidan chiqarilgan jazo chorasini yengillashtirish bo'yicha iltimosnoma kiritish huquqi ham berilgan.

Bugungi zamon texnologiyalari juda ham ilg'or darajada rivojlangan bir davrda shaxslarga ta'luqli ma'lumotlarning xavfsizligi ham juda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Insonning o'z xohishiga qarshi bo'lgan yoki o'z istagidan tashqari bo'lgan informatsiyalarni tarqalib ketishi bugungi davr uchun juda ham katta muammoga aylanib ulgurgan desak adashmagan bo'lamiz. Bunday holatda esa shaxslarga aloqador bo'lgan ma'lumotlarni saqlash va ularning xavfsizligi masalasida kun tartibiga chiqadi. Bunda esa inson va fuqarolarning shaxsiy erkinliklari va huquqlarini kafolati juda ham muhim ahamiyat kasb etishni boshlaydi.

Kibermakondagi inson huquqlari nisbatan yangi va o'rganilmagan huquq sohasi hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson Huquqlari Kengashi fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 2-moddasi 2-bandida ushbu masala tilga olingan. So'z va ma'lumot erkinligi quyidagilarni o'z ichiga olishi belgilangan. Jumladan, ma'lumotlar, go'yalar va fikrlarni olish va yetkazish erkinligi, shuningdek internetga aloqador masalalarni ham qamrab oladi. O'zbekiston Respublikasi ham ushbu kibermakonda inson va fuqarolarning ommaviy axbarot vositalaridagi shaxsiy huquqlarini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi mazkur Xalqaro paktga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 31-avgustdagi 127-I-sonli "1966-yil 16-dekabrda fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga qo'shilish haqida" ¹¹gi qaroriga asosan qo'shilgan. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan va ushu konstitutsiya shaxsga ta'luqli ma'lumotlarning xavfsiz bo'lishi haqidagi masalani ham o'z ichiga olgani muhim ahamiyat kasb etadi. Konstitutsiyaning 30-moddasida quyidagilar belgilab qo'yilgan: Har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish, o'z sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega. Har kim yozishmalari, telefon orqali so'zlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlar sir saqlanishi huquqiga ega. Ushbu huquqning cheklanishiga faqat qonunga

¹⁰ O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 27.12.1996 yildagi 349-I-son

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qarori, 31.08.1995 yildagi 128-I-son



muvofig va sudning qaroriga asosan yo'l qo'yiladi. Har kim o'z shaxsiga doir ma'lumotlarning himoya qilinishi huquqiga, shuningdek noto'g'ri ma'lumotlarning tuzatilishini, o'zi to'g'risida qonunga xilof yo'l bilan to'plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo'lmay qolgan ma'lumotlarning yo'q qilinishini talab qilish huquqiga ega. Har kim uy-joy daxlsizligi huquqiga ega. Hech kim uy-joyga unda yashovchi shaxslarning xohishiga qarshi kirishi mumkin emas. Uy-joyga kirishga, shuningdek unda olib qo'yishni va ko'zdan kechirishni o'tkazishga faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda yo'l qo'yiladi. Uy-joyda tintuv o'tkazishga faqat qonunga muvofig va sudning qaroriga asosan yo'l qo'yiladi ¹².

Yuqorida ko'rib chiqqan O'zbekiston Respublikasi 31-moddasida belgilangan masalalar Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktda belgilangan masalalarnin ham o'z ichiga olishini ko'rishimiz mumkin. Jumladan quyidagi masalalarni ko'rishimiz mumkin:

- a) boshqalarning huquq va obro'sini hurmat qilish lozimligi;
- b) shaxslarga aloqador ommaviy axbarot vositalari orqali tarqaladigan xabarlar ham insonning shaxsiy huquqlariga daxil qilmasligi.

Ushbu paktning ba'zi moddalari bilan tanishib chiqqan holatda O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy mexanzmlarini qanchalar xalqaro standartlarga muvofig ekanligini yana ham chuqurroq anglab olishimiz mumkin. Ushbu paktning 9-moddasida quyidagilar belgilangan: Har bir inson erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim o'zboshimchalik bilan hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas. Hech kim qonunda belgilanganidan boshqacha asos va tartibda ozodlikdan mahrum etilishi mumkin emas. Ushbu badda belgilangan masalalar esa konstitutsiyaning 30-moddasi birinchi bandida quyidagicha aks ettirilgan: Hech kim rasmiy e'lon qilinmagan qonun asosida hukm qilinishi, jazoga tortilishi, mol-mulkidan yoki biron-bir huquqidan mahrum etilishi mumkin emas. ¹³

Amerika Qo'shma Shtatlari Oliy sudi (SCOTUS) - Qo'shma Shtatlar federal sud tizimidagi eng yuqori sud. U AQShdagi barcha federal sud ishlari bo'yicha va federal qonunlar bilan bog'liq bo'lgan shtat sudlari ishlari bo'yicha yakuniy apellyatsiya yurisdiksiyasiga ega. Shuningdek, u tor doiradagi ishlar bo'yicha dastlabki yurisdiksiyani ham amalga oshirish huquqiga ega sanaladi. Xususan, davlatning boshqa mamlakatlaridagi elchilari, davlat vazirlik idoralari va ularning konsullari, davlat ishtirok etadigan barcha turdagi shartnomalar va kelishuvlar ham shunlar

¹² O'z.Res.Kons.31-modda

¹³ Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risida, 1966-yil 16-dekabr, Nyu-York



jumlasidan hisoblanadi¹⁴. Oliy Sud sud nazorati vakolatiga ega. Konstitutsiya qoidalarini buzganlik uchun tegishli idoralar nizomlarini ham bekor qilish vakolatiga ega. Shuningdek, u Konstitutsiya yoki qonun hujjatlarini buzganlik uchun prezidentning ko'rsatmalarini bekor qilishga qodir. Biroq, u faqat yurisdiksiyaga ega bo'lgan huquq sohasidagi ish doirasida harakat qilishi mumkin. Sud siyosiy tusga ega bo'lgan ishlarni hal qilish vakolatiga ega.

Rivojlangan Germaniya va uning Federatsiya uchun asosiy qonuni va unda belgilangan shaxsiy huquqlar haqida so'z yuritish orqali yangi tahrordagi konstitutsiyaning shaxsiy huquqlar sohasidagi yutuqlarini yana ham aniqroq va chuqurroq anglab yetishimiz mumkin.

1. Federatsiya asosiy qonuning 1-moddasida quyidagicha belgilangan: Inson qadr-qimmati daxlsizdir. Hurmat qilish va himoya qilish bu barcha davlat hokimiyati organlarining burchidir¹⁵. Ushbu ayni mazmundagi inson huquqlar va erkinliklarini himoya qilish davlatning oliy maqsadi ekanligi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 54-moddasida "Insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatning oliy maqsadidir", deb belgilandi.

2. Germaniya oliy qonuni 2-moddasida "har bir inson yashash huquqiga ega ekanligi va uning shaxsi daxlsiz. Ularning huquqiy masalalariga faqat qonuniy aralashish mumkin", deb belgilangan. Respublikamiz konstitutsiyasi 25-moddasida "Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinadi. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir", deb belgilangan.

3. Davlat oldida barcha shaxslar tengdir. Erkak va ayollar teng huquqqa ega va davlat ular uchun teng huquqdagi qonunlarni amalga oshiradi va mavjuda kamchiliklarni bartaraf qiladi. Ushbu masala Germaniya konstitutsiya 2-moddasida belgilangan. Ayni shu mazmundagi bandlar esa "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi, unga qanday asoslarda ega bo'lganlikdan qat'i nazar, hamma uchun tengdir", deb konstitutsiyamizning 22-moddasida belgilangan.

Yuqorida kelgan malumotlardan shuni kichik xulosa qilib aytshimiz mumkinki, shaxsiy huquqlar inson hayotining muhim ajralmas huquqi bo'lib har bir inson uchun davlat tomonidan kafolatlanishi belgilab qo'yilgan va davlat uchun eng oliy maqsad esa o'z fuqarolari huquqlari va erkinliklarini qonuniy himoya qilish etib belgilab qo'yilgan. Shuni ham aytish lozimki, yangi tahrirdagi konstitutsiyada xalqaro huquqning umume'tirof etgan normalari va prinsiplariga muvofiq holatda

¹⁵ Basic Law for the Federal Republic of Germany (btg-bestellservice.de)



yangi normalarning kiritilishi inson huquqlari va erkinliklarining konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizmining muhim jihatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori
3. Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risida, 1966-yil 16-dekabr, Nyu-York
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qarori
5. Basic Law for the Federal Republic of Germany
6. Kessler, Robert (March 28, 2013). "Why Aren't Cameras Allowed at the Supreme Court Again?". The Atlantic. Retrieved March 24, 2017.
7. Johnson, Benny. "The 2016 Running of the Interns". Independent Journal Review. Retrieved March 24, 2017.
8. Pilkington, Caitlyn. "What Is The Running Of The Interns?". Women's Running. Retrieved March 24, 2017.
9. Stebner, Beth. "Running of the Interns: News assistants pictured making mad dash to deliver DOMA decision". Daily News. New York. Retrieved March 24, 2017.
10. Byers, Dylan. "CNN's GoPro antics rile Supreme Court". Politico. Retrieved March 24, 2017.
11. Le Conte, Marie (June 27, 2015). "The 'Running of the Interns' is the weirdest and funniest tradition you've never heard of". metro.co.uk. Retrieved March 24, 2017.
12. Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risida, 1966-yil 16-dekabr, Nyu-York
13. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qarori, 31.08.1995 yildagi 128-I-son

Internet manbaalari:

1. <https://www.abacademies.org>
2. <https://uk.usembassy.gov>
3. <https://www.theguardian.com>
4. <https://www.law.cornell.edu>
5. <https://us.cnn.com>
6. <https://www.supremecourt.gov>
7. <https://constitution.congress.gov>
8. <https://constitutioncenter.org>



DILMUROD QURONOV – O‘ZBEK TANQIDCHI OLIMI

Allaberganova Mohinur Quvvatbekovna

TerDU, O'zbek filologiyasi fakulteti, 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Dilmurod Quronovning hozirgi adabiy jarayondagi örne, faoliyati va maqolalari tahlili keltirib ötiladi va qarashlari jihatidan ochib beriladi

Kalit sózlar: Kompozitsiya, uslub, olim tili, tahlil, metodlar, struktura

İqtibos: Adabiyot – bir dengiz, uning tubidan so‘z durlarini terib chiquvchi g‘avvos – adib Yaratgan inoyatisiz bu dengizga sho‘ng‘ib bundagi so‘zlarni tizib o‘quvchi qalbiga bir marjon kabi joylay olmasligini his qiladi. Adabiyotshunos, adabiy tanqidchi uchun esa iste‘dod bilan birga ziyraklik, fahm, mantiqiy fikrlay olishdek muhim fazilat va ko‘nikmalar ham muhim.

Kirish

Dilmurod Quronov, O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrası professori, filologiya fanlari doktori. 1960-yilda O‘sh viloyatida tug‘ilgan. 1987-yilda Andijon Davlat tillar pedagogika institutini „Rus tili va adabiyoti, ona tili va adabiyoti o‘qituvchisi“ ixtisosi bo‘yicha imtiyozli tamomlagan. O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrası professori, filologiya fanlari doktori Quronov Dilmurod Haydaralievich izlanuvchan, yetuk olim, kamtarin shaxs, tajribali murabbiy sifatida universitetimizning o‘quv-tarbiyaviy, ilmiy, ijtimoiy va ma‘naviy hayotida faol ishtirok etuvchi ustozlardan biri sanaladi. Dilmurod Haydaralievich Quronov 1960 yil 27 oktabrda Qirg‘iziston Respublikasining O‘sh viloyati Toshko‘mir shahrida tug‘ilgan. 1978 yili Andijon tumani Hakan qishlog‘idagi 4-o‘rta maktabni tamomlagan. 1978 – 1979 yillarda qurilishda ishlagan, 1979 – 1981 yillarda harbiy xizmatni o‘tagach, 1982 – 1987 yillarda Andijon davlat tillar pedagogika institutida rus tili va adabiyoti, ona tili va adabiyoti yo‘nalishi bo‘yicha tahsil oldi. 1990 – 1992 yillarda ToshDU (O‘zMU) aspiranturasida tahsil olib, „Kecha va kunduz“ romanida xarakterlar psixologizmi“ mavzusidagi nomzodlik (1992), „Cho‘lpon poetikasi (nasriy asarlari misolida)“ mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini (1998) himoya qildi. Dilmurod Quronov ilmiy faoliyati davomida 100 dan ortiq ilmiy ishlarini chop ettirgan. Jumladan, u 2 ta darslik, 3 ta monografiya, 3 ta qo‘llanma, 1 ta lug‘at muallifidir. Respublika



matbuotida o'zbek adabiyotshunosligi masalalariga bag'ishlangan 80 dan ziyod ilmiy maqolalari chop etilgan.

Asosiy qism:

Uning adabiyotshunoslikdagi faoliyati tahlilini keltirib o'tadigan bōlsak adabiyotshunoslikka kōplab hissasi bor. Shu jumladan, Ustoz ko'p yillardan buyon Abdulhamid Cho'lpon asarlarini nashrga tayyorlab chop etish ishlarida faol qatnashib kelmoqda. Jumladan, Cho'lpon 3 jildlik asarlari to'plamining 2-jildini nashrga tayyorlab, uni izohlar bilan ta'minladi (Toshkent, "Adabiyot va san'at", 1994). "Adabiyot nadir" to'plamini nashrga tayyorlashda qatnashdi (Toshkent, "Yozuvchi", 1994). 4 jildlik Cho'lpon asarlarini nashrga tayyorlash va chop ettirish bo'yicha guruhga rahbarlik qildi hamda ushbu jildlikning 2-jildini nashrga tayyorlab, izohlar bilan ta'minladi (Toshkent, "Akademnashr", 2016). 1997 yili Andijon viloyati Cho'lpon Jamg'armasi tashkil qilingandan buyon jamg'armaning bosh mutaxassisi vazifasida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. 1998 – 2000 yillarda "Cho'lpon hayoti va adabiy merosi" amaliy tadqiqoti hamda 2000 – 2002 yillarda "O'zbek adabiyotida tarixiy badiiy tafakkur tadriji" loyihasi uning ilmiy rahbarligida bajarildi. 2011 yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qoshidagi Nodavlat notijorat tashkilotlarni qo'llab-quvvatlash Jamoat Fondi tomonidan e'lon qilingan Grant tanlovida "Cho'lpon, biz seni unutmaymiz!" loyihasi bilan qatnashib, g'olib bo'ldi, sertifikat hamda Cho'lpon jamg'armasi fondiga 15000000 (o'n besh million) so'm pul mablag'i olishga erishdi. 2017 – 2018 yillarda "OT-A-46. Adabiyotshunoslikning nazariy kurslari bo'yicha o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish" davlat amaliy-tadqiqot dasturlari doirasidagi loyihaga ilmiy rahbarlik qildi. D. Quronov sa'y-harakatlari bilan 2018 yildan boshlab "Andijon ijodkorlari merosidan" nomli seriyada andijonlik ijodkorlarning asarlari chop etilishi yo'lga qo'yilgan va uning umumiy tahriri ostida seriyaning beshta kitobi chop etildi.

D. Quronov o'zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalariga bag'ishlangan ilmiy-nazariy asarlari bilan o'zbek adabiyotshunosligi rivojiga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Bu borada olimning "Ruhiy dunyo tahlili" (1995), "Cho'lpon: hayoti va ijodiy merosi" (1997), "Istiqlol dardi" (2000), "Cho'lpon nasri poetikasi" (2004), "Adabiy jarayonda "Mom sindromi" (2010), "Mutolaa va idrok mashqlari" (2013), "Zavqimdan bir shingil" (2013), "Talqin imkonlari" (2015), "Adabiy o'ylar" (2016), "Nazariy qaydlar" (2018), "Adabiyot va b. haqida" (2019) nomli kitoblari chop etilgan. D. Quronov zukko adabiyotshunos bo'lish bilan birga mohir tarjimon xamdir. B. Rahmonov bilan hammualliflikda yaratilgan "G'arb adabiy- tanqidiy tafakkuri tarixi ocherklari" qo'llanma-xrestomatiyasidagi Isokrat, Mixail Psell,



Yu.S.Skaliger, Antonio Minturno, Lodoviko Kastelvetto, Torkvatto Tasso, Filipp Sidni, Ben Jonson kabi olimlarning asarlari D.Quronov tarjimasida berilgan. Shuningdek, uning tarjimasidagi Ezop masallari “Cho‘lpon”, “Zarqalam”, “Akademnashr” nashriyotlarida alohida kitob holida uch qayta chop etilgan. 2000-2009-yillarda Andijon davlat universiteti filologiya fakulteti dekani lavozimida ishlagan Dilmurod Quronov o‘quv-tarbiya jarayonlarini boshqarish bilan birga, iste’dodli, izlanuvchan kadrlar hisobiga fakultet ilmiy salohiyati ortishiga ham munosib hissa qo‘shdi. 2002 yilda uning “Adabiyotshunoslikka kirish” darsligi, 2018 yilda “Adabiyot nazariyasi asoslari” darsligi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tavsiyasiga ko‘ra Oliy o‘quv yurtlari o‘zbek filologiyasi ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun darslik sifatida chop etilgan. Hozirda respublikamiz oliy o‘quv yurtlarida o‘zbek filologiyasi ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun asosiy o‘quv adabiyoti sifatida mazkur darsliklardan foydalanib kelinmoqda. Dilmurod Quronov 2010 yilda shogirdlari Z.Mamajonov va M.Sheralieva bilan hammualliflikda “Adabiyotshunoslik lug‘ati”ni yaratgan va lug‘at uning umumiy tahriri ostida chop etilgan. Mazkur lug‘at mutaxassislar tomonidan muhim va zarur qo‘llanma sifatida e’tirof etilgan (“Jahon adabiyoti” jurnali, 2010, 8-son). Lug‘at 2013 yilda qayta nashr etildi. Hozirda adabiyotshunoslik sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning aksariyatida mazkur lug‘atdan foydalanilmoqda. Dilmurod Quronovning o‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalariga bag‘ishlangan “Ruhiy dunyo tahlili”, “Cho‘lpon: hayoti va ijodiy merosi”, “Istiqlol dardi. Cho‘lponning ijtimoiy-siyosiy qarashlari tadriji”, “Cho‘lpon nasri poetikasi”, “Adabiyotshunoslikka kirish”, “G‘arb adabiy tanqidiy tafakkuri tarixi ocherklari”, “Adabiyotshunoslik lug‘ati”, “Adabiy jarayonda “Mom sindromi”, “Mutolaa va idrok mashqlari”, “Zavqimdan bir shingil”, “Talqin imkonlari”, “Adabiy o‘ylar”, “Nazariy qaydlar”, “Adabiyot va b. haqida” nomli kitoblari chop etilgan. 2018-yilda “Adabiyot nazariyasi asoslari” nomli darsligi chop etilgan, mazkur darslik Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan oliy o‘quv yurtlari filologiyafakultetlarida foydalanish uchun tavsiya etilgan. Shuningdek, D.Quronov tarjimasidagi Ezop masallari alohida kitob holida uch qayta chop etilgan. Olim ijodida uslub masalasi alohida o‘rinda turadi, Uslub masalasi fanning barcha sohalariga taalluqli bo‘lib, bugungi vaqtda jahon ilm-fanida turli nuqtai nazardan o‘rganilmoqda. Ilmiy bilish uslubi, ilmiy tafakkur uslubi singari tushunchalar falsafa, adabiyot, san‘at, jamiyatshunoslik, tabiiy fanlar, tilshunoslikka doir tadqiqotlarda tez-tez tilga olinmoqda. Bu kabi yo‘nalishlarda uslub tushunchasining umumiy holatda qo‘llanilishi uning eng muhim xususiyatlaridan biri ilmiy tafakkur qilish qobiliyati bilan izohlanadi. Uslub - ijodkorning boshqalardan



ajratib turuvchi bir qator jihatlarining yig'indisi sifatida yuzaga chiqib, uning shaxsiyatini aks ettiruvchi g'oyaviy-estetik xususiyatlar umumlashmasidir. Adabiyotshunos uslubini tahlil etish jarayonida uslubni namoyon etuvchi unsurlarga diqqatni qaratish lozim. Olim tili uslubni eng yorqin namoyon etuvchi unsurlardan biridir. Har bir olim ijodida so'z va ifodalar o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Ijodkor tafakkuri va ilmiy dunyoqarashidan kelib chiqqan holda yangi-yangi ma'no qirralarini kasb etadi. Bu borada har bir adabiyotshunos yoxud munaqqid o'z dastxatiga ega bo'lmog'i lozim. Dilmurod Quronov ham adabiyotshunosligimiz va adabiy tanqid sohalarida o'z dastxatiga ega ijodkorlardan. Uning "Bezavol haqiqatlar" maqolasida Yusufbek hoji haqidagi mushohadalari boshqa munaqqidlar tahlilidan tubdan farq qiladi. Badiiy obrazning harakat mantig'iga ko'ra harakatlanish xususiyatidan kelib chiqib, tahlilga neytral pozitsiyadan yondashadi. Tanqidchi badiiy matn tahlili jarayonida ob'ektga olingan asar bahonasida inson va jamiyat, ijtimoiy hayot, shuningdek, o'zaro munosabatlar borasida ham o'z qarashlarini bayon etadi, ularning ma'lum bir qonuniyatlarini yoritishga intiladi. Ushbu jarayonda munaqqidning ilmiy va badiiy tafakkuri bir-birini to'ldiradi, birlashadi. Mazkur jarayon munaqqid tilining o'ziga xosligini yuzaga keltiradi. Ifoda usulida ilmiy til va badiiy til sinkretiklashadi. Bu esa tanqidchining individual uslubi shakllanishida asos bo'ladi. D. Quronov ijodida ilmiy va badiiy tafakkurning qorishilqligini, ayrim maqolalarda sof ilmiy tildan foydalanilgan bo'lsa, ayrimlarida badiiy tilning jozibasini ko'rish mumkin. Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, D. Quronovning til mahoratini uning uslubini belgilovchi komponentlardan biri sifatida ta'kidlash o'rinlidir. Munaqqid asarlarining kompozisiya va tili o'zaro bog'liqlikda uslub unsuri sifatida olim individualligini belgilashda ishtirok etadi. Kompozisiya va til har bir asarning mazmuni va mohiyatini ochib berishda o'z vazifasini bajaradi. Tanqidchi kompozisiya unsurlariga murojaat qilmasdan, fikrlarni bir-biriga bog'lay va ilmiy asoslay olmaydi, matn ta'sir doirasini kengaytirolmaydi, mulohazalarini zanjirdek bir ipga tizolmaydi, qisqasi, ilmiy-tanqidiy asar qaddini tiklolmaydi. Olim ob'ekt qilib olgan asarning mazmuniga muvofiq unsurlardan matn mohiyatini yanada aniqroq ifodalashga xizmat qiladigan eng muvofiqlarini tanlab oladi. Predmetlarni, unsurlarni tanlab olish jarayonida olim tasavvurida shu mohiyatni yorqin ifodalaydigan so'zlar paydo bo'ladi. Demak, tanqidchi o'zining bayon qilishi va tasvirlashi davomida shu unsurlarni, predmetlarni u yoki bu darajada muvofiqroq joylashtirib, o'zi murojaat qilgan manbalardagi fikrlarni ham bayon qilishga ma'lum darajada joy ajratib, "voqealarni tartib bilan,



mantiqan tartiblashtirib, qismlarni, epizodlarni joy-joyiga qo'yib sintaktik-intonasion tomondan tartiblashtirib, asarning so'z qurilishini shakllantiradi".

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, munaqqid uslubini belgilashda olim tili va tahlil metodlaridan foydalanish mahorati muhim ahamiyatga ega. Zero, badiiy asarning qay darajada mukammal chiqishi ijodkor poetik tili bilan bog'liqligi singari, tahlil va talqinning sifat darajasi ham munaqqid tiliga bog'liqdir. Olim o'z faoliyatida ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash ishiga ham alohida e'tibor bermoqda. Hozirga qadar uning rahbarligida 1 nafar fan nomzodi, 4 nafar falsafa doktori va 1 nafar fan doktori tayyorlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мақолалар – Дилмурод Қуроноф
2. Sa'dullo Quronov. "Alisher Navoiy" romanida tarixiy shaxs konsepsiyasi
3. <https://quronov.uz/sadullo-quronov-ifoda-va-ifodaviylik/>
4. Тақризлар – Дилмурод Қуроноф



XORIJIY TILLARNI O'RGANISHDA QO'LLANILADIGAN KOMMUNIKATIV METODLAR VA DUCH KELINADIGAN QIYINCHILIKLAR

Fazliddinova Jasmina

otaboyeva_a@nuu.uz

Annotatsiya. Ingliz tilini bilish chet tillarini o'rganuvchilar, shuningdek, ona tilida so'zlashuvchilarning so'z boyligi bilan belgilanadi. O'z so'z boyligini kengaytirish muhim bo'lsa-da, bu turli qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, ayniqsa ingliz tili bo'lmagan o'quvchilar uchun. Lug'at boyligi past bo'lgan o'quvchilar maktab darajasida til ko'nikmalari, tilshunoslik, adabiyot va tarjima bilan bog'liq bo'lgan bir nechta kurslarda yetarlicha qoniqarli akademik natijalarga erisholmaydilar. Ushbu maqola, xususan, ingliz tilini o'rganishda duch keladigan muammolarni o'rganishga qaratilgan va potentsial muammolarni minimallashtirish uchun ba'zi lug'at o'rganish strategiyalarini ilgari suradi.

Kirish. Yigirmanchi asr oxirlariga kelib, ingliz tili jahon ahamiyatiga ega til maqomi nihoyatda mustahkamlandi. Bugungi kunda xorijiy tillarni bilish ko'nikmasi professional ta'limning ajralmas qismlaridan biri o'lib bormoqda. Turli sohadagi mutaxassislar chet ellik hamkorlar bilan hamkorlik qilib ko'rsatkichi yuqori bo'lganligi sababli, ulardan til o'rganishga bo'lgan talab yuqoridir. Zamonaviy jamiyatda chet tillari kasbiy ta'limning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Bunday bilimlarni insonlar dastlab maktab, kolej, litsey keyinchalik insitutlarda, o'quv kurlarida yoki mustaqil ravishda xorijiy tilni o'rganishga yordam beruvchi asosiy ma'lumot to'plagan holda o'rganadilar.

Til asosiy aloqa vositasidir, usiz inson jamiyatning borligi va rivojlanishini tassavur qilish qiyin. Bugungi kunda bizning dunyomizda iltimoiy munosabatlarda katta o'zgarishlar bo'layotgan bir pallada aloqa axbarot vositalari o'quvchilarning kommunikativ malakasini oshirishni talab qiladi. Ular muloqotning boshqa ishtirokchilar bilan o'zaro muloqot qilish jarayonida turli vaziyatlarda fikrlarini almashishi, til va so'zlashuv normalarini to'g'ri ishlatishni taqazo etadi. Bunday sharoitda, xorijiy tilning asosiy maqsadi kommunikativ qobiliyatni shakllantirishdir, ya'ni chrt tilida shaxslararo madaniyatlararo muloqotni amalga oshirishni talab etiladi.

Yigirmanchi asrning oxirlariga kelib, ingliz tilida jahon ahamiyatiga ega til maqomi nihoyatda mustahkamlashadi.



Dunyoning aksariyat maktablarida uni o'rganish majburiy bo'lib qoldi va o'qitish metodikasi sakrash va chegaralar bilan rivojlana boshladi. Ingliz tilini mustaqil o'rganishning birinchi usuli paydo bo'lishiga sabab bo'lgan kurslarga borish hammaning ham imkoniyatiga ega emas. Keyinchalik, ko'plab mualliflar ingliz tilini o'rganishning samarali dasturini mustaqil ravishda yaratishga harakat qilishdi.

Hozir juda mashhur bo'lib, ko'plab yoshlarimizga ingliz tilini o'rgatadiga booknomy kitobi haqida gaprsak. Booknomy kitoblari Amerika ta'lim texnologiyasi asosida yaratilgan bo'lib ingliz, rus, koreys, arab yoki turk tillarini grammatika va so'z yodlashlarsiz, shunchaki eshitish hamda kitobdan kuzatib borish orqali, atigi 6 oyda o'rganib, erkin gapirish imkonini beradi. Metodikaga 2016 yilda asos solingan. 2017 yilda Andijon shahrida joylashgan "GOOD CLUB" innovatsion til maktabida 374 nafar o'quvchilarda sinovdan o'tkazilgan. Natijaga ko'ra, barcha o'quvchilar o'rgangan tillarida erkin gapira olganlar va Booknomy kompaniyasi ushbu metodni ommaga taqdim etib, 2021 yilga qadar 50 000 mingdan ziyod o'quvchilarga tillarda erkin gapirishlariga yordam bergan. Ushbu kitob qanday qilib 6 oyda tillarni o'rgatishi, nega ishonch bilan til o'rganish istagida bo'lgan barchaga tanlagan tillarida erkin gapirishlariga 100% kafolat berayotgani haqidagi ma'lumotlar oshkor qilindi. Unga ko'ra, Booknomy kompaniyasi 2021 yil avlod kitoblari uchun maxsus mobil ilova yaratgan. Hamda 2021 yil avlod kitoblari Amerika, Turkiya va Misr Arab davlatlari tilshunoslari tomonidan qayta tahrirlanib, unga haqiqiy inglizlar, turklar va arablar ovoz bergan. Bundan tashqari, kitobga bir qancha o'zgarishlar, qo'shimchalar kiritilgan va 6 oylik darslar Booknomy mobil ilovasiga joylangan, bundan tashqari uyda turgan xolda, booknomy kitobini buyurma qilib, 24 soat ichida bu kitob qo'limizda yetib keladi.

Xulosa. Xulosa qilib, aytganda yuqori darajali umumiy-kasbiy madaniyatga, ijtimoiy faolikka, mustaqil fikrlashga, o'z vazifalarini qiyinchiliklarsiz hal qila olish qobiliyatiga ega bo'lgan, yetuk mutaxassislarni tarbiyalash uchun bugungi kunda o'qituvchilarimiz zamonaviy yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishlari ta'lim tarbiyaning sifat va samaradorligini oshirishning asosiy omili ekanligini, buni esa davr talab etayotganligini tushunib yetishimiz lozim.



NEW REFORMS IN UZBEKISTAN

Yusupova Shukrona
otaboyeva_a@nuu.uz

Today, Uzbekistan is the most beautiful and unique country for all of us dear mother is our Motherland. The world of practical and rapid development in Uzbekistan is being recognized by the community. It was a land of noble renewal Uzbekistan is a source of pride for all young people. Now It is traveling over Uzbekistan. This is the fun of tomorrow He works with enthusiasm and enthusiasm. Action strategy well-known scientists of the world recognized today the significant changes that are being implemented, They say that even the experts who share their full views have a doubtful perspective is evaluating. In the first year of his presidency, the head of the republic is different sought to make the state more open to predictions and the result is manifested in our daily life.

In fact, there are People's reception centers operating in all regions started talking openly about their problems. British author According to Shavkat Mirziyoyev, there is a lot for young people in the reforms the creation of jobs also plays a decisive role.

One of the words that is often expressed in Uzbekistan is "liberalization". The president says "Get rich!" Entering into the people's banks and providing loans tasked, so that people build greenhouses in their yards and earn let them multiply. Even helping farmers to create a business plan Departments with specialists were established. At the same time, in our country in 2017-2021, the Republic of Uzbekistan defining five priority areas of development in the Action Strategy assigned tasks are carried out consistently. This software document paved the way for the transition of our country to a completely new stage of development. According to experts, the adoption of the Action Strategy is important for Uzbekistan was a step and created the necessary solid foundation. Pragmatic and effective communication: Modern information and communication technologies gave a new spirit to state and society relations. Industry development new relations between the state and society, state bodies and citizens forms are being put into practice. In this sense, Uzbekistan The virtual lobby of the President of the Republic is state power and administration indicator of the effectiveness of the bodies, the depth of local problems is gaining importance as an analysis and solution mechanism. The virtual lobby addresses issues that concern the population for a short period of time has become an effective solution. This is also the statistics of appeals confirms. That is, until today, more than one million appeals have been received from citizens and 94 percent of them were considered. Thus, state bodies and the principle of responsibility of officials to the society is realized in practice is being released. Citizens to the reforms implemented in the country the sense of belonging has



increased. This is the relationship between the state and the people it is important in the strengthening of trust, stability and development of society serves as a factor. The most important thing is that experts are in the way of thinking and worldview of the population they note that positive changes are taking place. For them, this is society is a decisive factor in the realization of the tasks ahead.

It is known that the development of any society depends on human capital, i.e. intellectual capital potential, health, education, labor productivity, high quality of life. In today's modern world, this factor is the main creative economy is a locomotive. According to the UN study, the results of Uzbekistan in 2016 ranked among the countries with a high level of human development. Today, the development of entrepreneurship in Uzbekistan is consistent and economic became the driving force of development. According to the results of 2016, it is small the share of business in the gross domestic product is 56.9, in industry 38.9, retail trade

87.1% in turnover, 50.8% in paid services. This is the economy 77.9% of the working population is employed in the sector. In general, the economy, politics and all spheres of Uzbekistan today a new method, a new factor, new changes are observed in the directions. Today, Uzbekistan is creating a belt of prosperity around itself, of society's life by widely applying modern approaches and methods to all aspects is rapidly mobilizing the creative potential. This is the country's economy that the development is evaluated from the point of view of increasing the well-being of our people

is noteworthy. Such an approach, without a doubt, is at its peak in the near future gives results. After all, a great country will have a powerful leader. Our new Uzbekistan for that, we need to be strong.

REFERENCES

1. Sh.M.Mirziyoyev “Birgalikda biz erkin va gullab-yashnagan O'zbekistonning demokratik davlatini barpo etamiz” T.: O'zbekiston 2016 y.
2. “Yangi O'zbekiston” gazetasi, 21.03.2021 y. “O'zbekiston mahalla tizimi xodimlari va faollariga”
3. “Yangi O'zbekiston” gazetasi, 24.08.2021 y. “Yoshlarga oid davlat siyosati”
4. B.Sobirov “Бугуни кечагисидан яхшироқ, бахтлироқ, саодатлироқ бўлиш истаги инсонда келажакка умид, ишонч ҳиссини уйғотади.”
5. O.O.Olimjonov “Yangi O'zbekistonning yangi imkoniyatlari”



DEVELOPMENT OF TEACHING METHODS IN PRIMARY CLASS STUDENTS

Qodirova Xolidaxon Ulugbek kizi

Fergana State University

*Faculty of English Language and Literature senior teacher of
the Department of English Language Teaching Methodology*

Muhammadrifiqova Gulbahor Abrorjan kizi

Fergana State University

4th year student of the Faculty of English Language and Literature

gulgulbahor5@gmail.com

+998 90.953.25.03

Annotation: This article will give you some tips on how to engage students in elementary school and how to work with new students. It also provides a variety of methods needed by teachers.

Key words: pedagogical methods, interactive methods, various games, activities, new students, work in small groups, modern lesson form, assessment

Anotatsiya: Ushbu maqola bizga boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni darsga qiziqтира olish va yangi maktabga kelgan o'quvchilar bilan qanday ishlash haqida ko'rsatmalarni berib boradi. Yana shuningdek o'qituvchilar orasida kerak bo'ladigan turli usuldagi metodlar bilan ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: pedagogik usullar, interfaol metodlar, turli o'yinlar, tadbirlar, yangi o'quvchilar, kichik guruhlarda ishlash, zamonaviy dars shakli, baholash.

РАЗРАБОТКА МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация: В этой статье вы найдете несколько советов о том, как заинтересовать учащихся начальной школы и как работать с новыми учениками. Он также предоставляет различные методы, необходимые учителям.

The entry of elementary school students into the first grade is the most important issue for both teachers and parents. At this time, children begin to form an ideology about school. A child may be afraid of school and may not want to study. Because they grew up only in a free and pampered environment. It is very difficult for them



to adjust to a different environment, especially for their teacher. In such a situation, we will list what methods and solutions the teacher can find in the problems with various children.

Especially nowadays, children are very involved in social networks and games. Teaching children of this period is very difficult. Nowadays, it is easy to find television, computer and other necessary materials in classrooms. Because today's children are developing their minds with social networks. A teacher can engage children in the lesson by playing video clips and music games. Basically, the lesson depends on the teacher. The teacher's voice is an important tool in teaching. There are different ways to teach students, but the best way is to speak to them beautifully, especially elementary school students are very afraid of school. Such students can be enchanted by the teacher by speaking well to him.

Some students don't want to come to class, they can't sit quietly in class, they get up a lot, they don't understand the class at all. In these cases, great patience and perseverance are required from the teacher. These problems require special attention for each student. There are many games, especially for children. In primary classes, there are various games in mother tongue, reading, English. For example, "Tell me the last word"

Games like "Who knows this word", "Step and step" develop students' interest in the lesson.

Any teacher wants students to master the lesson well, especially explaining the lesson to elementary school students is very difficult. Such a responsible profession is unique to teachers. Patience and perseverance are strong in teachers. The entry of elementary school students into the first grade is the most important issue for both teachers and parents. At this time, children begin to form an ideology about school. A child may be afraid of school and may not want to study. Because they grew up only in a free and pampered environment. It is very difficult for them to adjust to a different environment, especially for their teacher. In such a situation, we will list what methods and solutions the teacher can find in the problems with various children.

Especially nowadays, children are very involved in social networks and games. Teaching children of this period is very difficult. Nowadays, it is easy to find television, computer and other necessary materials in classrooms. Because today's children are developing their minds with social networks. A teacher can engage children in the lesson by playing video clips and music games. Basically, the lesson depends on the teacher. The teacher's voice is an important tool in teaching. There



are different ways to teach students, but the best way is to speak to them beautifully, especially elementary school students are very afraid of school. Such students can be enchanted by the teacher by speaking well to him.

Some students don't want to come to class, they can't sit quietly in class, they get up a lot, they don't understand the class at all. In these cases, great patience and perseverance are required from the teacher. These problems require special attention for each student. There are many games, especially for children. In primary classes, there are various games in mother tongue, reading, English. For example, "Tell me the last word"

Games like "Who knows this word", "Step and step" develop students' interest in the lesson.

Any teacher wants students to master the lesson well, especially explaining the lesson to elementary school students is very difficult. Such a responsible profession is unique to teachers. Patience and perseverance are strong in teachers.

BOOKS

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated September 5, 2018 "On improving the concept of public education of the Republic of Kazakhstan 2030 - development".

2. Tolipov UK, Sharipov Sh.S. Pedagogical foundations of student personal creativity development. -T. , Science, 2012.

3. Yoldashev J. G., Usmanov SA Implementation of modern pedagogical technologies. Decision No. 132 on measures to further develop effective one-year production of internal education

4. BXXodzhayev. "The theory and practice of general pedagogy." "Pedagogical technology and pedagogical skill". Tashkent. "ECONOMY-FINANCE" 2009. Page 106.



XOLIYOR SAFAR HIKOYALARIDA AYOL OBRAZI

Ag'ajonova Soliyajon

UrDU O'zbek adabiyotshunosligi

1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada xoliyor Safarning hikoyalari tahlilga tortiladi. “Sut sotuvchi”, “Gung momo” hikoyalari tahlilida milliy o‘zligimiz, qadriyatlarimiz ayol obrazi misolida ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: ayol obrazi, milliylik, tasvir uslubi

Bugun hikoyalarida o‘zgacha tasvir va ifoda yo‘sini bilan sermahsul ijod qilayotgan ijodkorlardan biri Xoliyor Safardir. Ijodkor hikoyalaridagi har bir qahramon hayotimizda mavjud insonlar timsolida gavdalanadi. O‘tkir Hoshimov yosh qalamkash yaratgan qahramonlarga “ular o‘quvchining esida qoladi, sizning o‘z qadrdoningizga aylanadi” deya yuksak baho beradi. Hikoyalar zamirida insonni o‘yga toldiradigan, yaxshilikka undaydigan, sabr bardosh bilan qiyinchiliklarni yengib o‘tishga intilgan qahramonlar kitobxonni o‘ziga maftun qiladi. Soddalik, hikoyalarda qo‘llanilgan maqollar, tasvir uslubi sabab ijodkor hikoyalari o‘quvchilar qalbini larzaga keltiradi. Hikoyalarning deyarli barchasida ota-ona timsoli ijodkorning sadoqat, mehr-muhabbat tuyg‘ularini, chin insoniy fazilatlarni tarannum qilishga asos bo‘ladi.

“Insonshunoslik bo‘lmish adabiyot birinchi navbatda ayolshunoslik, ya’ni ayolni o‘rganish, inkishof etish ilmidir. Kuzatsak, eng qadimgi asarlar ham ayolga bag‘ishlangan, ular konfliktini ayol va unga aloqador narsalar tashkil etadi. Hatto aytish mumkinki, adabiyot taraqqiyoti ayol mavzuining badiiy tadqiqi, uning teranlasha borishi bilan chambarchas bog‘liq” ekanligini hamma davrlar uchun muhim bo‘lgan xususiyatlardandir.

Ayol obraziga murojaat qilish orqali milliy o‘zlikni anglashga harakat qilinadi. Xoliyor Safar hikoyalarida ayol obrazi sabr-matонат, kuchli irodani o‘zida mujassam etgan ona siymosida o‘rin oladi. “Sut sotuvchi” hikoyasi zamirida bir emas ikki ayolning hayoti davomida ko‘rayotgan azoblari taqqoslanadi. Ularning hayotda ko‘rayotgan azoblari biri biridan kam ham ortiq ham emas. Hikoya sut sotuvchi Mehri xolaning ko‘p qavatli uylarda hukm surayotgan jimlikni “Sut keldi” deya solayotgan shovqini buzishi bilan boshlanadi. Mehri xola yosh bolalar sut olishga kelsa ulardan pul olmaydi. Buning sababini so‘rab qolishsa ko‘nglim



bo'shligidan deya javob berib qo'ya qoladi. Ammo bu ko'ngli bo'shlik zamirida Mehri xolaning ko'nglida yotgan dard-alamlar yotadi. Shu dardlarni aritish uchun yosh bolalarni ko'rganda o'ziga taskin topganday bo'ladi. Laylo qo'lida yosh bolasini odyalga o'rab sut olishga chiqqanida Mehri xola unga onalarcha mehribonlik ko'rsatib keyingi safar kelganida sutni o'zi uyiga olib chiqib berishgacha rozi bo'ladi. Bu rozilik zamirida o'zbek ayollariga xos hislat bolajonlik, mehr-oqibat, o'zgalarga yordam qo'lini beminnat cho'zish, insonparvarlik tuyg'ularini ko'ramiz. Laylo sutga o'g'li Jamshid kelishini aytadi. Jamshid 4-5 yoshlar atrofida. Jamshid nosog'lom ekanligini yuz ko'zlari ifoda qilardi. Mehri xola sut sotishga ikki uch marotaba kelganida Jamshiddan darak bo'lmaydi. Laylodan xabar olishga chiqqan Mehri xola Jamshidning vafot etganini eshitib chuqur qayg'uga botad. Atrofga beparvo munosabatda bo'lmaslik, insonlar holidan xabar olish o'zbek xalqi qon-qoniga singib ketgan odatlardan biri ekanligi Mehri xola qiyofasida namoyon qilinadi.

Mehri xola Layloning eri giyohvand, ayni paytda qamoqda ekanligi, Jamshid nuqson bilan tug'ulgani, beshikda yotgan jigarbandi oyoqlari gipsda ekanligini aytib kuyunganda hali yaxshi kunlar oldinda deya umid berishga intiladi. O'zining befarzand ekanligini, asrab olgan farzandi ham bugun farzandsizlik dog'ida qiynalayotgani, farzandini davolatish uchun sut sotayotganini aytib kuyinadi. Mehri xola Layloni nolimaslikka, kimlar orzu qilayotgan narsalar unda borligiga shukrona aytishga da'vat qiladi. Mehri xola sut sotuvchi ayol emas hikoyada Layloning ko'zlarini ochuvchi ayol edi aslida. Darhaqiqat, Mehri xola oilasiga sadoqat, mehr-oqibatni har narsadan ustun qo'ygan, farzandlari uchun borini berishga, qarib qolgan bo'lsa ham farzandlari uchun qayg'urishdan charchamagan, nevara ko'rish, nevaralarni erkalatish baxtiga erishish uchun yashayotgan o'zbek ayoli. O'zbek ayolining farzandi uchun har narsaga tayyor ekanligi, ibrat olish, shukrona qilishga undaydigan fazilatlar sohibasi ekanligi hikoya misolida beriladi.

“Gung momo” hikoyasi orzu umidlarda yashayotgan o'zbek onasi hayoti haqidadir. Oygul momo eridan ayrilgan keyin farzandlarini ota o'rnida ota bo'lib voyaga yetkazdi. Farzandlarini hayotda o'z o'rinlarini topishga harakat qiladi. O'zining baxtini farzandlari kamolida ko'radi. O'g'li Sardorjon diplomni qo'lga olib kelganida “Sevgi bu- farzand, farzand esa hayotdir” degan so'zlari ayolning hayot falsafasini anglatadi. Hikoyada “To'y o'tgach, Oygul momo uzoq qamaldan so'ng ulkan qal'ani zabt etgan sarkarda kabi yelkasidan tog' ag'darilganday yengil nafas oldi” deya ayolning hayot jangida g'olib bo'lganligi o'xshatishlar bilan chiroyli tasvirlanadi. Hikoya boshini o'qir ekanmiz ayolning farzandlarini tarbiya



qilgani, vafot etgan umr yo‘ldoshiga sadoqati, farzandlarini uylantirgani kabi barcha voqealar boshqa asarlardagi takrorlangandek ko‘rinadi, biroq hikoya davomida o‘zgacha ta’sir uslubi borligi nosirning boshqa hikoyalaridagi kabi ushbu hikoyda ham ayon bo‘ladi. Sardorjon uzoq yillar farzandsizlik dardi bilan yashayotgani Oygul momoni qiynab qo‘yadi. Farzandini shifokorga olib borganida uni bepusht ekanligini eshitib larzaga tushadi. Farzandini muolajalardan keyin tuzalishini eshitib biroz bo‘lsada yengil tortadi. Biroq shifokor ko‘rigidan keyin uyiga kelib Oygul momo hech kimga gapirmadi, gapirishni ham istamadi. Gapirmaslik zahirida til bilan bayon qilib bo‘lmas dardlar bor edi. Sardorjon davolanib uyga qaytganida unga aytmoqchi bo‘lgan so‘zlarini qog‘ozga yozib uzatadi. Nevarasi tug‘ilganida Oygul momo bu quvonchni ko‘tara olmay olamdan o‘tadi. Oygul momo farzandining taqdiridan kuyunib, holatini hech kimga bayon qilmaslikni istab gun momoga aylanadi. Oygul momoning boshqa farzandidan nabiralari bor edi. Ayol kenja farzandining hayoti ham boshqa bolalari singari chiroyli bo‘lishini istaydi. Ona barcha farzandlarini teng yaxshi ko‘rishi, barcha farzandlariga mehrni teng taqsimlashi Oygul momo misolida ham namoyon bo‘ladi. Farzandi dardini o‘z dardiga aylantirib gapirmay qo‘ygan Oygul momo chin ma’noda o‘zbek onasi, o‘zbekning mehrli farishati timsolidir.

Tahlil qilgan ikkala hikoyamizda ham bir-biriga yaqin farzandsizlik, nabira ko‘rish kabi voqealar berilgan bo‘lsada ularda nosirning bizga ayol obrazi misolida anglatmoqchi bo‘lgan hayot haqiqatlari talaygina. Mehri xola, Oygul momo obrazlari o‘zbek xalqining asrlar davomida qalbida yashab kelayotgan farzandlar kamolini ko‘rish, ularning nabiralarini erkalash baxtiga erishgandagina o‘zini baxtiyor sezadigan onalardir. Bu insonlar keksayib qolgan bo‘lsalarda kurashdan qaytmaydigan, yorug‘ hayotni farzandlariga berishga intilgan hayot qalqonlaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Isomiddinov Z. Ikki ayol // Tafakkur.-2007 №4 -47 b
2. Xoliyor Safar “Qanotsiz qushlar” T. O‘zbekiston-2014
3. Xoliyor Safar “Oy botmagan kechalar” T-2010



AHMAD TABIBIY MUXAMMASLARI BADIYYAT MASALASI

Bazarbayeva Jamila

UrDU O'zbek adabiyotshunosligi

1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ahmad Tabibiy mumtoz ijodkorlar an'alarini davom ettirib, deyarli barcha janrlarda ijod qilgan. U o'zining devonlariga klassik poeziyaning g'azal, muxammas, musaddas, musamman, murabba, masnaviy, qasida, ruboiy kabi janrlardagi she'rlarini kiritgan. U o'zbek adabiyotida muxammas janrini rivojlantirgan: Navoiy, Sa'diy, Jomiy, Zebuniso, Munis, Ogahiy, Mirzo G'olib va boshqaning g'azallariga 518 ta muxammas bog'lagan.

Kalit so'zlar: Ahmad Tabibiy, she'riyat, muxammas, ekspresivlik, o'xshatishlar.

KIRISH

Ahmad Tabibiy XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi Xiva adabiy muhitida o'z o'rniga ega bo'lgan iste'dodli, mahoratli, yetuk ijodkorlaridan biridir. Tabibiy qisqa hayoti davomida boy meros qoldirdi. Shoir turli janrlarga oid lirik asarlar yaratgan. She'riyatda shuhrat qozongan. O'zbek va fors-tojik tillarida, mumtoz adabiyotning an'anaviy janrlarida ijod qilgan. She'rlaridan 5 devon — "Tuhfat us-sulton", "Munis ulushshoq", "Hayrat ul-oshiqin" (o'zbek tilida), "Mir'ot ul-ishq", "Mazhar ulishtiyoq" (fors-tojik tilida) tuzgan. Ularda real hayotni, sof muhabbatni ulug'lagan ("Aylading", "Ozoridur" va boshqalar). O'zbek adabiyotida muxammas janrini rivojlantirgan: Navoiy, Sa'diy, Jomiy, Zebuniso, Munis, Ogahiy, Mirzo G'olib va boshqalarning g'azallariga 518 ta muxammas bog'lagan. Xorazm shoirlari haqida "Majmuat ush-shuaro'i payravi Feruz Shohiy", "Majmuai muxammasoti ashshuaro'i Feruz Shohiy" (1909) tazkiralari tuzgan. Ikkinchi majmuasi, asosan 33 shoir muxammaslaridan tashkil topgan. Unda dastavval Ogahiy g'azallariga, so'ng Feruz she'rlariga bog'langan muxammaslar, keyin esa Feruzning "Oromijon nigorim, sarvi ravon nigorim" g'azaliga taxmis, muxammas va musaddaslar keltirilgan. Ahmad Tabibiy o'zining muxammaslarida badiiy adabiyotning tasviriy vositalaridan keng foydalangan. Bu bilan o'ziga xos uslub yaratgan. Tashqi olamni bilishning keng tarqalgan mantiqiy usullaridan biri qiyoslash – o'xshatishdir. Ahmad Tabibiy betakror o'xshatish etalonlarini tanlash orqali tasvirga ekspressivlik paydo etgan. Muxammaslarda o'xshatish, qiyoslash usulining qo'llanishi turlicha bo'lib,



ular Ahmad Tabibiyning mahorat qirralarini yanada yorqinroq namoyon etadi. Shoir ma'no yaratishda metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi tasviriy vositalardan o'rinli foydalanadi.

ASOSIY QISM

Tabibiy lirik merosini ham adabiy mezonlar asosida tadqiq etish shoir ijodini o'rganishda muhim o'rin tutadi. Tadqiqotlardan ayon bo'lishicha, shoir ijodining eng kuchli ta'sir manbasi, shubhasiz, buyuk Navoiy ijodidir. Ko'plab ijodkorlar singari Tabibiy ham Alisher Navoiy ijodidan ta'sirlangan, o'zining turkum asarlarini yaratgan. Shoirning zamondoshi, rus sharqshunosi A.N.Samaylovichning ijodkor haqidagi quyidagi taassuroti ham fikrimiz dalilidir: "Shoirning menga o'z qalamkash birodarlarini "bularning hammasi uchun Mir Alisher Navoiy o'rnakdir, lekin hech biri uning iste'dodiga ega emas", - deb ta'riflaganidagi dilgir-nafratchan yuz ifodasi shundoq esimda" [Qosimov 1983, 42]. Bundan Tabibiyning Navoiy ijodiga naqadar ixlosmand bo'lganini sezish qiyin emas xizmat qilganligi yaqqol namoyon bo'ldi. Yuqorida misollarda keltirilgan muxammaslar tahlili natijasida o'xshatish, qiyoslash usulidan turlicha qo'llanilganligini va bu Tabibiyning mahorat qirralarini yanada yorqinroq namoyon etayotganligining guvohi bo'ldik. Shoir ma'no yaratishda metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi tasviriy vositalardan o'rinli foydalangan. Muxammaslarda sinekdoxaning butun o'rnida qism ko'rinishi, jins o'rnida tur munosabati aks etgan ko'rinishlari hissiyot uyg'otish kuchi va xususiyati bilan ahamiyatga egadir.

Olamga boqsang hosili boshdin-oyoq kulfat erur.

Bir rohatning keyinida behaddu son mehnat erur.

Bir oshiqikim lahzaye topsa visoli dilbarin,

Doim hamul bechorag'a, so'ngra g'ami furqat erur.

Har kimsakim komi dilin gar topsa ondin har nafas,

Andin nasibi borho xirmon bila hasrat erur.

Shoir mazkur baytda husni matla' bilan bir qatorda tashbih, tanosub, tazod san'atini ham mahorat bilan qo'llagan. G'azal nafaqat qofiyalanish tartibiga, balki badiiy san'at talabiga ko'ra ham husni matla'ning betakror namunasi. Zero, g'azal matla'i "ham mazmun, ham uslub jihatdan nihoyatda mutanosib... Chiroyli so'z va iboralar chuqur ma'noning yorqin, ta'sirli shaklda namoyon bo'lishini ta'minlagan. Natijada matla o'quvchi e'tiborini qozonib, unda keyingi baytlarni o'qishga ishtiyoq uyg'otadi". Tabibiy lirikasida g'azalning eng ko'p uchraydigan turi – oddiy g'azal turdagi g'azallarning shakliy belgilari, adabiyotshunos Olim Oltinbek fikricha, "...quyidagilardan iborat: 1) matla'dan maqta'gacha bir xil



vaznda yozilgan bo'lishi; 2) matla' misralari o'zaro qofiyalangan va juft misralarning barchasi unga qofiyadosh bo'lishi; 3) belgilangan (3 baytdan 21 baytgacha) hajmda bo'lishi; 4) maqta'da shoir taxallusi qo'llanishi lozim" .

Tabibiy lirikasida g'azalning ushbu turi yetakchilik qilishini ta'kidlash kerak. Bu turdagi g'azallar shoirning lirikadagi mahoratini ko'rsatishi jihatidan qimmatlidir. Mana, shunday g'azallardan biri:

Kimdakim ahli jahondin bor ilmu ma'rifat,
Qilg'usidur oni barhurdor ilmu ma'rifat.

Bu ikkov ba'zig'a lekin bu zamon bordur nihon,
Shukurkim aksarg'adir izhori ilmu ma'rifat.

Ey birodar, olimu orif bolurg'a jahd qil,
To yeturkay ko'nglunga anvor ilmu ma'rifat.

Ilm birla ma'rifatdin oyru tutmishdir Tabib,
Yo rab, emdi qil anga ham yor ilmu ma'rifat.

Ushbu g'azalda ma'rifat, ilm, bilim tasvirlangan. Go'yoki ma'rifat chirog'I o'quvchi ko'z ongida yorqin namoyon bo'ladigan badiiy tasvirni yarata olgani shoirning ulkan mahoratidan darak beradi. Shoir g'azalida bevosita lirik qahramonga murojaat qilgan. Ilmi insonning hech davrda xor bo'lmasligi doim hurmat-e'tiborda bo'lishi ta'kidlangan. Kishi ruhiyatining inja badiiy talqini –lirik kayfiyatning kuchli ifodasi bo'lgan bu g'azal Tabibiyning mumtoz poetik ifoda ustasi ekani tasdig'idir. G'azal an'anaviy 9 baytni tashkil etadi. Lirik qahramonga murojaat tarzida yozilgan. Tashbex, tanosib, tazod, husni talil kabi she'riy san'atlardan unumli foydalanilgan. Bu birliklar g'azalning undalma tarzida ekanligini yuzaga chiqarishda muhim rol o'ynagan. Umuman, ushbu g'azalni lirik qahramon va shoir o'zining ruhiyat tasvirining mutanosibligi, nozik ma'no va go'zal badiiyat uyg'unligi bilan mumtoz g'azalchilikning nodir namunalaridan, deyish mumkin. Tabibiy o'zining zamon to'g'risidagi qarashlarini dastlab sevgi haqidagi g'azallarida ifoda etadi. Shu o'rinda aytish kerakki, ayrim adabiyotshunoslarimiz yaqin o'tmishimizgacha, g'azal janrida faqat intim tuyg'ulari kuylanadi, degan yanglish fikrida edilar. G'azal janring paydo bo'lgan dastlabki davrlari uchun bu fikr to'g'ri bo'lsa bo'lgandir, biroq g'azal janrining umumiy mazmunini to'g'ri ifodalash uchun xarakterli emas. A.Mirzayev,



A.Hayitmetov, A.Karimov singari olimlarimiz o'zlarining bu masalaga bag'ishlagan ilmiy ishlarida g'azal janrining barcha xususiyatlarini chuqur tahlil qilish asosida, g'azalda sevgi tuyg'ulari bilan bir qatorda juda muhim hayotiy masalalar, falsafiy mushohadalar ham o'z ifodasini topishi mumkinligini qayd qilib o'tganlar. Ularning fikrlarini tasdiqlovchi misrallarni Tabibiy g'azallaridan ham ko'plab uchratish mumkin.

XULOSA

Ahmad Tabibiy o'zbek adabiyotida muxammas janrini rivojlantirgan: Navoiy, Sa'diy, Jomiy, Zebunniso, Munis, Ogahiy, Mirzo G'olib va boshqaning g'azallariga 518 ta muxammas bog'lagan. U muxammaslarida leksik vositalar, ko'chimlar tahlili natijasida uning badiiy tasvir vositalaridan keng foydalangan. Tashqi olamni bilishning eng keng tarqalgan mantiqiy usullaridan biri qiyoslash – o'xshatishdir. Ahmad Tabibiy betakror o'xshatish etalonlarini tanlash orqali tasvirda ekspressivlik paydo etgan. Muxammaslarda o'xshatish, qiyoslash usulining qo'llanishi turlicha bo'lib, ular Ahmad Tabibiyning mahorat qirralarini yanada yorqinroq namoyon etadi. Shoir ma'no yaratishda metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi tasviriy vositalardan o'rinli foydalanadi. Muxammaslarda sinekdoxaning butun o'rnida qism ko'rinishi, jins o'rnida tur munosabati aks etgan ko'rinishlari hissiyot uyg'otish kuchi va xususiyati bilan ahamiyatga egadir.

FOYDALANILAYOTGAN ADABIYOTLAR:

1. Античные теории языка и стиля. - М., 1936.
2. Ne'matov X. Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. - T., 1995.
3. Mirzayev M., Usmonov S. O'zbek tili kitobi - T., 1978.
4. G'anixo'jaev F. Ahmad Tabibiy. O'zbekiston SSR —Fan nashriyoti.— Toshkent: 1978 yil.



OGAHINYING “RIYOZU-D-DAVLA” ASARIDAGI MASNAVIYLARIDA QAYTARISH BILAN BOG‘LIQ SAN’ATLAR

Saparboyeva Madina Murodjon qizi

*Urganch davlat universiteti Magistratura bo‘limi
Adabiyotshunoslik (O‘zbek adabiyoti) 1-bosqich magistranti*

madinasaparboyeva@gmail.com

Annotatsiya. Bu maqolada o‘zbek mumtoz adabiyotida keng qo‘llanilgan qaytarish san’ati Ogahiyning “Riyozu-d-davla” asaridagi masnaviylari misolida tadqiq qilingan. Maqolada ilgari surilgan ilmiy qarashlar, qaytarish san’atining mumtoz poetikada tutgan o‘rniga berilgan izohlar adabiyotshunos olimlarning ilmiy risolalarida berilgan fikr-mulohazalarga tayanib, faktlar keltirilgan holda izohlab berildi.

Kalit so‘z. Qaytarish san’ati, masnaviy, *sadr*, *ajuz*, *zarb*, *aruz*, *ibtido*, *hashv*, *mutobiqa*, *tasdir*, *radd ul-ajuz il-as-sadr*.

O‘zbek mumtoz adabiyotiga nodir asarlari bilan bitmas xazina qoldirgan Muhammad Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy o‘zining “Riyozu-d-davla” asarida tarixiy voqealarni bayon qilishda, asosan, masnaviy janridan foydalangan. Muarrix-ijodkor masnaviylarning badiiyatiga alohida e’tibor qaratib turli xil tasviriy vositalar, she’riy san’atlarni istifoda qilgan. Ogahiyning tarixiy asarlaridagi masnaviylarida qaytarish san’ati ham alohida o‘rin egallaydi.

Qaytarish san’ati – mumtoz she’riyatimizda bayt tarkibidagi ayrim so‘zlarni yana boshqa bir o‘rinda takror qo‘llashga asoslangan san’at. Mumtoz adabiyotda baytning boshi *sadr*, oxiri *ajuz* yoki *zarb*, birinchi misraning oxiri *aruz*, ikkinchi misraning boshi *ibtido* va har ikki misraning o‘rtasi (*sadr* bilan *aruz*ning, *ibtido* bilan *ajuz*ning o‘rtasi) *hashv* deyiladi. Biz shartli ravishda qaytarish deb atagan (*radd* – arabcha “qaytish” demak) san’at baytdagi mazkur o‘rinlardan birida turgan so‘zning boshqa joyda takrorlanishi natijasida yuzaga keladi¹.

Qaytarish san’ati tarixiy poetikaga doir ancha-muncha manbalarda “*radd ul-ajuz il-as-sadr*”, ba’zilarida esa “*mutobiqa*”, ayrimlarida “*tasdir*” deb yuritilgan. Demak, mazkur san’at “*radd ul-ajuz il-as-sadr*” deb yuritiladigan bo‘lsa, baytda “*ajuz*”ning “*sadr*” o‘rnida qaytarilishi degan ma’no kelib chiqadiki, bu Y. Is’hoqov

¹ Y.Is’hoqov . So‘z san’ati so‘zligi. – Toshkent: “Zarqalam” nashriyoti, 2006.



aytganidek, qaytarish san'atining bir turi bo'lib qoladi, xolos. Vaholanki, bu san'atning turlari ko'p adabiyotshunoslikda, ularning turi ellikdan oshadi. Shu vajdan, mazkur san'atni "*radd ul-ajuz il-as-sadr*" deb emas, balki jamlovchi nom "*qaytarish san'ati*" deb atash o'rinlidir. Qaytarish san'atining nomlanishi borasidagina emas, uning ta'rifi, tavsifi, tasnifi haqida ham bir xillikka erishilgan emas².

Biz Ogahiy ijodida qo'llanilgan bu lafziy san'atni guruhlariga ajratishda muarrix-ijodkorning "*Riyozu-d-davla*"³ asaridagi masnaviylari misolida so'zlarni qaysi o'rinlarda takrorlanib kelganiga e'tibor qaratdik.

1. **Radd ul-aruz ilal-ibtido** (birinchi misra oxiridagi so'zning misra boshida qaytarilishi):

*Sitam rasmini bikull etti adam,
Adam sori ham edi ahli sitam⁴.*

2. **Radd us-sadr ilal-hashv** (bayt boshidagi so'zning misra ichida qaytarilishi). Bu turning ikki xil ko'rinishi mavjud:

- a) birinchi misradagi "sadr"ning shu misra "hashv"ida qaytarilishi:

*Yo'q esa , ashyog'a yo'q ul e'tibor
Kim, vujud ayvonida tutqay qaror⁵.*

- b) "sadr"ning ikkinchi misra "hashv"i o'rnida kelishi:

*Ham sharaf birla to'la erdi jahon,
Farrux erdi ham, jahon yanglig' zamon⁶.*

*Har dam o`qubon birisi tafsir,
Aylab biri har dam ichra taqir⁷.*

3. **Radd us-sadr ilal-ibtido** (bayt boshidagi so'zning ikkinchi misra boshida qaytarilishi):

*Bari sha'ni erdi quyoshdin baland,
Bari sohibiizzat-u. arjumand.
Bari erdi davlatda Qorun kebi,
Bari muknat ichra Faridun kebi.*

² T. Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent : "O'zbekiston", 2002.

³ Ogahiy. Riyozu-d-davla. Nashrga tayyorlovchi , so'zboshi , izohlar muallifi hamda forsiy matnlar tarjimoni Abdulla O'razboyev. – Urganch: "Куванчбек-Машхура" MCHJ, 2021. -428 b. Bundan keying misollar shu asardan olingani uchun asar nomi va beti ko'rsatib o'tiladi.

⁴ Riyozu-d-davla. 45-bet.

⁵ Riyozu-d-davla. 17-bet.

⁶ Riyozu-d-davla. 37-bet.

⁷ Riyozu-d-davla. 266-bet.



Bari osmoni jalodat kelib,
Bari olami izz-u shavkat kelib,
Bari axtari avji joh-u jalol,
Bari qudrat-u qadr aro bemisol⁸.

Hama ro 'yintanu po 'lodpaykar,
Hama qoplonsifat zo 'ru dilovar.
Hama razmozmo-yu chust-u cholok,
Hama xunrezlik birla tarabnok.
Hama rustamnabardu fili neru,
Hama gardunsitezi zo 'rbozu⁹.

4. **Radd us-sadr ilal-zarb (ajuz)** (bayt boshidagi soʻzning bayt oxirida qaytarilishi):

Fazoyil kasbigʻa chun boʻldimoyil ,
 Boʻlub ravshan anga bori **fazoyil**¹⁰ .

5. **Radd ul-hashv ilal-hashv** (birinchi misra “hashv”ining ikkinchi misra “hashv”i oʻrnida kelishi yoki ikkinchi misradagi “hashv”ning shu misra “hashv”i oʻrnida qoʻllanilishi):

Tutub qalʻa atrofin andoq sipah,
 Ki qolib **ne** dasht-u **ne** koʻh-u dara.
 Tengizdek urub xayli islom mavj,
 Qolib ostida **ham** haziz-u **ham** avj¹¹.

6. **Radd ul-aruz ilal-hashv** (birinchi misra oxiridagi soʻzning ikkinchi misra “hashv”i oʻrnida kelishi):

Karam olamigʻa muallo **sipehr**,
 Saxo-u adolat **sipehrigʻa** mehr¹².

7. **Radd ul-ibtido ilal-hashv** (ikkinchi misra boshidagi soʻzning shu misra “hashv”i oʻrnida kelishi):

Ikki kadu olibon barobar,
Ikkiga solib **ikki** kabutar.
 Qildi kadularni ul hunarmand

⁸ Riyozi-d-davla. 77-bet.

⁹ Riyozi-d-davla. 171-bet.

¹⁰ Riyozi-d-davla. 33-bet.

¹¹ Riyozi-d-davla. 60-bet.

¹² Riyozi-d-davla. 29-bet.



Ikki oyog 'iga ikkinsin band¹³.

8. Radd us-sadr ilal-aruz (birinchi misra boshidagi soʻzning shu misra oxirida kelishi):

***Dema** sipah, qulzumi zaxxor, **de**,
Mavji mahib ayladi izhor de¹⁴.*

9. Radd ul-hashv ilal-ibtido (birinchi misra oʻrtasidagi soʻzning ikkinchi misra boshida kelishi):

*Shikor aylab **gahe** hadsiz tovushqon,
Gahe kabki dariy sayd aylabon oson¹⁵.*

10. Radd ul-aruz ilal ajuz (birinchi misra oxiridagi soʻzning bayt oxirida takrorlanishi):

*Lavni bila koʻz mulavvan **oʻlsun**,
Atri bila jon muattar **oʻlsun**.
Kavsar suyidek safosi **birla**,
Kun lamʼasidek ziyosi **birla**.
Boʻlub tar-u toza ruh **har dam**,
Koʻngluma etib futuh **har dam**¹⁶.*

Koʻrinadiki, Ogahiy “Riyozu-d-davla” asaridagi masnaviylarida qaytarish sanʼatidan unumli foydalangan. Mumtoz sheʼriyatimizda keng qoʻllanilgan ushbu badiiy sanʼat ijodkor-muarrix olgʻa surayotgan fikrning emotsional taʼsir kuchini oshirish bilan birga, bu fikrning nozik va yashirin tomonlarini ham oʻquvchiga yetkazish uchun xizmat qilgan.

Qaytarish sanʼati shoir fikrining taʼsirchan chiqishida vosita boʻlib xizmat qiladi. Bunda shoir muayyan soʻzga yoki soʻz birikmasiga eʼtibor qaratib, u orqali mantiqiy urgʻuni taʼkidlashni koʻzlaydi. Uslubiy yukni ana shu soʻz yoki soʻz birikmasiga ortadi.

Adabiyotlar:

1. Y.Isʼhoqov. Soʻz sanʼati soʻzligi. – T: “Zarqalam” nashriyoti, 2006.
2. T. Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: “Oʻzbekiston”, 2002.
3. Ogahiy. Riyozu-d-davla. Nashrga tayyorlovchi, soʻzboshi, izohlar muallifi hamda forsiy matnlar tarjimoni Abdulla Oʻrozboyev – Urganch: “Куванчбек-Машхура” MCHJ, 2021. -428 b.

¹³ Riyozu-d-davla. 270-bet.

¹⁴ Riyozu-d-davla. 56-bet.

¹⁵ Riyozu-d-davla. 285-bet.

¹⁶ Riyozu-d-davla. 258-bet.



BOLALAR SEREBRAL FALAJLANISHI VA ULARDA OLIB BORILADIGAN LOGOPEDIK-PSIXOLOGIK ISHLARNING O'ZIGA XOSLIGI.

Jizzax shahar 32-DMTT logopedi Tojiyeva Nargiza Ilhom qizi
Jizzax shahar 32-DMTT psixologi Amanova Dilfuza Achilovna

Anotatsiya: Ushbu maqolada bolalar serebral falaji, bu toifadagi bolalar tasavvuri, nutq buzilishining o'ziga tomoni, bolalarning ixtiyoriy faoliyatida tartiblikga erishishdagi qiyinchiliklar, bolalardagi harakat buzilishlari, bolalar serebral falaji kelib chiqish sabablari, ularni oldini olish usullari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Bolalar serebral falaji, bosh miya, reflekslar, markaziy nerv sistemasi, qo'rquv, tonik reflekslar, fonetik fonematik buzilishlar

Аннотация: Это дети в статье детский церебрал паралич, этот тип детское воображение, речь характеристика расстройства сторона усмотрение детей порядок в деятельности трудности в достижении движения у детей расстройства, детские мозговые причины их предотвращения информация предоставляется

Ключевые слова: Дети церебральный паралич, головной мозг, рефлексы, центральный нерв система, учеба, сегодня вечером рефлексы, фонетическая фонематика расстройства

Annotation: This children in the article cerebral palsy, this type children's discretion order in the activity difficulties in achieving movement in children disorders, children's cerebral causes of paralysis ways to prevent them information is given in

Key words: Children cerebral palsy, brain, reflexlak, central nery series, chase, tonight reflexes, phonetic phonemics disorders.

Respublikamizda jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoyalash, o'qitish va tarbiyalash masalalari davlar siyosati darajasiga ko'tarilgan, O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risidagi " Qonuni (23-modda) va davlat tomonidan 1992 -yilda ratifikarsiya qilingan BMTning "Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi (23- modda)da nogiron bolalarni alohida parvarishlash , ta'limdan foydalanish, munosib turmush kechirish huquqlariga egaligi e'tirof etilgan .Shuningdek, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 29-apreldagi



"O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi"gi PF-5712-son Farmoniga muvofiq O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim - tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Inklyuziv ta'lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuziv tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birgalikda oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Bolalar serebral falaji : bosh miya harakatlantiruvchi zonalari va bosh miyadagi harakatni yo'naltiruvchi yo'llarni zararlanishi bilan kechadigan markaziy nerv sistemasi kasalligi hisoblanadi. Bolalar serebral falaji kelib chiqish sabablari turlicha bo'lishi mumkin. Masalan: surunkali kasalliklar, homilaning erta yoki kech tug'ilishi, infeksiyon kasalliklar, homladorlik vaqtida turli xil jarohatlanishlar, ona va homila qonining rezus faktor va guruhi bo'yicha to'g'ri kelmasligi, bundan tashqari genetik factor faktorlar ham asos bo'la oladi. Bolalar serebral falajida harakat sohasini buzilishi turli darajada namoyon bo'ladi: harakatning buzilishi shunday og'ir bo'lishi mumkinki, u bolaning erkin harakat qilishidan butunlay mahrum qiladi, muskullarning tonusi deyarli zarar ko'rmagan taqdirda ham bolalar o'ziga o'zi xizmat qilishni qiyinchilik bilan egallaydilar. Bolalar serebral falaji nuqsoniga ega bo'lgan bolalarda nafaqat harakat qilishdagi qiyinchiliklar muammo dug'dirmaydi, balki ularda to'g'ri harakat qilishi haqidagi tasavvurlarni yo'qligi ham shakllanmaganligi namoyon bo'ladi. Bolalar serebral falaji nuqsoniga ega bolalarda nutq buzilishi asosiy o'rinni egallaydi. Chunki, nutq buzilishining o'ziga xos tomonlari miyani qay darajada zararlanishiga qarab belgilanadi. Serebral falajlanishga ega bolalarda ba'zi miya sohasidagi zararlanish bilan birga bosh miya po'stloq qismining buzilishlarini ikkilamchi rivojlanmaganligi hamda kech shakllanganligi ham namoyon bo'ladi. Bu miyanining ontegenetik tomondan yosh bo'lgan bo'limlari bo'lib, u insondagi psixik va nutq faoliyatini shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Bolalar serebral falajida nutqning kech rivojlanishiga sabab, ularda amaliy faoliyatni yetarli emasligi, atrof-muhit haqida bilim va tasavvurlarni yetishmasligidir. Bolalar serebral falajida nutq buzilishlari patogeneza harakat patologiyasi muhim o'rin tutadi. Bu holat bolalar bilan logopedik ishni tashkil qilishda nutq va harakat buzilishlarini klinik va patogenetik umumiylikni tushunish ahamiyatli hisoblanadi. Fonetika - fonematik



buzilishlar bolalar serebral falajida dizartriyaning o'ziga xos ekanligi, bu uni nutq muskullariga tonik reflekslar orqali ta'sir etishda namoyon bo'ladi. Bu esa o'tkaziladigan logopedik ishni o'ziga xos ravishda o'tkazishni talab etadi. Bolalar serebral falajining atonik-ataktik shaklida miyachaning va miyaning boshqa tizimlari bilan bog'liq bo'lgan joylari, ayniqsa katta yarim sharlarning peshana bo'limlarining jarohatlanishi kuzatiladi. Artikulyatsion matorikaning buzilganligi muskul tonusining sustligi, harakatning aniqligi yo'qolganligi, ritmning buzilganligida namoyon bo'ladi. Bolalar serebral falajidagi nutq buzilishlari ko'pincha uchray turadigan dizartriya. Diagnostika va korrektsiyalashda qiyinchilik tug'diradigan Alaina hisoblanadi. Chunki, nutqning yo'qligi bolalarda fikr yuritish faoliyatini rivojlanmasligiga olib keladi. Alaliyada bosh miyaning nutq zonalarini lokal shikastlanishi spetsifik nevrologik simptomlar bilan birgalikda kuzatiladi. Bu ko'pincha elektroensefalografik tekshiruvlarda tasdiqlanadi. Spastik diplegiyadagi psevdobulbar dizartriya 80%, gemiparitik shaklida esa, kasallarning uchdan bir qismida (30- 35 %) kuzatiladi. Bolalar serebral falajida logopedik ishning maqsadi artikulyatsion holat va harakat sezgilarini rivojlantirishdan iborat. Artikulyatsion harakat sezgilarini yaxshilash uchun olib boriladigan mashqlar oyna yordamida harakatlarni ochiq ko'z bilan kuzatish va harakatlarini yopiq ko'z bilan diqqatli bo'lib, sezish kabi mashqlar bosqichma -bosqich qo'llaniladi. Logopedik ish bolani shunday holatida o'tkaziladiki, tonik reflekslar nutq matorikasiga deyarli ta'sir o'tkazmasligi talab etiladi. Bu holat logoped va nevrolog hamkorligida amalga oshiriladi. Agar bola logopedik mashg'ulot o'tilayotganda o'tirgan holatda bo'lsa diqqatni uni boshini harakatiga qaratish zarur. Ba'zi holatlarda bosh maxsus apparat yordamida ushlab turiladi. Mashg'ulot o'tkazilayotganda oyna va logopedning yuzi bola ko'zi chizig'ida joylashtiriladi. Bola uchun zarur holat tanlangandan so'ng massajga hamda artikulyatsion muskulatura gimnastikasiga o'tiladi. Bolalar serebral falajidagi dizartriyaning o'ziga xos tomonlari bu umumiy va nutqiy matorikaning buzilishi, dizartriyaning turli shakllari bolalar serebral falajini ma'lum bir shakllari bilan bog'liqligidir. Ishni tayyorlov davrida umumiy muskullarni bo'shashtirish va nutq muskulaturasidagi tonusni kamaytirish muhim vazifa hisoblanadi. Bolalar serebral falajida artikulyatsion matorikaning buzilishini o'ziga xos tomonlaridan biri og'iz avtomatizmi bilan bog'liq tug'ma reflekslarni qayta rivojlanishidagi to'xtab qolishdir. Bular: so'rish, yutish reflekslari, tishlash va boshqalardir. Bu reflekslar namoyon bo'lishi ixtiyoriy artikulyatsion harakatlarni rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Bolalar serebral falajida dizartriya bolalar turli harakatlarni bajarganlarida umumiy va nutq muskulaturasida muskul tonusining oshganligi ularning asosiy belgilaridan biri



hisoblanadi. Mashg'ulotlar vaqtida bunday bolardan haddan tashqari kuch talab etilmaydi. Chunki, bu narsa muskul tonusining ortishiga va tovush talaffuzining buzilishining kuchayishiga olib kelishi mumkin. Nutqiy nafasni rivojlantirish uchun puflashga oid turli mashqlar tavsiya etiladi. Lekin, kichik yoshdagi serebral falajli bolalar uchun bu mashqlar har doim ham foydali bo'lavermaydi. Chunki, ular bu mashqni bajarishda haddan tashqari kuch ishlatishlari mumkin. Bu esa umumiy muskul tonusining ortishini kuchaytirishi mumkin. Bola lug'atini rivojlantirish uchun bolaning amaliy va hissiy tajribasini kengaytirishga qaratilgan dastlabki korreksion tadbirlar katta ahamiyat kasb etadi. Bola hayotining dastlabki davrlaridanoq faol ravishdagi predmet amaliyot harakatlarini shakllantirishga intilishi zarur. Logoped bolaning onasini bola bilan birgalikda bo'ladigan o'yinlarga jalb qilishi lozim. Bu jarayonda esa uning nutqi birmuncha rivojlanib boradi. Xulosa qilib aytganda "Serebral falajlanish nuqsoniga ega bolalar" bilan lug'atni shakllantirish bo'yicha ishlar bosqichma - bosqich amalga oshirib boriladi. Birinchi bosqichda bolalar predmetlar bilan ularning tasviri va ular bilan bajariladigan ishlar bilan birlamchi tanishtiriladi. Bu o'rinda bolaning e'tiborini jalb qilishga va uning javob reaksiyasini qo'zg'atishga yordam beradigan bir qator usullar qo'llaniladi: ya'ni predmetni kutilmaganda, to'satdan paydo bo'lib qolishi, yo'qolishi, uning harakati. Shunday qilib serebral falajli bolalar leksikasini takomillashtirish va boyitish predmet - amaliy va o'yin faoliyati bilan uzviy bog'liq holda olib borish, shuningdek, sensor funksiyalarini rivojlantirish va ularning korreksiyasini ongli faoliyati bilan chambarchas bog'liq holda tashkil qilishni ko'rsatish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. D.R.Madazizova " Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarning klinik asoslari "T.: O'zbekiston faylasuflari milly jamiyati "nashriyoti 2018.
2. P.M.Po'latova, L.N.Nurmuxammedova, D.B.Yakunjonova "Maxsus pedagogika" T.:"Fan va texnologiya" nashriyoti 2014.
- 3.M.Y.Ayupova "Logopediya " T.:O'zbekiston faylasuflari million jamiyati " nashriyoti 2007.
- 4.V.S.Raxmanova "Defektologiya asoslari " T.: "Niso Poligraf "nashriyoti 2014.
5. w.w.w.https//lex.uz.



BOLALARDA MEHR-MURUVVAT HISLARINI SHAKLLANTIRISH

*Jizzax shahar 32-son DMTT tarbiyachilari
Xolboyeva Shohista Abdug'ofurovna
Xamedova Guljaxon Olimovna*

Annotatsiya: Maktabgacha yoshdagi bolalarda mehr-muruvvat his-tuyg'ularini shakllantirishda bolalarning o'yin faoliyatlari bebaho o'rinni egallaydi.

Tayanch so'zlar. Xotira, tassavur, mehr-muruvvat, his-tuyg'u, rol, o'yinlar, muvaffaqiyat, sadoqat, g'amxo'rlik.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda mehr-muruvvat his-tuyg'ularini shakllantirishda bolalarning o'yin faoliyatlari bebaho o'rinni egallaydi. O'yin faoliyati jarayonida paydo bo'luvchi mehr hislari bola hayotida, uning butun ruhiy jarayonlarining rivojlanishi va ayniqsa tafakkur va xotirasida bir umrga mustahkamlanib, keyinchalik bola katta yoshga yetganida, xotira tasavvurlariga aylanib qoladi. Bolalarda mehr hislarining shakllanishida, ayniqsa syujetli-rol o'yinlar muhim va birinchi darajalik rolni o'ynaydi. Syujetli-rol o'yinlar bolalarni kuzatish, ularni har jihatdan o'rganish, ularning ichki dunyosiga kirib borishga katta tarbiyaviy imkoniyat yaratadi. Bolalarning ayniqsa qo'g'irchoqlari bilan o'ynashlarini kuzatish, ularning ichki dunyosini o'rganish, qiziqishlari yo'nalishini aniqlash uchun juda qimmatli hisoblanadi. Ko'pgina bolalarning qo'g'irchoqlarga munosabati uning tashqi ko'rinishida namoyon bo'ladi. Chiroqli kiyimlar bo'lgan yangi qo'g'irchoqlarga ehtiyotkorlik, g'amxo'rlik bilan qaraydilar. Eski qo'g'irchoqlar esa qo'g'irchoq burchagida unutilganicha turaveradi. SHunday ham bo'ladiki, to'rt-besh yoshli bolalar ularni beparvo tashlab ham yuboradilar. Tanbeh berilganda esa: «U baribir eski», «U yomon» deydilar. Bunday hollarda bolalarda eski qo'g'irchoqlarga nisbatan rahm-shavqat uyg'otish, yuzi tirnalganiga, ko'ylagi eskirganligiga u aybdor emasligini tushuntirish zarur bo'ladi.

Bolalar bog'chasi tarbiyachisi bolalarga uzoq vaqt va ko'p o'ynalgani uchun eski qo'g'irchoqni yaxshi ko'rishini, bolalarning bu qo'g'irchoqqa yomon munosabatda bo'lganlaridan juda afsuslanayotganini aytsa, bolalar eski qo'g'irchoqqa ham e'tibor qiladilar. U bolalarga «oila» o'yinini o'ynayotganlarida qo'g'irchoqni «ona» qilishni yoki «kasalxona» o'yinida «meditsina xamshirasi»



qilishni, uni muvofiq tarzda kiyintirish to'g'risida g'amxo'rlik ko'rsatishni taklif etishi kerak.

Bunday usullar bolalar his-tuyg'usiga ta'sir ko'rsatib, bolalarni eski qo'g'irchoqqa o'z munosabatlarining adolatli yoki adolatsizligi to'g'risida puxta o'ylashga majbur qiladi. O'yinlarni ahloqiy tarbiya vositasiga aylantirishda yordam beradigan eng muhim shart ularga shunday rahbarlik hisoblanadiki, bunda o'yinlar mazmuni bolalarni jalb etadi va bolalarning o'zaro munosabatlari ahloqiy yo'nalish xarakterida bo'ladi.

«Oila» o'yinida ona bolalariga g'amxo'rlik qiladi, ular kasal bo'lganlarida tashvishlanadi. «Kapitan» o'yinida u mardlik ko'rsatadi. Bo'ronli dengizda baliqchilarni qutqaradi.

«Uchuvchi» o'yinida yomg'ir yog'ib chaqmoq chaqayotgan bir paytda, baland tog'lar orasidan bemor kishini qutqarishga «uchib» boradi va h.k.lar kabi o'yinlar bolalarda mehr hislarini, boshqalarga yordam berish, boshqalar haqida qayg'urishga o'rgatadi. O'rta guruhlarda qo'g'irchoqlar burchagidagi har bir qo'g'irchoq o'z nomiga, o'z xarakteriga ega bo'lgani uchun inoq qo'g'irchoqlar oilasining a'zosi bo'lib qolishi lozim. Shundagina qo'g'irchoqlar bilan o'ynaladigan o'yinlar mehrmuruvvat tuyg'ularini tarbiyalash vositasi bo'lib qoladi.

Tarbiyachi o'z zimmasiga ona rolini olar ekan, bu o'yinlarda kattalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlar uslubini va yaxshi oila uchun xos bo'lgan an'analarni mujassamlashtirishga yordam berishi kerak. O'yin vaqtida bolalar g'oyat xilma-xil harakatlarni bajaradilar: o'z «qizchalarini» ovqatlantirishadi, uxlatishadi, kiyintirishadi, sayrga otlantirishadi, shifokorga olib borishadi va h.k. Biror maqsadga qaratilgan bunday harakatlar sadoqat, g'amxo'rlik, mehr-muruvvatni shakllantirishga yordam beradi. Bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida mehr-muruvvat histuyg'ularining shakllantirishni muvaffaqiyatli hal etishda oila hayoti ham muhim rolni o'ynaydi. Oilaning maishiy hayoti bolalar uchun taqlid namunasi bo'lib xizmat qiladi. SHuning uchun maishiy turmushni shunday tashkil qilish kerakki, bunda kattalar uyushgan holda aniq harakatlar qilishlari lozim. Bolalar bog'chasida esa ko'tarinki kayfiyat xushmuomila ohang yo'liga qo'yilishi, talabchanlik, bolaga yordamga kelishga tayyorgarlik bilan qo'shib olib borilishi lozim.

Tarbiyachi odamlarga mehribonlik bilan munosabatda bo'lish namunalari ko'rsatib, bolalarda insoniy tuyg'ularni tarbiyalashi lozim.



Tarbiyachining bolalarga vazmin, bir tekis munosabati, sayrga chiqish uchun kiyinishida, o'rnini yig'ishtirishida, navbatchilik vazifalarini bajarishida qiyinchiliklarga duch kelayotgan bolalarga yordamga kelishga tayyor ekanligini ko'rish bolalarda o'z kuchiga ishonchni tug'diradi. Qiyinchiliklarni muvaffaqiyatliroq bartaraf etishga ko'maklashadi, bir-biriga yordam berishga, mehribonlik qilishga da'vat etadi. Bolalarda mehribonlik hislarini shakllantirishda boshqa odamlarga, jumladan beva-bechoralarga, qariyalarga nisbatan, ham ijobiy munosabatni tarbiyalaydi va shakllantiradi. Bola munqilagan qariyalar hayotidan xabardor emas, lekin u bu kabi qiyinchiliklarda umr kechirayotgan kishilar yonidan tez-tez o'tib turadi. Bu kabi holatlarni ota-onalar vaqti-vaqti bilan bolaga izohlab berishlari bolada mehribonlik his-tuyg'ularini shakllantirishida muhim ahamiyatga ega bo'ladi

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Usmanova M. (2020). 6-7-yoshli bolalar nutqini rivojlantirishda ta'limiy mashgulotlarning orni. Maktabgacha ta'lim jurnali, 1 (1). 5. 2.
2. Usmanova M. S. (2022). the importance of national values in the development of preschool children. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 10, 173–187.
3. Maxfuza Usmonova, Kichik Maktab Yoshdagi Bolaning Motivatsiya Sohasi Rivojlanishi , Maktabgacha ta'lim jurnali: Vol. 2 No. 2 (2021): The journal of preschool education



MAVZU: BIOLOGIYA FANINI O'QITISH JARAYONIDA ZAMONAVIY METODLAR

Guliston Davlat Universiteti Biologiya fakulteti(turlar bo'yicha)
2-bosqich talabasi Aliboyeva Ozoda

Annotatsiya. Ushbu maqolada biologiya fanini o'qitish jarayonida zamonaviy metodlar yordamida ushbu fanini o'qitishning xususiyatlari tahlil qilib o'tildi. Biologiyani fanini o'qitish metodikasi pedagogika fani sifatida didaktika bilan uzviy bog'liq hisoblandi. Biologiya o'qitish metodikasi maktab biologiyasining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ta'lim va tarbiyaning mazmuni, shakllari, usullari va vositalarining nazariy va amaliy muammolarini ishlab chiqadi.

Kalit so'zlar. Biologiya, metodika, akvarium metodi, baliq ovchisi, keys, venn diagrammasi, kichik guruhlarda ishlash.

Har bir shaxs hayotini, tirik tabiat to'g'risidagi ilmiy bilimlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi, chunki uning hayoti o'simliklar va hayvonot olami bilan butkulbog'langan, Lekin o'simliklar – yerda organik xom ashyo va energiya olish manbaidir. Hayvonot dunyosi o'z navbatida turli xil oziq ovqat va sanoat xomashyosining manbai bo'lib xizmat qiladi. Tabiiy boyliklardan mohirona foydalanish va ularni ko'paytirish xalq va davlat farovonligini yuqoriga ko'tarish uchun xizmat qiladi, to'g'ri yo'lga qo'yilgan biologik ta'lim, ilmiy dunyoqarashni tarbiyalashga imkon beradi. O'quvchilar, biologik ta'lim ola turib, tabiat faktlari va hodisalarini o'zaro bog'lanishda, harakat, o'zgarish va rivojlanish holatida tushunishga o'rganadilar. [1].

Bugungi kunda rivojlanayotgan umumiy o'rta ta'lim tizimida biologiya fani o'qituvchilarini tayyorlash muammosi ta'lim miqyosida dolzarb hisoblanadi. Biologiyaning rivojlanishi va uning yutuqlarini jamiyat hayotiga tatbiq etilmoqda. Binobarin, maktabda biologik ta'limning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Yosh mutaxassisni tayyorlash jarayonida o'quvchi o'qituvchining bevosita rahbarligida, ta'lim mazmuni, metodlari, vositalari va shakllari yordamida organik olamning qonuniyatlari, hodisa va voqealarning mohiyati, o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi va bilim, ko'nikma hamda malakalarni egallaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'quvchilar uchun o'quv jarayoni bilish jarayoni, uning faoliyati esa bilish faoliyatidir. O'qituvchi ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etadi, boshqaradi, nazorat qiladi, baholaydi va o'qitishdan ko'zda tutilgan ta'limiy,



tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni amalga oshirish orqali shaxsning har tomonlama rivojlanishiga zamin yaratadi. O'qituvchi uchun ta'lim jarayoni o'quvchilarning faoliyati bilan uzviy bog'langan va mazkur jarayonni tahlil qiladigan, umumlashtirib, tegishli hollarda o'zgartirishlar kiritadigan ish jarayoni, kasbiy pedagogik faoliyati sanaladi. Darsda o'quvchilarning bilish faoliyati va o'qituvchining pedagogik faoliyati bir-biriga uyg'un ravishda tashkil etilgandagina o'qitishdan ko'zda tutilgan maqsadlarga erishish mumkin. O'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish dars asosini tashkil etadi. Shu sababli bu masalani chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiq. [2].

Biologiyani o'qitish jarayonida tabiiy fanlarning hozirgi holatiga muvofiq ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish voqelikni yaxlit idrok etishning tabiiy ehtiyoji bilan bog'liq holda falsafiy muammolarga qiziqishi ortgan o'rta maktab o'quvchilari uchun alohida ahamiyatga ega. Maktab biologiyasi boshqa fanlarga o'xshamagan holda, tabiat hodisalarga tizimli va tarixiy yondashuv birligini bilim kuchini ko'rsatishga yordam beradi. Biologiya o'qitish jarayonida maktab o'quvchilarning dialekt tafakkurini rivojlantirish bilan birgalikda ular organik dunyoning ilmiy manzarasi, hayotning tarixiyli va uning harakat tizimidagi o'rni, qarama-qarshi bilish usullari bilan ochib beriladi. Biologiya maktab tizimidagi tabiatshunoslik siklining yetakchi fanlardan biridir, chunki u shaxsning shakllanishida va rivojlanishida katta ahamiyatga ega. [3]. Akvarium metodi. Bunda 5-6 nafar ishtirokchilar rahbar bilan birga doira shakli bo'ylab o'tiradilar. Ular - «baliqlar». Ularning atrofiga guruhning qolgan ishtirokchilari o'tiradilar (yoki turadilar). Ular - «baliq ovchilari». Ichki doira a'zolari («baliqlar») o'qituvchi taklif qilgan savolni faol muhokama qiladilar. "Baliq ovchilari" esa kuzatib turadilar va savolni muhokama qilayotgan biron o'quvchining fikri ularni qiziqtirib qolganda jarayonga kirishadilar: qo'shimcha qiladilar, savol beradilar, aniqlashtiradilar. Shunda «baliq ovchisi» fikri uni qiziqtirib qolgan «baliq»ning yoniga turib olishi kerak. Bir muammoning (masalaning) muhokamasi tugaganidan so'ng ishtirokchilar joylari bilan almashadilar (doiradan tashqarida turganlar endi doira bo'ylab o'tiradilar). Barcha ishtirokchilar doirada o'tirishlari maqsadga muvofiqdir. Foydalanish doiralari. Tabiiy va aniq fanlarni o'rganish jarayonlarida qo'llaniladi. Afzalliklari. Ishtirokchilarga norasmiy sharoitda fikr almashishga, berilgan muammoni (masalani) hal qilish bo'yicha o'z nuqtai nazarlarini bayon etishga imkon yaratadi. Muhokama jarayoniga erkin qo'shilish va undan chiqib ketishga imkon beradi. Tahliliy fikrlash, e'tibor jamlash va kuzatuvchanlikni rivojlantiradi. Nutqni va teskari aloqa texnikasini rivojlantiradi. Qiyinchiliklari. Muammoni muhokama qilishda



barcha o'quvchilar faol ishtirok etish jarayonida baxs munozalar, nizolar yuzaga kelishi mumkin. Shu bois o'qituvchi yaxshi tayyorlanishi va kuchli qarama-qarshiliklar paydo bo'lishiga yo'l bermaydigan uslublarni bilishi lozim. Aniq nazorat bo'lishini talab qiladi. Jarayon davomida ayrim o'quvchilar undan chiqib qolishlari (jarayonda ishtirok etmasliklari) mumkin. O'qituvchi muammoni muhokama qilishga barcha o'quvchilarni jalb qilish usullarini o'ylab chiqishi kerak.

Xulosada avvalo, interfaol metodning an'anaviy metoddan farqli tomonlarini ko'rib chiqish lozim.

Birinchidan, darsda barcha mavzular bo'yicha talaba uchun qulay bo'lgan dars turlari shaklida qo'llaniladi. Interfaolda ayrim mavzular bo'yicha interfaol darsning qulay bo'lgan turlari shaklida qo'llaniladi.

Ikkinchidan, Dars mavzusi bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish, mustahkamlansa, faol metodda dars mavzusi bo'yicha mustaqil fikrlash, xulosaga kelish, ularni bayon qilish, himoyalashga o'rgatiladi.

Uchinchidan, o'qituvchining vazifalari yangi mavzuni tushuntirish, mustahkamlash, nazorat, topshiriqlar berishdan iborat bo'lsa, noan'anaviyga o'quvchilarning mustaqil ishlashlarini va taqdimotlarini tashkil qilish, boshqarish, nazorat, yakuniy xulosalarni asoslab beriladi.

To'rtinchidan, darsga tayyorgarlikka dars rejasi, konspekt va didaktik vositalarni tayyorlash kabi talablar qo'yilsa, interfaol metodda Interfaol dars ishlanmasi, mustaqil ishlar uchun topshiriqlar, tarqatma materiallar, boshqa zarur vositalarni tayyorlanadi. O'quvchilar tayyorgarligi esa, oldingi dars bo'yicha vazifalarni bajarib kelish talablari berilsa, yangi metodda yangi dars mavzusi bo'yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma'lumotlarni bilish talabi qo'yiladi. Interfaol usullarda vaqt talabi dars vaqtining ko'p qismi o'quvchilarning mustaqil topshiriqlarni bajarishi, fikr almashishi, mushohada qilishi, o'z xulosalarini bayon qilishi va himoyalashiga sarflanishi bilan belgilansa, an'anaviyda dars vaqtining ko'p qismi o'qituvchining yangi mavzuni tushuntirishi, tahlil qilishi, topshiriqlarni tushuntirishi, o'zlashtirishni nazorat qilishiga sarflanadi. Darsning modul va algoritmlaridan an'anaviyda har bir o'qituvchi o'zi qo'llayotgan metodga muvofiq foydalansa, noan'anaviyda har bir dars oldindan tayyorlangan modullar va algoritmlarga, loyihalarga muvofiq o'tkaziladi. Beshinchidan, bilimlarni o'zlashtirishning asosiy usullari an'anaviyda muloqot, muhokama, muzokara, bahs, munozara, mulohaza, tahlil, mushohada, mutolaa, noan'anaviyda muloqot, mutolaa, mushohada, muhokama, muzokara, bahs, munozara, mulohaza, tahlil tarzda namoyon bo'ladi. [3].



Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Biologiyani o'rganishda o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish uchun darsning o'quvchilarning o'tgan mavzu yuzasidan o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash, ulami tizimlashtirish, yangi mavzu yuzasidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalami nazorat qilish va baholash, shuningdek, yangi mavzuni o'rganish jarayonida lokal texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Biologiyani o'qitishda lokal darajadagi pedagogik texnologiyalardan «Keys», «Insert», «Waster», Venn diagrammasi, «Aqliy hujum», «Kichik guruhlarda ishlash», «Atamalar zanjiri», tezkor o'yinlar va o'yin mashqlarning turli shakllaridan foydalanish tavsiya etiladi

Adabiyotlar:

1. G'ofurov A.T, Ж., Tolipova J.A., Fayzullayev S.S, Azimov I, Biologiya o'qitish metodikasi. Toshkent. "Nizomiy nomidagi TDPU". 2005. B-77.
2. Qayumova Shaxnoza Karimovna. Biologiya fanini o'qitishda zamonaviy metodlar. <https://interonconf.org/index.php/ger/issue/view/32>.
3. Nosirova Dilduza Boynazarovna. Biologiya fanini o'qitishda zamonaviy metodlar. Международный научный журнал № 6 (100), «Научный импульс» Январь, 2023. В 51-55.



JISMONIY TARBIYA VA SPORTNING INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRI VA FOYDASI

Jizzax shahar 32-DMTT direktori

Jabborova Dilshoda Normurodovna

Jizzax shahar 32-DMTT jismoniy tarbiya yo'riqchisi

Pirnazarova Nafosat Juraqulovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada jismoniy tarbiyaning inson salomatligiga ta'siri haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Salomatlik, jismoniy tarbiya, sport o'yinlari, salomatlikni asrash, salomatligini asrash, sport turlari, jismoniy mashqlar, badantarbiya.

Salomatlik - dunyodagi eng katta boylik sanaladi. Mutaxassislarning baho berishicha, aholi salomatligining 40-50% hayot tarziga bog'liq. Zararli odatlar, noto'g'ri ovqatlanish, alkogol va tamakini me'yoridan ortiq iste'mol qilish, ko'p o'tirish, stress, atrof muhitning iflosligi turli kasalliklarga, yurak-qon va nafas olish tizimi kasalliklari kabi ko'plab kasalliklarga olib keladi. Jismoniy tarbiyaning inson tanasiga va organlariga aynan qanday tarzda ta'sir etishini butun dunyo olimlari e'tirof etadilar. Haqiqatdan ham, jismoniy tarbiya har bir kishi hayotida juda muhim ahamiyat kasb etib, ajratib bo'lmaz qismidir. Shu sababdan, yurtimizda yetuklik komillikka erishish bosqichlaridan biri bo'lganligi bois jismoniy tarbiya va sport o'yinlariga juda kata e'tibor qaratilmoqda. Salomatlik inson hayotida, ayniqsa, yoshlik chog'larida muhim ahamiyatga ega. Salomatlik darajasi uning kasbiy qobiliyatiga, ijodiy o'sishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Salomatlik ahvoli inson omilining tabiiy asoslariga ta'sir etishini qayd etish muhim ahamiyatga ega. Mustahkam salomatlik ish kuch sifatini ham oshiradi. Shunday qilib, sog'lom inson yuqori sifatli ishchi kuchidir. Yosh o'tgan sayin va sog'lom hayot tarzini buzilishi bilan orttirilgan kasalliklar surunkali kasalliklarga aylanadi. Bundan inson qanday hayot tarzi yuritishiga qarab salomatligi darajasi haqida so'z yuritish mumkin, degan xulosaga kelish mumkin. Salomatlikni asrash va mustahkamlash deganda jismoniy rivojlanish, gavda tuzilishi, jismoniy va funksional tayyorgarlikni yaxshilash



tushiniladi. Salomatlikni yaxshilashga esa muntazam jismoniy mashqlar orqali erishish mumkin. Abu Ali ibn Sino salomatlik haqidagi fanning asoschilaridan biridir. Alloma kasalliklarning oldini olish va ularni davolash bilan birgalikda salomatlikni asrashga ham katta e'tibor bergan. U jismoniy mashqlar bilan muntazam shug'ullanish, sog'lom bo'lishning kuchli omili ekanligini ko'p bora qayd etgan va sog'liqni saqlash uchun yetti omilga e'tiborni qaratgan:

Bosiqlik;

Ovqatlanish tartibi;

Gavdani tik tutish;

Toza havo;

Qulay kiyim;

Jismoniy harakatlar;

Ruhiy harakatlarning ravonligi.

Yuqorida aytilgan har bir omil inson salomatligiga ijobiy ta'sir etishida muhim o'rin egallashini bugungu kun ilm-fam ham isbotlab beradi. Salomatlik – ijtimoiy – iqtisodiy, biologik, ekologik, tibbiy va psixoemosional ta'sirlarning natijasidir va uni sog'lomlashtiruvchi jismoniy mashqlar yordamida mustahkamlash mumkin.

Sog'lomlashtiruvchi jismoniy mashqlar organizmning tashqi muhitni salbiy ta'siriga qarshiligini oshiradi va shu sababli salomatlikni mustahkamlash va kasalliklarni oldini olishda samarali vosita hisoblanadi. Shu munosabat bilan yoshlarni har tomonlama komil inson qilib tarbiyalashga yordam beruvchi, o'zaro bog'liq aniq vazifalarni bajarishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. O'quvchi yoshlar salomatligini asrash va mustahkamlash masalalarini hal etish yosh avlodni jismonan va ma'nan voyaga yetkazish, rivojlanib kelayotgan davlatning faol quruvchilarini har tomonlama tarbiyalashning asosiy hisoblanadi. Shuning uchun sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya yoshlar salomatligini asrash va mustahkamlash, kasalliklarning oldini oluvchi jarayon bo'lib hisoblanadi. E'tirof etish zarurki, sport turlari bilan shug'ullanuvchilarning mashg'ulotlarida ham sog'lomlashtiruvchi vositalar, tadbirlar o'z mazmuni, vazifasi va o'rniga egadir.

Umuman olganda jismoniy va aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchilarning harakat faoliyatlarini nazarda tutgan holda ularning mehnat qobiliyatini ta'minlovchi jismoniy mashqlar, turli xil o'yinlar, sayr - sayohatlar sog'lomlashtirish vazifasini o'taydi. Shu sababli, jismoniy tarbiya va



sport o'yinlari bilan muntazam shug'ullanish inson salomatligiga, turmush tarziga ijobiy ta'sir qiladi. Muntazam ravishda badantariya, sport bilan shug'ullangan insonlar sog'lom va ko'rkam ko'rinishga, sog'lom va to'g'ri turmush tarziga ega bo'lish bilan birga jamiyat hayotida yetakchi kuch, zarur insonga aylanadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. T.Usmonxo'jayev, S. Arzumanov "Jismoniy tarbiya". Toshkent,O'qituvchi,2007
2. И.Филлипович «Теории и методика гимнастика».Москва.Наука.1991
3. Rahimqulov K.D., Usmonxujaev T.S. «Jismoniy tarbiyadan bolalar va o'smirlar uchun 1000 mashq hamda harakatli o'yinlar. 2001y.



ADABIY ERTAKLARNING BOLA HAYOTIDAGI AHAMIYATI

*Jizzax shahar 32-DMTT tarbiyachilari
Hayrullayeva Nargiza Iboydullayevna
Imomnazarova To‘maris Qahramonovna*

Annotatsiya: ushbu maqolada adabiy ertaklar paydo bo‘lishi, adabiy ertaklarning ma’naviy, tarbiyaviy ahamiyati haqida, bolalarning kundalik hayotida ularning qo‘llanilishi, adabiy ertaklarning bola hayotidagi o‘rni to‘g‘risida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: ertak, an’anaviy xalq ertaklari, adabiy ertaklar, bola, adabiyot vakillari.

Аннотация: в данной статье описывается возникновение литературных сказок, духовно-воспитательное значение литературных сказок, их использование в детской повседневной жизни, роль литературных сказок в жизни ребенка.

Ключевые слова: сказка, традиционные народные сказки, литературные сказки, дети, представители литературы.

Ertamiz egalari bo‘lmish yosh avlodni har tomonlama yetuk insonlar qilib shakllantirishimizda bevosita ertaklarning roli benihoyadir. Ertaklar yordamida bolalarda yuksak insoniy sifatlar shakllanadi. Ular azal-azaldan bolajonlarning murg‘ak qalbiga umid, ishonch, jasorat ruhini hadya etib kelgan va ular qalbida mehroqibatlilik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik kabi tuyg‘ularni shakllantirgan. Mardlik, to‘g‘ri so‘zlik, oqillik kabi hislatlar ertaklarda tarannum etilgan. Bolalar yaxshi va yomon insonlar, narsalar, hodisalarni farqlashni o‘rganadilar. Asrlar davomida barcha yosh avlodning tarbiyalanishida xalq og‘zaki ijodining bir qismi bo‘lgan xalq tomonidan yaratilgan an’anaviy xalq ertaklaridan foydalanilgan. Yillar o‘tib, an’anaviy ertaklarga asoslangan holda adabiyot vakillari tomonidan bir- biridan qiziqarli adabiy ertaklar yaratila boshlandi va adabiy ertaklar janr sifatida shakllana bordi. Xush adabiy ertaklarning mohiyati nimalardan iborat ekan? Adabiy ertak - bu muallif tomonidan ishlab chiqilgan, sehrli va fantastik syujetli, haqiqiy yoki xayoliy qahramonlardan iborat bo‘lgan hikoya janri bo‘lib, unda muallifning xohishiga ko‘ra estetik, axloqiy tarbiya jarayonlari, ijtimoiy muammolar va munosabatlar aks ettiriladi. An’anaviy ertaklar umumiy tarzda go‘yo kimdandir eshtilgandek tuyulsa,



yozuvchilar esa badiiy ertaklarni ayni o‘zlari ko‘zlari bilan ko‘rgandek hikoya qilishadi. Bu esa badiiy ertaklardan ishonchlilik kuchayganini ifodalab, ularni adabiy asarlar darajasiga yaqinlashtirdi deyish mumkin. Adabiy ertaklar ham an’anaviy xalq ertaklari kabi bola ongida yuksak insoniy qarashlarni shakllantiradi va yuksalikka chorlaydi. Barcha an’anaviy xalq ertaklaridagi harakatlar adabiy ertak muallifining badiiy dizayniga bo‘ysunadi. Adabiy ertaklarda yozuvchi voqealar ketma - ketligini, yakunini xalq ertaklarining an’anaviy usullaridan foydalangan holda badiiy tasvirlar bilan ifodalab beradi. Kundalik hayotda an’anaviy xalq ertaklari bilan birgalikda adabiy ertaklar bilan ham bolalarni tanishtirish kerak. O‘zbek bolalar adabiyoti vakillaridan Po‘lat Mo‘min, Jo‘ra Rahim, Hamza Imonberdiyev, Tursunboy Adashboyev, Turg‘unboy G‘oyibov, Dilshod Rajab, Anvar Obidjon, Xudoyberdi To‘xtaboyev, Aziz Abdurazzoq, Kavsar Turdiyeva va Zamira Ibrohimovalarni bir qator ertak, ertak - dostonlari, ertak - qissalari sodda, tushunarli va qiziqarli usulda yozilgan. Yuqorida keltirib o‘tilgan bolalar shoirlari, yozuvchilar yozgan ertaklarida ertak o‘quvchiga yoki tinglovchiga tengdoshini misol qilib, tengdoshidagi odatlar fikrlar orqali o‘quvchiga ya’ni bolaga tarbiyaviy, axloqiy jihatdan ta’sir o‘tkaziladi. Yoki bo‘lmasa, hayvonlar, o‘simliklar, tabiat hodisalari yordamida vatanparvarlik, uddaburonlik haqida tasvirlanadi hamda insonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar ifodalab beriladi. Masalan: Zamira Ibrohimovani “Tish qurti” ertagi judayam qiziqarli va ibratli. Ertakda Mardontoy ismli haqida gap ketadi. Mardantoy shirinlikka o‘ch, erinchoq bola ekan. U tishlarini yuvishni umuman yoqtirmas ekan. U ko‘p shirinlik yeyaverganidan tishiga mittigina tish qurti o‘rnashib olibdi. Mardantoy qurtni sezmabdi. Qurtcha Mardantoy bilan do‘stlashib olibdi. Mardantoy oyisini aytganini qilmasdan, ovqat yemay faqat shirinlik yeyishda davom etaveribdi. Mittigina qurtcha kundan kunga semirib ketaveribdi. Qurt Mardantoyning tishidan kovak yasabdi va kursi qo‘yib, o‘tirib olibdi shunda bir kuni Mardantoyni tishi og‘rib qolibdi. Keyin Mardantoyni oyisi tish shifokoriga olib boribdi. Tish shifokori Mardantoyni qurtlagan jag‘ tishini ombiri bilan olib yuboribdi. Tish og‘rig‘idan juda qiynalgan Mardantoy qolgan tishlarini astoydil asrash uchun tishlarini har kuni yuvadigan, oyisi aytganini bajaradigan aqlli bola bo‘libdi. Ertakning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, ertak bolalarni sog‘lom hayot kechirishga, gigiyena qoidalariga rioya qilishga bundan tashqari doimo kattalarni gapiga sulok solish kerakligini o‘rgatyapti. Deyarli barcha bolalar xalq ertaklarining qahramonlarini, ertak voqealarini ketma



ketligini yoddan bilishadi. Adabiy ertaklarda esa bolalar ertaklarning kam qismi bilan tanishtirilgan. Shuning uchun Maktabgacha ta'lim tashkilotlari Nutq, o'qish va yozish malakalarini rivojlantirish hamda badiiy adabiyot faoliyatlarida adabiy ertaklarni ko'proq qo'llash, har xil usul va metodlar yordamida bolalar xotirasida mustahkamlash joizdir. O'tgan asrlar mobaynida bolalar ongi o'z zamonasiga monand holda osoyishtalikni taqozo etgan. Hozirgi kunda yosh avlod ongi ham shiddatli davrga munosib ravishda voqealar tezkor rivojlanishini talab qilyapti. Bu o'z-o'zidan axborot almashinuvi tez bo'lgan, shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrga mos va xos bo'lgan adabiy ertaklarni yozilishini talab etadi. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, adabiy ertaklar umuman olganda barcha ertaklar bolani yuksak shaxs pog'onasiga ko'tarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiy ertaklar bolani tarbiyaviy, axloqiy, estetik jihatdan tarbiyalash bilan birgalikda ularni fantaziya qilish, yangi g'oyalar ishlab chiqishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor.Darslik. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti,2006
2. Ahmedova Z. Ertak terapiya. Toshkent – 2019
3. Jamilova B. O'zbek bolalar adabiyoti/o'quv qo'llanma/. – Toshkent: "Innovatsiya –Ziyo",2020.
4. <https://www.ziyouz.com>
5. <https://gulxan.uz>



МАКТАБGACHA TA'LIM SOHASIDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR

Jizzax shahar 32-DMTT tarbiyachilari
Allayorova Dilafruz Murodqobilovna
Darxanova Nargiza Berdiyorovna

Annotatsiya: Maqolada xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, maktabgacha ta'lim tizimiga oid qilinayotgan ishlar xususida so'z boradi. Rivojlangan xorijiy davlatlardan Janubiy Koreya, Yaponiya, Germaniya, Shvetsiya, Angliya, Italiya, Isroil kabi rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi maktabgacha ta'lim tizimi, ish tajribalari tahlil qilinib, ularga ijodiy yondashish haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: xalqaro hamkorlik, xorij tajribasi, innovatsiyalar, ish tajribalari, Koreya ta'lim tizimi, Germaniya ta'lim tizimi, Fransiya ta'lim tizimi.

Bugungi kunda ta'lim sohasining barcha bosqichlarida, jumladan Maktabgacha ta'lim sohasida ham ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish, xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish O'zbekistondagi yosh avlodning barkamol avlod bo'lib voyaga yetishishiga yordam beradi. Tarbiyachining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda ilg'or xorij tajribalaridan o'zimizning metalitet va qadriyatlarimizni inobatga olgan holda ta'lim tarbiya jarayoniga qo'llash bugungi kun davlat talablaridan biridir. Prezidentimiz huzurida 2017-yil 16-avgust kuni bo'lib o'tgan yig'ilishda maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur muassasalarga bolalarni to'la qamrab olish bo'yicha muhim vazifalar qo'yilgan edi. Mazkur sohani takomillashtirish maqsadida qabul qilingan dasturda maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini sifatida, bu jarayonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining bolalar huquqiy savodxonligini shakllantirishdagi o'rni hamda respublikada ta'lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi ekanligi ta'kidlangan. Ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yishda, eng avvalo, Janubiy Koreya, Yaponiya, Germaniya, Belgiya, Fransiya kabi rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini keng o'rganish zarur hisoblanadi. Shulardan Germaniyada bolalar bog'chaga borishi majburiy emas. To'lov ota-onalarning ish haqiga bog'liq. Shuningdek, kam ta'minlangan oilalarga bolalarni bog'chaga



jo'natish uchun imtiyozlar berilgan. Bu davlatdagi bog'chalarning o'ziga xosligi tarbiya muassasalarida bolalarga hech qanday darslar o'tilmasligidir. Chunki, bu mamlakatda bolalik ortiqcha bosimlarsiz, normal o'tishi kerak degan tushuncha qabul qilingan. Shuning uchun ham bolalar barcha muhim bilimlarni faqat maktabda o'zlashtiradi. Bundan tashqari, Germaniya bog'chalarida muloqotga ko'p vaqt ajratiladi. Tarbiyachilar bolalarning muloqot qobiliyatlariga e'tibor berib, ularga bag'rikenglik, qiyin vaziyatlardan chiqish yo'lini topish va atrofdagilarga hamdardlik ko'rsatish xususiyatlarini shakllantirishga ahamiyat beradi. Ispaniyada bolalar uch yoshdan boshlab bog'chaga beriladi, agar bola bog'chaga bormasa, ota-onalar sababni shahar hokimligiga tushuntirishlari kerak. Bu davlatda majburiy bolalar bog'chasiga borish tushunchasi ham mavjud. Unga ko'ra, majburiy bog'cha olti yoshdan boshlanadi. Mazkur bosqichda bolalar asosan, boshlang'ich maktabga tayyorlanadi. Buni qarangki, mabodo ota-ona bolani bu yoshda o'qitish uchun bermagan bo'lsa, javobgarlikka tortilishi mumkin. Angliyada ham maktabgacha ta'lim tashkilotlari xususiy va davlatga bog'chalariga bo'lingan. Ikkala tur ham to'lovli. Narx oilaning daromadiga qarab o'zgaradi. Agar ota-onalarning bog'cha uchun to'lov qilishga imkoni bo'lmasa, davlat mablag' bilan ta'minlaydi, lekin bu holatda bolalar bog'chada nisbatan kamroq vaqt qoladi. Shuningdek, bu davlatda ikki yoki undan ortiq bolali oilalar uchun imtiyozlar mavjud. Bunda ikkinchi va undan keyingi bolalarni bog'chaga yuborish davlat tomonidan amalga oshiriladi yoki ota-onalarga bu uchun kattagina chegirma beriladi. Ispaniyada bolalar uch yoshdan boshlab bog'chaga beriladi, agar bola bog'chaga bormasa, ota-onalar sababni shahar hokimligiga tushuntirishlari kerak. Bu davlatda majburiy bolalar bog'chasiga borish tushunchasi ham mavjud. Unga ko'ra, majburiy bog'cha olti yoshdan boshlanadi. Mazkur bosqichda bolalar asosan, boshlang'ich maktabga tayyorlanadi. Buni qarangki, mabodo ota-ona bolani bu yoshda o'qitish uchun bermagan bo'lsa, javobgarlikka tortilishi mumkin.

Shvetsiya bog'chalarida bolalarning jismoniy rivojlanishiga urg'u berilgan. Ular ko'p vaqtlarini ochiq havoda, o'yin yoki o'qishda o'tkazadi. Shvetsiya bog'chalarining noodatiyligi ko'p hollarda bolalarga ko'lmaklardan o'tishga, yerga yotishga va hatto usti-boshi va o'zini iflos qilishga ham ruxsat beriladi. «Baxtli bola – iflos bola» deyishadi, ular. Ehtimol, mazkur tarbiya usuli bolaning erkinligi, o'z istak-xohishlarini ifodalay olishi belgisidir. Italiyada bolalar uch yoshdan keyin bog'chaga yuboriladi. Ungacha ular ota-onasi va boshqa qarindoshlari bilan uyda qoladi. Bog'chalar ikki turga bo'lingan: xususiy va davlat. Ko'pincha ota-onalar davlat bog'chalarini afzal



ko'radi, ammo qizig'i, xususiyan ko'ra, davlat bog'chalaridagi to'lov qimmatroq. Ota-onalar bolalarni odatda soat 16:30 da uyga olib ketishadi, biroq bolalar soat 18:30 gacha bog'chada qolish huquqiga ega. Faqat bunday imtiyoz uchun ota-onaga ishdan berilgan sertifikat kerak, shuningdek, qo'shimcha to'lov ham amalga oshirilishi zarur. Yozda esa maktabgacha ta'lim tashkilotlari yopiladi. Lekin bu vaqtda qo'shimcha haq evaziga iyul va avgust oylarida bolalar bog'chaga borishi mumkin. Kichkina italiyaliklar bog'chalarda qo'shiq aytadi, rasm chizadi va raqsga tushadi. Shuningdek, bu davlat bog'chalarida tuzilgan dastur bolalarning ingliz tilini o'rganishini ham o'z ichiga oladi.

Finlandiyada bog'cha ta'limining bir nechta turi mavjud: umumiy, xususiy va oilaviy. Finlandiya maktabgacha ta'limi "Bolalarning bolaligi bo'lishi kerak" degan g'oyani ilgari suradi. Shuning uchun ham u yerda hamma narsa o'yin asosida tashkil etilgan. Bolalar bog'chasi 6:30 da ochiladi va 17:00 ga qadar ishlaydi. Bolalar bog'chasi qat'iy tartib asosida ish olib boradi. Bolalar 8:00 da nonushta qilishadi shundan so'ng mashg'ulotlar boshlanadi. 9:30 da sayrga chiqishadi. Soat 10:30 da birinchi tushlik beriladi. 11:00da uxlashga yotishadi (13:00gacha). Kunduzgi uyqudan so'ng ikkinchi tushlikni qilib ish vaqti tugagunga qadar tashqarida sayr qilishadi. Finlyandiyada bolalar asosan davlat bog'chalariga beriladi. Ammo qizig'i, agar ota-onaning bog'cha borasidagi tanlovi xususiy muassasaga to'g'ri kelgan bo'lsa, davlat xarajatlarning bir qismini o'z zimmasiga oladi. Bola bog'chaga qadam qo'yishdan oldin, tarbiyachi individual rivojlanish rejasini tuzish va bolaning rejimi, odatlari va ovqatlanishi haqida bilish uchun bola yashaydigan uyga keladi. Shuningdek, Finlyandiyada bog'chalarida hech qanday cheklovlar yo'q: asosiy vazifa bolalarning boshqalarga va o'ziga zarar keltirmasligi, xolos. Shvetsiyadagi kabi Finlyandiyada ham bolalar bog'chalarda erkin ulg'ayadi. Masalan, bu yerda bolalar yerga yotishlari mumkin va bu «qilmish» uchun bolani urishishmaydi, holat normal deb qabul qilinadi.

Buyuk Britaniyada bolalar bog'chalarga to'qqiz oylikdan boshlab qabul qilinadi. Bog'chalar 6:15 da ochilib, 17:00 da yopiladi. Buyuk Britaniyada mutlaqo bepul jamoat bog'chalari ham mavjud bo'lib, bunday muassasalarga bolalar uch yoshdan boshlab qabul qilinadi. Bolani bog'chada kuniga o'n besh soatgacha qoldirishga ruxsat berilgan. Shuningdek, hatto ota-onasi noqonuniy ravishda mamlakatda



bo'lgan bolalar ham bunday bog'chalarga borishlari mumkin. Buyuk Britaniyadagi xususiy bog'chalar juda qimmat. Bunday bog'chalarda bolalar bog'cha taomlaridan tashqari, uyidan berib yuborilgan gazak gamburger va boshqa zararli narsalarni ham yeyishi mumkin. Bu davlatdagi bog'chalarning o'ziga xosligi kunduzgi uyqu amalda qo'llanilmaydi. Ya'ni majburlab uxlatish, uyqu vaqti, degan tushunchalar yo'q. Shuningdek, bola o'zi istasa, uxlashi mumkin va xohlagan joyda uxlab qolishiga ham to'sqinlik yo'q. Masalan, hatto o'yin xonasida ham. Isroilda bolalar bog'chalari yiliga o'n ikki oy ishlaydi. Faqat avgust oyining oxiridagina ikki haftalik ta'til belgilangan, xolos. Bolalar muassasalari yakshanbadan payshanbagacha soat 7:00 dan 17:00 gacha, juma kunlari esa soat 7:00 dan 12:30 gacha faoliyat olib boradi. Bu davlatdagi bog'chalarda har bir guruhda sakkizdan yigirma to'rttagacha bolalar tarbiyalanadi. Bitta tarbiyachi 10 nafargacha bolaga qarashi kerak. Bola uch yoshdan boshlab davlat bog'chalariga berilishi mumkin. Bog'chalardagi turli ta'limlar mutlaqo bepul, lekin ular faqat tushlikkacha faoliyat ko'rsatadi. Bolalar, shuningdek, ritm, musiqa, ingliz tili, yoga va boshqa yo'nalishlar bo'yicha ham qo'shimcha saboqlar olishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi "2017- 2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3261sonli qarori. 2017 yil.
3. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari". T.: 2018.
4. Ilk qadam" o'quvdasturi. T.: 2018.
5. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. –T.: "O'zbekiston", 2018.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947-son Farmoni.
7. R.Arum, M.Velez. Improving Learning Environments.



TABLE OF CONTENTS / ОГЛАВЛЕНИЯ / MUNDARIJA

№	The subject of the article / Тема статьи / Maqola mavzusi	Page / Страница / Sahifa
1	NODAVLAT MAKTABGACHGA TA'LIM MUASSALARINI TASHKIL ETISH	3
2	METHODIST MAKTABI XONASI ISH MAZMUNI	6
3	IJTIMOIIY MAKTABGACHA TA'LIMNI TASHKIL ETISH VAZIFALARI	11
4	IMOM AL-BUXORIY TA'LIM OLGAN, LEKIN HOZIRDA SAQLANIB QOLMAGAN MADRASA	19
5	ВОПРОСЫ УСТАНОВКИ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СВЯЗИ С ПОДОЗРЕВАЕМОМ ВО ВРЕМЯ ДОПРОСА	25
6	OLXO'RI (G'AYLOLI) NAVLARI VA ULARNI QAYTA ISHLASH USULLARI	34
7	KIYIMGGA QO'YILGAN TALABLAR VA TIKUV BUYUMLARI KONSTRUKTSIYASI DETALLAR SHAKLINI O'RGANISH	39
8	ZAMONAVIY MODELLARNI YARATISHDA SIFAT VA TALABNING O'RNINI TO'G'RI TASHKIL ETISH	41
9	KATARAKTA KASALLIGI VA UNI PAYDO BO'LISH SABABLARI	44
10	BUGUNGI TA'LIM TIZIMIDA TALABALARNI O'QITISH VA TA'LIM OLIISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	46
11	THE ROLE OF WHILE-LISTENING ACTIVITIES IN EFL TEACHING	52
12	THE ROLE OF LESSON PLAN IN TEACHING	57
13	BADIIY ASARLARDA MODAL SO'ZLARINING MA'NO KUCHAYTIRISH VAZIFASI	62
14	STAGES AND EXERCISES FOR DEVELOPMENT OF READING SKILLS	64
15	AXBOROTLARNI KRIPTOGRAFIK HIMOYALASH VOSITALARI VA ULARNI AMALIYOTDA QO'LLASH USULLARI	67
16	BOSHLANG'ICH SINIF DARSLIKLARIDAGI AYRIM ONOMASTIK BIRLIKLARNING LEKSIK-SEMANTIK TADQIQI	70
17	COMPARATIVE AND STRUCTURAL ANALYSIS OF COMMERCIAL TERMS IN UZBEK AND ENGLISH	75
18	BOLALARNING MUSTAQIL MUSIQIY QOBILIYATINI RIVOJLANISHIGA OILA VA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTINING TA'SIRI	79
19	BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMIDA BILIMGGA YO'NALTIRILGAN KLAVIATURA TRENAJORLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI	82
20	MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING MADANIY VA MA'RIFIY TARAQQIYOTI	85



21	ODOB-AXLOQ VA DIN	88
22	GENDER TENGLIGIDA AYOLLARNING HUQUQ VA IMKONIYATLARINI RIVOJLANTIRISH	92
23	YOSH AVLODNING HUQUQIY MADANIYATI VA ONGINI SHAKLLANTIRISH VOSITALARI	95
24	ЖЕНСКИЙ ХАРАКТЕР КАК ОСНОВНОЙ ДВИГАТЕЛЬ СОБЫТИЙ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПРОИЗВЕДЕНИИ (НА МАТЕРИАЛЕ РОМАНА Г. ФИЛДИНГА «ИСТОРИЯ ТОМА ДЖОНСА, НАЙДЁНЫША»)	100
25	SOCIOLINGUISTIC PECULIARITIES OF ADDRESSING IN THE ENGLISH LANGUAGE	106
26	MOBIL ILOVALAR VA BIZNES: FOYDALANISH, RIVOJLANISH VA MUVAFFAQIYAT ASOSLARI	110
27	SHAXSIY HUQUQ VA ERKINLIKARNI TA'MINLASH VA UNING XALQARO DARAJADAGI PRINSIP VA NORMALARI	113
28	DILMUROD QURONOV – O'ZBEK TANQIDCHI OLIMI	122
29	XORIJIY TILLARNI O'RGANISHDA QO'LLANILADIGAN KOMMUNIKATIV METODLAR VA DUCH KELINADIGAN QIYINCHILIKLAR	127
30	NEW REFORMS IN UZBEKISTAN	129
31	DEVELOPMENT OF TEACHING METHODS IN PRIMARY CLASS STUDENTS	131
32	XOLIYOR SAFAR HIKOYALARIDA AYOL OBRAZI	134
33	AHMAD TABIBIY MUXAMMASLARI BADIYAT MASALASI	137
34	OGAHIYNING "RIYOZU-D-DAVLA" ASARIDAGI MASNAVIYLARIDA QAYTARISH BILAN BOG'LIQ SAN'ATLAR	141
35	BOLALAR SEREBRAL FALAJLANISHI VA ULARDA OLIB BORILADIGAN LOGOPEDIK-PSIXOLOGIK ISHLARNING O'ZIGA XOSLIGI.	145
36	BOLALARDA MEHR-MURUVVAT HISLARINI SHAKLLANTIRISH	149
37	BIOLOGIYA FANINI O'QITISH JARAYONIDA ZAMONAVIY METODLAR	152
38	JISMONIY TARBIYA VA SPORTNING INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRI VA FOYDASI	156
39	ADABIY ERTAKLARNING BOLA HAYOTIDAGI AHAMIYATI	159
40	MAKTABGACHA TA'LIM SOHASIDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR	162

Внимание!— ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ статьи и номера в юридическом, медицинском, социальном, научном журнале, информация в классах, права на информацию и правильные органы несут ответственность за точность данных органов.

Главный редактор:
В. Л. Семёнов

Помощник редактора:
М. А. Борисов

Редактор дизайна:
З. Ш. Халиков